





75.02
A-15



S.M. ABDUXAMIDOV

TASVIRIY VA AMALIY SAN'AT

(Tasviriy san'at o'qitish metodikasi)



45.02
11-15

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

S.M. ABDUXAMIDOV


TASVIRIY VA AMALIY SAN'AT

(Tasviriy san'at o'qitish metodikasi)

O'quv qo'llanma

— 450 —

TOSHKENT
«MALIK PRINT CO»
2021



UDK 75.02(075.8)

KBK 85.14я7

A 15

Muallif:

Abduxamidov Sardor Mardanaqulovich

Mas'ul muharrir:

X.X.Murotov – “Tasviriy san’at” kafedrası mudiri, O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi ijodkorlar uyushmasi a‘zosi, v.b.dotsent

Taqrizchilar:

X.E.Sultanov – “Tasviriy san’at” kafedrası mudiri, O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi ijodkorlar uyushmasi a‘zosi, dotsent

R.S.Fatxullayev – Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomchilik va dizayn instituti, “Tasviriy san’at tarixi va nazariyasi” kafedrası dotsenti, s.f.n.

Mazkur o‘quv qo‘llanma 5110800-Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi bakalavriat bosqichi 1-4-kurs talabalari hamda sohaga tegishli barcha ilmiy izlanuvchilar, litseylar, umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari, maktabdan tashqari muassasalarning to‘garak rahbarlari va havaskor hunarmand usta va rassomlar ham foydalanishlari mumkin bo‘lib, bugungi kun talablarini hisobga olingan holda tayyorlandi.

O‘quv qo‘llanma talabalarni “Tasviriy va amaliy san’at”ning nazariy hamda amaliy asoslari bilan chuqur tanishtiradi. Unda tasviriy va amaliy san’atning tur va janrlari to‘g‘risida keng ko‘lamdagi ma’lumotlar, glossarylar, adabiyotlar hamda ilovalar keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 1 martdagi 110-sonli buyrug‘iga asosan o‘quv qo‘llanma sifatida nashr etishga ruxsat berilgan.

ISBN 978-7743-7444-2-4

KIRISH

Respublikamizning kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shilishida xalqimiz madaniyati, ma'rifati, san'ati va ma'naviyatining o'rni beqiyosdir. Xalqimiz ma'naviyati va madaniyatini boyitishda tasviriy san'at muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim islohotlari kamol topib kelayotgan sog'lom va barkamol avlodni shaxs sifatida ulardagi bor ichki imkoniyatlari, iste'dodlari va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish hamda mantiqiy fikrlovchi mustaqil shaxslarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilgan.

Bugungi kunda Respublikamizda fan, ta'lim, madaniyat va san'at sohasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. **Jumladan,**

Prezidentimiz Mirziyoev Shavkat Miromonovich tomonidan 2017 yil 07 fevraldagi F-4947-sonli Farmoniga binoan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha **Harakatlar strategiyasi qabul qilindi**. Mazkur hujjatning 4-qismi "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" bo'lib mazkur hujjatning ramziy belgisida qizil rang bilan ya'ni hayot va aholining munosib turmush-tarziini ta'minlash ma'nosini bildirganligi hamda 2019 yilning 19 martida yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jisoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularni axborot texnologiyalaridan ko'nikmalarini singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etishi ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli va foydali o'tkazish maqsadida **"Besh muhim tashabbus"**ni ilgari surdi. Besh tashabbusning birinchisi yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodlarini yuzaga chiqarishga xizmat qilishi haqida so'z yuritishi ham bejiz emas.

Yoshlarni tasviriy san'at sohasida barkamol etib tarbiyalashda tasviriy va amaliy san'atga oid fanlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo'lishini taqozo etadi.

Jamiyat va davlat o'zligini anglagan, vatanparvarlik tuyg'usi bilan millat, xalq manfaatlari, madaniy ravnaqi uchun ma'suliyatli, ruhiy


sog'lom, jismonan yetuk, umuminsoniy va milliy xulq-atvor normalarini o'z ongi va faoliyatida mujassam etgan ma'naviy madaniyatli shaxsni tarbiyalab yetishtirishdan manfaatdordir.

Hozirgi zamon talabi avvalo, rivojlanib borayotgan ilm-fan taraqqiyoti va tajribalari hamda amaliy natijalarini chuqur o'rganib, ilm fanga dolzarb va o'ta ahamiyatli tomonlarini tadbqiq etishni taqozo etmoqda. Ta'limda har doimgidek uzluksizlik va uzviylikni ta'minlab, millionlab axborotlar ichidan asosli va natijaviy nazariy hamda amaliy ma'lumotlarni olib kirish fanning taraqqiyotini belgilaydi. Shunday muhim jihatlarni inobatga olgan holda 5110800-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bakalavriat bosqichi talabalariga tasviriy va amaliy san'atning tur va janrlarini o'rgatishda bugungi kun talabi asosida hozirgi zamon talabini o'rgangan holda qo'llanma yaratishni maqsad qildik.

Mazkur qo'llanma oliy o'quv yurtlarining 5110800-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bakalavriat bosqichi talabalar uchun tayyorlangan "Malaka talablari", o'quv rejalari, fan dasturlariga muvofiq mashg'ulotlaridan to'plangan ko'p yillik amaliy tajribalar, olimlarimiz va xorij olimlari tomonidan yaratilgan o'quv adabiyotlari, mashxur rassomlarning qalamtasvir to'g'risidagi fikr – mulohazalari asosida tayyorlandi.

Ushbu qo'llanmadan turdosh oliy ta'lim muassasalarining 5110800-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bakalavriat bosqichi talabalar, o'qituvchilar, metodistlar, san'at sohasi mutaxassislari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari va o'qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat taraqqiyoti tarixidagi eng birinchi va uzoq davom etgan bosqichlardan hisoblanadi. Bu bosqichni hamma xalq va elatlar o'z boshidan kechirdilar. Ana shu uzoq davom etgan taraqqiyot jarayonida hozirgi zamon odami tipi paydo bo'ldi, odamlar jamoasi yuzaga keldi. Ishlab chiqarish kuchlarining zaifligi odamlarni jamoa bo'lib yashash va mehnat qilishga da'vat etdi. Ular qudrat birlikda ekanligini hayotning ilk bosqichidayoq bildilar. Bu qudrat ularni tabiat sirlarini o'rganishga va o'rganganlarini jamoasiga yetkazish uchun o'zlari yashab turgan g'or devorlari hamda qoyatoshlarga rasmlar chiza boshladi. Madaniyat va san'at ravnaqiga zamin yaratdi (1-rasm).




1-rasm

Ibtidoiy jamoa tuzumi san'ati tarixi, odamzod tafakkuri, his-tuyg'ularining paydo bo'lishi va rivojlanishidan boshlab, yer yuzida birinchi davlatlarning yuzaga kelishigacha bo'lgan davr san'atini o'z ichiga oladi, o'rganadi va tahlil etadi.

Ibtidoiy jamoa tuzumidan bizgacha ashyoviy dalillar — mehnat va ov qurollari, uy-anjom va bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari yetib kelgan. Shular ibtidoiy jamoa kishisining estetik va diniy qarashlarini bilishga, ibtidoiy jamoaning madaniyati haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Tuproq ostida qolib ketgan moddiy yodgorliklar, odam va hayvonlar jasadining qoldiqlari, g'or va yerto'la devorlariga chizilgan surat va bo'rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o'rganishning muhim manbai hisoblanadi 2-rasm. Bulardan tashqari, etnografiya, tarix sohasidagi fan yutuqlari, antropologiya, lingvistika, geologiya, xalq og'zaki ijodi, saqlanib qolgan turli afsonalar, fizika, ximiya fanlarining yutuqlari ham shu davr tarixi va san'ati haqidagi tushunchalarning oydinlashishiga xizmat qiladi.




2-rasm

San'at qadim-qadimdan kishilarning mehnati jarayonida yuzaga keldi va rivojlandi. Odamlar mehnat jarayonida shakl tuyg'usini his etib, ritm, simmetriya tushunchalarini o'zlashtira boshladilar. Ular mehnat jarayonida tabiat kuchlarini o'zlariga bo'ysundira boshladilar. Ishlatilayotgan buyumlarning shakli bajarayotgan mehnatlarini osonlashtirishi yoki qiyinlashtirishi mumkinligini tushundilar. Qulay mehnat qurollarining unumi ularda o'z qurollariga nisbatan mehr tuyg'ularini uyg'ota bordi. Ular o'z qurollariga bezak berish orqali o'z mehrlarini izhor etishga harakat qila boshladilar. Odamlarda qulaylik va foydalilik tushunchalarining yuzaga kelishi voqelikdagi, hayotdagi go'zallik va xunukliklarni his etish imkoniyatini rivojlantira boshladi. Inson madaniyati taraqqiyot olamiga qadam qo'ydi. San'atning yuzaga kelishi insonning obyektiv voqelik to'g'risidagi bilimlarining chuqurlashishiga, o'z avlodi tajribalaridan bahramand bo'lishga olib keldi. Bu uni tabiat kuchlariga qarshi kurashishga da'vat etdi, uning aqliy kamoloti, estetik qarashlari rivojini jadallashtirdi.

Bugunga kelib tasviriy san'atda voqelikni obrazli bilish tomonlari kuchaydi. Uning tur va janrlari kengaydi va o'rganildi. Jumladan tasviriy san'atning hozirgi vaqtgacha asosan quyidagi tur va janrlari mavjud;

TASVIRIY SAN'AT TURLRI



Har bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak insoniy xislat va fazilatlarini kamol toptirdi, ularni tenglik, xurlik, bag'rikenglik, birodarlik va jatiqbolli kelajakka intilishga yangicha qarashga o'rgatdi.

I. NAFIS SAN'AT YOKI RANGTASVIR

Rangtasvir (*рису Живонучь*) – tasviriy san'atning turlaridan biri hisoblanib, unda muhim o'rinni rang egallaydi. Rangtasvirga qattiq tekislik yuzasiga bo'yoqlar orqali tushirilgan san'at asarlari kiradi. Rangtasvir degani hayotni jonli, ya'ni borlikni to'liq va ishonarli tarzda tasvirlanishini bildiradi. Rangtasvir amaliy xususiyatlariga ko'ra **monumental, dastgohli, miniatyura, teatr-dekoratsiyasi, bezakli naqqoshlik** va boshqa turlarga bo'linadi.

Ularning har-bir turi ishlash texnikasi va badiiy obrazini bajarilish vazifasiga va xususiyatiga bog'liq holda farqlanadi. Rangtasvirning badiiy obrazi ko'rgazmali va aniq ravshandir. Rassomlar asarni tasviriy va plastik vositalari (qalamtasvir va kompozitsiya) yordamida yaratishsa, asosiy ifodaliligini ko'rsatuvchi vosita esa rang hisoblanadi.

Rangtasvir inson hissiyotining murakkab hayotini ko'rsatishga, tabiatdagi nozik o'zgarishlarni tasvirlashga, boqiy falsafiy g'oyalarini va fantastik obrazlarini yaratishga qodir.

Rangtasvir tarixi ibtidoiy odamlarning g'orlardagi devor tasvirlaridan boshlanadi. Uning rivojlanish taraqqiyotida juda katta ma'naviy boyliklar yig'ilgan. O'rta Osiyodan topilgan devoriy rangtasvirlar millodan avvalgi VII-V asrlarga oid bo'lib bir vaqtning o'zida o'sha davrning hayoti tasvirini aks etgan.

Uyg'onish davriga kelib inson rangtasvir asarlarida asosiy qahramon sifatida namoyon bo'ladi. Madonnalarni tasvirlash barkamollik yuksak ideali hisoblanadi. Rassomlar haqqoniy kartinalar yaratishni boshladilar. Rangtasvir texnikasi doim takomillashib borardi. Rangtasvirchilarni rang-barang syujetlar qiziqtira boshladi. Buning natijasida XVII asrda janrlarni paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.


Eng qadimiy janrlardan biri bu portret janri hisoblangan. Mum rangtasviri texnikasida bajarilgan ajoyib portretlar Fayyum qishloq joyidan topilgan. Ular Qadimgi Misrda eramizdan avvalgi I-III asrlarda yaratilgan. Fayyum portretlari aniq hayotiy obrazliligi, shaklining hajmli yorug'-soyali tasvirlanishi bilan farqlidir.

Har bir portretda nafaqat tashqi o'xshashlik, balki insonning ichki psixologik dunyosini – oqil, tuyg'uga boy, olijanob xususiyatlarini yuqori badiiylilikda, o'ziga xos uslubda tasvirlay olganlar.

Bizning taniqli o'zbek musavvirlari ham portret janrida barakali

yutuqlarga erishishdilar.

Rasuliddin Behzod, Mahmud Muzahhib kabi miniatyurachi rassomlar o'zbek tasviriy san'atida chuqur iz qoldirgan. San'at darg'alaridan M.Habibov 3-rasm, L.Abdullaev, A.Abdullaev, R.Axmedov, M.Saidov, M.Oganevov, N.Qo'ziboev, Ch.Axmarov kabi yetuk rassomlarning portret janridagi islanishlari nihoyatda bebahodir.



3-rasm

Albatta, portret janrida ijodkor ichki psixologik holatni to'g'ri tasvirlashga erishishi uchun yuksak iste'dod, mahorat va katta tajriba kerak bo'ladi. Portret rangtasvirini o'rganishda sizning diqqatingizga bir qancha tavsiyalar havola etiladi. Ushbu tavsiyalar mashg'ulotlarda diqqat va jiddiylik bilan qo'llanilsa, portret rangtasvirini suvbo'yoqda ishlash sekin-asta ijodiy tus oladi.

Rangni turlicha qabul qilish mumkin, rang bilan fikrlash va loyi-halash ham mumkin. Rangshunoslik asoslarini, "rang" bilan "bo'yoq" tushunchalarning farqini o'rganish lozim. Rangtasvirda kerak bo'lgan

rangni, odatda, palitrada bo'yoqlarni aralashtirish orqali hosil qilinadi. Keyin rassom kartina tekisligida bo'yoqni ranglar majmuasini – kolorit yaratib, rangga aylantiradi. «Rang» so'zining o'zi bitta, lekin rangtasvir jarayonini ko'pchilik sifatini belgilaydi, shuning uchun rang ushbu san'at turining asosi bo'lib hisoblanishiga haqlidir.

Rangtasvir asoslarini bajarish uchun suvbo'yoq, guash, pastel, tushdan ham foydalaniladi. Rangtasvir uchun eng muhim va asosiy tasvirni ifodalovchi vosita bu moy bo'yoq hisoblanadi. Uning ta'sirchanligi turli assatsiativ tugunlarini keltirib chiqaradi.

Rangtasvirning boshqa bir ifodaviy vositasi qalamtasvir (chiziq va nur soya) rang bilan birgalikda tasvirning ritmik kompozitsion yaxlitligini tashkil qiladi, chiziqlar hajmlarini bir-biridan ajralib turadi.

Rangtasvir asari ishlanadigan (mato, yog'och, qog'oz, karton, devor, toshoyta, metall va boshqalar) asos materiyallar odatda grunt va rang qoplama, ba'zan yesa lokni saqlaydigan yupqa parda bilan qoplanadi. Rangtasvirning tasviriy va ifodaviy imkoniyatlari, ishlash texnologiyasining o'ziga xosligi, rangning xususiyati bo'yoqning maydalanganlik darajasi, rassom ishlayotgan asbob, u qo'llagan suyuqlikning xarakteriga bog'liq. Shuningdek matoning silliq yoki g'adir- budur yuzasi, birinchi qalam bo'yog'i rangning qo'yilish uslubiga rangtasvir asarining fakturasiga ta'sir qiladi.

Rangtasvir asarlari xususiyatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

Dastgohli rangtasvir;

mahobatli yoki monumental rangtasvir;

dekorativ rangtasvir;

mo'jaz rangtasvir;

teatr dekoratsiyasi turlarga bo'linadi.

Dastgohli rangtasvir deyilganda, rassomlarning maxsus asbob-dastgoh (molbert) yordamida ishlaydigan kartinalari tushuniladi.

Dastgohli rangtasvir asarlari uncha katta bo'lmagan o'lchovda yuqorida qayd qilib o'tilganidek mato, karton, oyna, faner kabi tekis yuzali materiatlarga bo'yoqlar bilan ishlanadi. Dastgohli rangtasvirda ko'pincha akvarel, moyli, guash, tempera va shu kabi bo'yoqlar qo'llaniladi. Rangtasvir asarlari maxsus dastgohlarda bajarilganligi uchun tasviriy san'atda mazkur tur dastgohli rangtasvir deb ataladi 4-rasm.



4-rasm


Aytdikdagi yoki monumental rangtasvir atamasi monumall (inglizcha monumental, ulkan) mahobatli rangtasvirning me'morlik bilan bog'liq bo'lgan binolarning ichki qismi, shiftlari, qisman binoning tashqi tomoni devorlariga ishlangan tasvirlar. Monumental rangtasvir jamiyat hayotidan o'tirgan muhim voqea va hodisalar, chuqur falsafiy tushunchalarni aks ettiradi. Uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi uchun obrazlarni umumlashtirishda tasvirlashga, mayda qismlardan kamroq foydalanishga qaratilgan. Ranglar ham birmuncha shartli olinishi mumkin.

Monumental rangtasvirning **freska, mozaika, vitraj, panno** kabi turlari mavjud.

Obrazlalar asosan bino devorlarininig o'ziga, shuningdek shiftga yoki raqslar yordamida shlanadi, 5-6-rasmlar.



5-rasm



6-rasm

Mozaika — turli tabiiy va ikkilamchi materiallar — rangli oyna porchalari, toshlar, shu kabi materiallardan bino devorlariga yoki tekis materiallar ustiga ishlanadi 7-8-rasmlar.



7-rasm



8-rasm

Vitraj esa binolarning deraza, yeshik, oynalari ustiga lak va moy bo'yoqlar yordamida ishlanadi. Vitrajlar uy ichkarisi va tashqarisidan ham bir xil ko'rinadi 9-10-11-rasmlar.



9-rasm



10-rasm



11-rasm

Rangtasvirning me'morlik bilan bog'liq yana bir turi mavjud: binolarning ichki qismi, shiftlari, qisman binoning tashqi tomoni devorlariga ishlangan tasvirlar 12-13-rasmlar. Monumental rangtasvir

bu voqea va hodisalar, chuqur falsafiy mazmuni aks ettiradi. Uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi uchun bu rasmlar umumlashma tarzda tasvirlashga, mayda qismlardan kamroq e'tiborga ega bo'lishga harakat qilinadi. Ranglar ham birmuncha shartli olinishi mumkin.

Ushbu turlarga ko'ra, freska, plafon va namoyon (panno)larga bo'lgan monumental rangtasvir qadimiy san'at turi bo'lib, ibtidoiy davrlarning g'arbi devorlariga ishlagan rasmlari (Zarautsoy rasmlari va boshqalar)ning bir namunalaridir. Qadimgi va o'rta asrlarda nihoyatda rivojlangan va xoslashgan san'at turlaridan biriga aylandi. San'atning bu turi qadimgi Misr va Yungvistonda keng rivojlandi, keyinroq Vizantiya va O'rta Osiyoda ham monumental rangtasvirning nodir namunalari yaratildi. O'rta Osiyoda Uyg'unlik davrida o'zining qariyb rivojlanish bosqichiga yetib, Mikelandjeloning Vatikan saroyiga ishlagan devoriy rasmlari, boshqalar ham kompozitsiyalari shu davrning nodir yodgorliklaridir. O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda bu san'at qadimgi va o'rta asrlar davrida rivojlandi. Bu davrda shohlar, zodagonlarning shahar saroy va ibodatxonalari ko'p shaklli, harakatga boy rassomlik asarlari bilan ziynatlandi. O'rta Osiyada qadimdan ushbu san'at turlariga Hing'isnisi yuqori bosqichda bo'lgan, Tuproqqal'a, Varaxsha, Boshkentga A'frosiyob va shu kabi maskanlarni misol tariqasida ko'rsatishimiz mumkin. Temur va temuriylar davrida ham Monumental rangtasvirning ajoyib namunalari yaratilgan.



12-rasm



13-rasm

O'zbekistonda Monumental rangtasvirning yangi rivojlanish bosqichi 20-asr 30—50-yillariga to'g'ri keladi. Shu yillardan jamoat va ma'muriy binolarni bezash rivojlandi. O'zbekiston tabiati, kundalik turmush, fan, mehnat mavzuidagi kompozitsiyalar yaratildi, mumtoz o'zbek adabiyotidan olingan syujetlarga rasmlar chizildi (Navoiy teatri binosi devorlariga ishlangan namoyonlar; mualliflari Ch.Ahmarov, O'.Tansiqboyev, V.Cheprakov va boshqalar). 60—80-yillarda ham Monumental rangtasvirda yuksak darajadagi asarlar yaratildi. V.Jmakin, Q.Soipov, B.Jalolov, I.Lipene, V.Burmakin va boshqalarning freska, mozaika, vitraj va boshqa asarlari yuzaga keldi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi yillarda Monumental rangtasvir yangi milliy mazmun va mavzular bilan boyimoqda Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi va boshqa davlat ahamiyatiga molik bo'lgan binolarda o'z aksini topmoqda.

Dekorativ rangtasvir asarlari mustaqil amaliy ahamiyatga yega bo'lib, u binolarning ichki va tashqi devorlarini bezatishda keng qo'llaniladi (14-15-rasm). Ular panno shaklida, shuningdek, quticha, patnis, sandiq, shkaflarni bezatishda ham juda qo'l keladi. Bino ichini bezatishga xizmat qiladigan **naqshlar, frizlar, namoyon** kabi mayda elementlar ham dekorativ rangtasvirga kiradi.



14-rasm



15-rasm


Miniatyura (miniatura) (frans. miniature; lot. minium — qizil bo'yoq) — badiiy usullari o'ta nafis bo'lgan kichik hajmli (mo'ʼjaz) sanʼat asarlari. O'rta asr qo'lyozmalarini ziynatlash uchun yaratilgan nafa'is mo'ʼjaz rasmlar, shuningdek, suyak, pergament, mag'zi (satta kashpog'oz), metall, chinni, ba'zan maishiy buyumlar (tamakidon, soq, usuk va boshqalar)ga ishlangan kichik hajmdagi rangtasvirga ham miniatyura, atamasi qo'llanadi.

Rangtasvirning bu turi sharqda, shu qatori Movarounnahrda ham katta shuhrat qozongan. Hozirda u mustaqil san'at turi sifatida nafaqat kashlarni, balki turli xil qo'lda yasalgan buyumlarni bezatishda keng

qo'llaniladi. Shuningdek, bu tur mustaqil san'at sifatida yildan-yilga ommalaishib bormoqda. Miniaturada asarlari turli mamlakatlarda shu jumladan O'zbekiston hududida juda ham qadim zamondan taraqqiy etib, qadimiy qo'lyozmalarga ishlangan. chunonchi, Alisher Navoiyning "Xamsa" asarlariga ishlangan rasmlar bunga misol bo'la oladi 16-17-rasmlar.



16-rasm



17-rasm

Miniaturaning bir turi lokli rangtasvir bo'lib, kichik lokli mahsulotlar yuzasiga moybo'yoq yoki temperada tasvirlar ishlab chiqiladi.

Badiiy miniaturaning kitob va portret miniaturasi kabi sohalari keng tarqalgan. Kitob miniaturasida rasmlar rangli qilib tempera, guash, yelim, akvarel va boshqa bo'yoqdar bilan qo'lda bevosita qo'lyozma kitoblar varaqlariga ishlanib, undagi naqshlar (sarlavha, unvon, lavha va boshqalar) shu kitoblarning bezaklari bilan uyg'unlashgan. Qadimgi Misr papiruslariga xira bo'yoqlar bilan peroda rasmlar tekis yuzali qilib rangtasvir usulida ishlangan.

So'nggi antik miniaturalar (4—6-asrlar) shakllar va nurhavo holati to'g'ri berilganligi bilan diqqatga sazovor. Bu usul Vizantiya miniaturasi (asosan, diniy qo'lyozmalar)da 10-asrgacha hukm surgan. Miniaturaga xalq ijodiyoti xususiyatlari kirib bordi. 13— 15-asrlar

gacha miniatyurasida naturani haqqoniy ifodalashga intilish kuchaydi, rasmlar matn bilan izoxlandi, shakllar jonlandi, manzara, interyer, ma'moriy hoshiyalarga keng o'rin berildi 18-rasm.

Fransiya yirik miniatyura ustalaridan A. Bonevyo, Jakmar Eden va boshqalar samarali ijod qildi. O'rta asrlar g'arb miniatyurasi mahalliy maktablarning ko'pligi bilan ajralib turadi, 6—7-asrlarda Armaniston, 8—10-asrlarda Gruziya, 12-13-asrlarda Rossiya kabi davlatlarda miniatyura rivojlandi.



18-rasm

O'rta asrlarda Sharqda miniatyuraning o'ziga xos maktablari shakllangan. Arab miniatyurasida bir qator maktablar ajralib turadi: Misr, Suriya, Iroq; Afg'oniston, O'rta Osiyo, Ozarbayjon, Eron, Hindiston qo'lyozma kitoblarining barcha bezaklari o'zaro uyg'unlikda bog'langan; chiziqli ritm, manzara, ranglarning nozik uyg'unligi ularning bezak tuzilishini belgiladi.

Miniatyura qo'lyozma kitoblarning mo'jaz rasmlari va alohida ishlangan rasmlar sifatida 12—19-asrlarda Sharqda keng tarqalgan.

Badiiy asarlar (Haririylarning "Maqomot", "Kalila va Dimna", "Tarixi Tabariy" kabi asarlar)ga rasmlar ishlangan. Badiiy adabiyot, asosan, epik she'riyat — masnaviy, dostonlar (jumladan, Firdavsiyning "Shohnoma". Nizomiy, Xusrav Dehdaviy, Alisher Navoiylarning "Hamza"lari, Jomiy, Sa'diy, Hofiz Sheroziy va boshqalarning asarlari).

qo'lyozmalarini ziynatlash uchun yaratilgan.

Buyuk musavvir sifatida Sharqda Moniydan so'ng Juna-id Bag'dodiy, Xoja Abdulhay, Mahmud Siyohqalam, G'iyosiddin Naqqosh, Mirak Naqqosh, Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Mahmud Muzahhib, Abdulla Musavvir, Basavan, Rizoyi Abbosiy va boshqalarning nomlari mashhur. Temuriylar davrida alohida varaqlarga miniatyuralar ishlash va ulardan muraqqa tuzish an'anaga aylangan, alohida shaxslar tasviri (portreti)ni ishlash taraqqiy etgan, xususan, Hindistonda Boburiylar davrida yuksak darajaga ko'tarilgan.

14-asr oxirida Samarqandda Samarqand miniatyura maktabi shakllangan, keyinchalik u Hirot miniatyura maktabimng shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan; Amir Temur qurgan bog'lardagi ko'shklar ham devoriy rasmlar bilan bezatilgan. Temuriylar saroylarida alohida kitobxonalar tashkil etilib, u yerda mohir xattot va kitobat axli, jumladan, musavvirlar ham faoliyat ko'rsatgan (Mirzo Boysung'ur kutubxonasida qirqdan ziyod xattot, yetmishdan ortiq musavvirlar ijod qilgani ma'lum). Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy davrida ham kitobat san'ati va miniatyura taraqqiyotiga katta e'tibor berilgan. Temuriylar, Shayboniylar, Boburiylar davri miniatyura asarlari jahonning eng nufuzli muzey, kutubxona va shaxsiy to'plamlarida saqlanadi.

Portret miniatyurasi rassomlik san'atining alohida turi sifatida Uyg'onish davrida shakllangan, usul va uslub jihatidan kitob miniatyurasi bilan, shuningdek, realistik san'atning umumiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'langan.

Germaniya, Angliyada miniatyura asarlari portret va ruhiy holatning aniqligi va boyitilganligi bilan ajralib turadi. 16-asrda Fransiyada emal usulidagi miniatyura rivojlandi va 18-asrdan Rossiyaga keng tarqaldi. Yevropada 17—18-asrlarga kelib miniatyura o'rmini gravyura va litografiya egalladi. 19-asrdan fotografiyaning tarqalishi tufayli portret miniatyurasi yaratish susaydi.

O'zbekiston hududida 20-asr boshlariga kelib miniatyura san'atining rivoji to'xtab qoldi. Usta Mo'min, A.Siddiqiy, G.Nikitin, Ch.Ahmarov, T.Muhamedov kabi rassomlar ijodida miniatyura an'analari kuzatiladi. 70—80-yillarda miniatyura an'analari tiklashga urinishlar bo'ldi. miniatyuraning haqiqiy taraqqiyoti O'zbekiston mustaqilligidan so'ng amalga oshdi. Ch.Ahmarov miniatyura san'ati an'analari o'z ijodida davom ettirdi, uni yangicha mazmun, g'oyalar bilan boyitdi. Uning

shug'ullari ustozining ishlarini davom ettirib, miniatyurani yangi bosqichga ko'tardilar; miniatyura lokli miniatyura, qog'oz, mato, teri, chamiqdagi miniatyurani va devoriy ishlarni qamrab olib keng ko'lamli ijodiy uslubiy yo'nalishga aylandi. Hozirgi kunda miniatyura rivojini yo'nalishida — aynan qo'lyozma (kitob) rasmlari (T.Muhamedov, B.Muhamadjonov, M.Salimov va boshqalar), lokli miniatyura (N.Xolmatov, A.Yo'ldoshev, Sh.Shoahmedov va boshqalar) hamda miniatyura uslubida devoriy rasmlar yaratish (T.Boltaboyev, H.Nazirov, G.Kamolov va boshqalar) bo'yicha ijodiy izlanishlar olib borilmoqda.

Lokli miniatyura- yog'och, metall, mag'zi soxta (papyemashe)dan ishlanib usti lok bilan qoplangan bezakli buyumlar; kupincha bo'rtma, o'yima, qadama, chizma naqshlar bilan bezatiladi 19-20-rasm.



19-rasm



20-rasm

Xitoyda miloddan avvalgi 2-ming yillikdan ma'lum (kosa, ko'za, quticha, pardozi idishchalari va boshqalar), ayniqsa, ko'p tabaqali o'yima, qora yoki rangli zaminga bo'yoqlar, tilla bilan ishlangan tasvirlar, sadaf, kumush va boshqa qadab bezatilgan (sirti lok daraxti sharbati bilan qoplanib pardozlangan) buyumlar keng tarqalgan. Buyumlarning bezak mujassamotlarida manzara, gullar, maishiy lavhalar ko'p uchraydi. Lokli miniatyura Koreya, Yaponiya, Hindixitoy mamlakatlarida shuningdek, Vyetnam, Laosda ham keng tarqalgan.

Teatr dekoratsiyasi rangtasviri spektakl, kino dekoratsiyalari, unda ishlatiladigan rasm, sahna jihozlari bilan bog'liq. Ular teatr rassomi tomonidai tayyorlanib, spektakl mazmunini tomoshabinga keng va chuqurroq singdirishga yordam beradi. Bu bezaklarda rassomlar sahnani

senariyga asosan yoritilishiga javobgar hisoblanib, sahna dekoratsiyasiga alohida e'tibor qaratadi. Spektakl bezaklari unda ifodalanadigan voqea sodir bo'layotgan joy, davr, muhit to'g'risida tomoshabin tasavvurlarini boyitadi, voqealarni idrok etishni osonlashtiradi va faollashtiradi 21-rasm.



21-rasm

Teatr (yunoncha theatron – “tomoshagoh”) cheklangan joyda bir yoki bir necha aktyorlar ifoda etadigan tomosha orqali fikr beruvchi san'at janridir. Ba'zan teatr tomoshalari o'tkaziladigan binolarni ham *teatr* deb atashadi (aslida ularni *teatr binosi* deb atash o'rinli).


Teatr sintetik san'at bo'lib, jamiyat hayotida, tomoshabinlarning ma'naviy va estetik tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san'at, raqs, me'morlik ajralmas birlikni tashkil etadi.

Sahna asarlarining yaratilishida teatr rassomligi (ssenografiya)ning hissasi katta. Rassom asar mazmunidan kelib chiqib, dekoratsiya yaratadi 22-23-rasmlar.

O'zbekiston hududida an'anaviy teatri juda qadimiy va boydir.



22-rasm




23-rasm

Mustahkamlash uchun savollar

1. Rangtasvir deb nimaga aytiladi va uning turlari haqida nimalarni bilasiz?
2. San'atning bu turi qachon paydo bo'lgan va maktablari haqida aytib bering.
3. Rangtasvir san'ati bo'yicha ijod olib borgan o'zbek rassomlari haqida aytib bering.
4. Qaysi chet davlatlarda san'atning bu turi boshqa joylarga nisbatan ko'proq rivojlangan?
5. Rangtasvir san'atida ishlatiladigan bo'yoq turlari haqida ayting.

II-GRAFIKA

Grafika - lotincha “grafo” so‘zidan olingan bo‘lib, “yozaman”, “chizaman” degan ma‘noni anglatadi. Tasviriy san‘atning bu turiga oddiy va rangli qalamda ko‘mir, pastel, sangina, suvbuyoq, guash va tushda ishlangan bezaklar, turli plakatlari, hajviy rasmlar va boshqalar kiradi 24-rasm.



24-rasm

Qalam tasvir va bosma badiiy asarlarni ya‘ni **gravyura**, **ofort**, **ksilografiya**, **linogravyura**, va **litografiyalarni** o‘z ichiga olgan tasviriy san‘at turi hisoblanadi. Shuningdek o‘ziga xos tasviriy, ifodaviy vositali san‘at turidir. U o‘ziga xos tasviriy, ifodaviy vositalari va ta’sirchanlik imkoniyatiga ega. “Grafika” san‘at poligrafiyasi va kollegrafik aniq kontrast chiziqli qalamtasvir usulining keskin rivoji tufayli hamda jurnal va kitoblar chop yetishda fototexnik ishlab chiqarilishi jihatidan keng qulayligi uchun katta ahamiyat kasb yetadi.


Grafika san‘atida obrazning hajviyligiga badiiy vositalarning bir nuqtaga yig‘ilganligi va qaratilganligi bilan yerishiladi, shuning uchun ham grafikada tugallangan asarlardan tashqari naturadan qoramalar

qalamtasvir, haykaltaroshlik va me'morchilik asarlarining eskizlari ham mustaqil ishlanadiki, ular ham mustaqil badiiy qiymatga ega. Texnik tomonidan grafika rasm va bosma grafikaga bo'linadi. O'zining konstruktiv-tasviriy va badiiy ta'sirchanlik imkoniyatlari, uslublaridagi chetkisizlik va keng ko'lamlilik jihatdan rasm grafikasida rassomning ijodiy yo'li natura bilan doimiy muloqot hisoblanadi.

Grafika o'zining vazifasiga ko'ra dastgohli, kitob, gazeta va jurnal, xalq amaliy grafikasi va plakat bir-biridan farq qiladi.

Dastlabki grafika asosan uyg'onish davriida keng tarqalgan. U an'anaviy tasviriy san'at janrlariga ham murojat qilib keladi.

Bosma grafikaning dastlabki san'ati o'zining ko'p tirajda chiqarilishi, umumaga yetib borishi, shuningdek, bezakdorlik sifatiga ko'ra intererlarini bezash uchun qo'llaniladigan asosiy sohasi kitobdir 25-rasm.




25-rasm

Qalamtasvir Qalamning ilk ko'rinishlari ham qalamtasvirning paydo bo'lish tarixi ham aynan iptidoiy jamoa davridan boshlanadi desak hato qilmaymiz. Iptidoiy odamlar kuydirilgan daraxt shoxlarining qoramtir ranglarida, turli qotishmalardan iborat toshlarda o'zlari yashagan makonlaridagi g'orlarga, tog' qoyalariga, turli jonzotlarning terilariga xar-hil mavzularda: ov qilish jarayonlari, ov qurollari va ularning

yasalishlari hamda turlari, dehqonchilik bilan shug'illanayotgan odamlar, hokimiyatning yuqori lavozimdagi shaxslari tasviri, urf odatlar va boshqa belgilarni tasvirlashgan. Bu tasvirlar olimlar tomonidan nutiqning ilk ko'rinishi sifatida ham e'tirof etilgan.

Tasviriy san'atning barcha turlarining asosi qalamtasvir hisoblanadi. "Qalamtasvir" XVIII asrdan boshlab chiziqlar yordamida obraz yaratish sifatida tasvirni belgilovchi atama bo'lib kelgan. U barcha san'at turlaridagi shakli, o'lchami, tuzulishi va xarakterini belgilab beruvchi muhim xususiyatlari bilan tanishtiradi 26-rasm.



26-rasm

Tasviriy san'at turlarining asosi - qalamtasvirni chizmachilik bilan taqqoslasak, uning xususiyatlari yanada yaqqol ayon bo'ladi. Birinchidan, rassom tasvirni ko'z bilan chamalab, o'z qo'li bilan qisqa vaqtda tasvirlab ko'rsata oladi. Ikkinchidan, rassom tasvirda buyumning tashqi asosiy belgilari, uning materialligi, hajmi, yorug'ligi, fazoviy joylashuvi va hokazolarni ko'rsatadi. Uchinchidan, qalamtasvirda nafaqat buyumning tashqi turli belgilari tasvirlanadi, balki buyumning ichki mazmuni ham ifodalanib, kuzatuvchida muayyan fikr va hissiyot uyg'otadi.

"Gravyura" (fransuzcha "gravure", "graver" — "o'yish, kesish")
 Bu rasmlar qattiq materiallarga chizish va kesish orqali bajariladi.
 Bu rasmlar avvalo metall, syuyak, linoleum, kabi materiallarda ishlanib,
 keyin undan qog'ozga ko'p tirajda ko'chiriladi 27-28-rasmlar.



27-rasm



28-rasm

Metallda tayyorlanadigan gravyurani ofort 29-30-rasmlar, yog'och-
 dagisini ksilografiya 31-32-rasmlar,




29-rasm



29-rasm



31-rasm



32-rasm

lenoliumdagisini **linogravyyura** 33-34-rasmlar, tosh orqali tasvirlan adiganini esa **litografiya** deb yuritiladi 35-36-rasmlar.



33-rasm



34-rasm



35-rasm



36-rasm

Grafika asarlar ishlatiladigan sohalari nihoyatda kengdir. Xususan, shtamp, kitob illyustratsiyalari, plakat, pochta markalari, gazeta-jurnal bezaklari, karikaturalar, (hajviy rasmlar) etiketka va o'rama (upakovka)lar, teatr va kino afishalari, yo'l va tovar belgilari, tashkilot va muassasalarning blankalari shular jumlasidandir.

Zamin tasvirdan maxsus asboblari yoki kimyoviy vositalar yordamida o'yib (2—5 mm) chuqurlashtiriladi, shu tarzda bo'rtma tasvir hosil qilinadi, bu usul ko'proq yog'och (ksilografiya) va linoleum (linogravyyura) turlaridan foydalanilganda qo'llaniladi; tasvir zamindan chuqurlashtirilib o'yima tasvir hosil qilinadi, bu usul asosan metall (mis, jez, rux va b.) plastinalardan foydalanilganda (Gravyuraning birbiridan farq qiluvchi akvatinta, messotinto, ofort, quruq igna va b. turlarida) qo'llaniladi. Gravyura bir xil bo'yoqda, shuningdek, turli rangdagi bo'yoqlarda bo'yalishi, undan ko'plab nusxa ko'chirilishi, ifoda imkoniyatla-

qo'liga tengligi bilan ahamiyatlidir 37-38-39-40-rasmlar.

Qadrlab Xitoyda qog'ozga Gravyura ko'chirish (6—7-asrlar) paydo bo'lgan, Yevropada 14—15-asrlarda rivojlangan (qo'lda bo'yalgan diniy mas'umidagi Gravyuralar monastirlarda sotilgan). Rossiyada 16-asrdan ma'lum bo'lgan. Rembrandt, F. Goyya, I. Ye. Repin va boshqa mashhur san'atkorlar Gravyuraning ajoyib namunalarini yaratgan.

O'zbekistonda V. Kaydalov, K. Basharov, A. Siglinsev, N. Xolikrov va boshqalar Gravyurada asarlar yaratgan.




37-rasm



38-rasm



39-rasm



40-rasm

Mustahkamlash uchun savollar

1. Grafika deb nimaga aytiladi va uning turlari haqida nimalarni bilasiz?
2. San'atning bu turi qachon paydo bo'lgan va maktablari haqida aytib bering.
3. Grafika san'ati bo'yicha ijod olib borgan rassomlar haqida aytib bering.
4. Qaysi chet davlatlarda san'atning bu turi boshqa joylarga nisbatan ko'proq rivojlangan?
5. Grafika san'atida ishlatiladigan maxsulot turlari haqida ayting.

III- HAYKALTAROSHLIK

Haykaltaroshlik - tasviriy san'at turlaridan biri bo'lib lotincha "sculptura" so'zidan olinib, qattiq materiallarga "qirqish, kesish, o'yish, qaynayotirish" orqali ishlov berish ma'nosini anglatadi.

Bu san'at tasviriy san'atning alohida turi hisoblanadi.


Haykaltaroshlik asarlari makonda ma'lum hajmga yega bo'lgan shakllar orqali yaratiladi. Uning nafis haykaltaroshlik turi ham mavjud. Bu usul haykaltaroshlikda «maishiy plastika» deb ataladi. Nafis haykaltaroshlik buyumlari o'zining nafisligi, o'lchami kichikligi bilan ajralib turadi. Uni qo'lga olib ko'rish mumkin. Nafis haykaltaroshlikda ishning diqqatini o'ziga tezda jalb qiluvchi materiallar: chinni, tosh, yog'och, metall va qimmatbaho toshlar, fil suyagi kabilardan foydalaniladi 41-42-rasmlar.

Haykaltaroshlikning keng tarqalgan material turlaridan biri loy yoki plastilindir. Bu material turlaridan haykaltaroshlar haykal maketini tayyorlashda, xalq amaliy san'ati ustalari esa o'yinchoqlar va mayda plastika tayyorlashda foydalanadilar.

Loydan turli idishlar yasash va ularni tegishli ranglarga bo'yash O'zbekistonda juda qadim zamonlardayoq rivojlangan. Kulolchilik san'ati buyumlariga lagan, tovoq, choynak, piyola, sopol va chinni idishlar, shuningdek, loydan ishlangan o'yinchoqlar kiradi.



41-rasm



42-rasm

O'zbekistonda U.Jo'raqulov, A.Muxtarov (Samarqand), U.Umarov, A.Hazratqulov, M. Nazrullaev (G'ijduvon), B.Boisov, R.Matchonov (Xorazm), K.Turobov, Yu.Ziyonmuhamedov, A. Rahmatov, M.Rahimov, R. Orifjonov, A.No'monov, T.Miraliev, A.Aminov (Toshkent), T.Tillaxo'jaev (Namangan), A.Xudoynazarov (Katta qo'rg'on), B.Xalilov (Denov), M.Obloqulov (Urgut), aka-uka Hojimirolvar (Andijon), X.Rahimova (Buxoro), Sh. Qalandarov (Xo'jayli) va boshqa usta hamda kulollar xalq amaliy san'atini rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar.

Haykaltaroshlik ham xuddi rangtasvir kabi hayotiy voqea va hodisalarni turli uslub va tasvirlash texnikasi hamda materiallar yordamida ifodalaydi. Haykaltaroshlikda tosh, metal, ganch, suyak, mum, sim kabi materiallar keng qo'llaniladi. Haykaltaroshlik asarlari kesish, yopishtirish, ulash va o'yish, quyish orqali bajariladi.

Haykaltaroshlikning asosan ikki turi mavjud bo'lib, ularning birinchisi to'liq **yumaloq** haykallar, ikkinchisi yesa **releffi** - bo'rtma haykallardir 43-rasm.

Yumaloq haykallarni har tomondan ko'rish mumkin bo'lsa, **relyeffli** haykallarni faqat bir tomondan, ya'ni oldidan ko'rish kerak bo'ladi. Relieffi haykallar tekislik ustiga ishlanib, yuzadan qisman bo'rtib chiqqan bo'ladi 44-rasm.



43-rasm



44-rasm

Relefli haykallarning ham uchxili mavjud bo'lib, **barelef**, **gorelef** va **kontrrelef** turlariga bo'linadi:

1. **Barelef**da tasvir qalinligi yuzaning yarmidan kam bo'rtib chiqqan bo'ladi 45-rasm.



45-rasm

2. **Gorelef**da esa bu qalinlikning yarmidan kattrog'i bo'rtib turadi 46-rasm.



46-rasm

3. **Kontrrelef**da tasvir yuzada o'yilgan, qirilgan chiziqlar yordamida ishlanadi 47-rasm.



47-rasm

Haykallar shakl va mazmun jihatdan realistik, dekorativ va abstrakt tuzilishlarda bo'lada.

Realistik haykallarda odam, hayvon va boshqa tasvir obektlari haqiqiy ko'rinishda ifodalansa, dekorativ haykallarda ular stillashgan, yalpi shakl, o'lchov va boshqa jihatlardan ma'lum darajada o'zgartrilib ifodalanadi. Abstrakt haykallardaga ob'ektlar shakl, mazmun, o'lchov va boshqa jihatlardan mavhumlashtirilgan holda tasvirlanadi.

Haykaltaroshlar o'z faoliyatlarida ish quroli sifatida quyidagi asboblardan foydalanadilar:

Maxsus dastgohlar, bolg'a, bolta, stek, sirkul, iskana va boshqalar. Iskanalarning to'g'ri burchakli, uchburchakli, trapetsiya burchakli, choqur shakl beruvchi yoysimon turlari bo'ladi. Shuningdek, haykal loyi ustidagi ortiqcha qismini tortib olish uchup qattiq metaldan tayyorlangan doira, ellips, uchburchak, to'rtburchak, trapetsiya shaklidagi sidirg'ichlar qo'llaniladi. Shuni ham qayd qilish lozimki, haykaltaroshlikda qo'llaniladigan iskanalar turli o'lchovda, tuzilishda va shaklda bo'ladi.

Haykaltaroshlikning **dastgohli, monumental, yodgorlik (memorial), dekorativ va monumental-dekorativ** turlari mavjud.

Dastgohli haykaltaroshlik iborasi haykallarni maxsus asbob (dastgoh)ga o'rnatib ishlanganligidan kelib chiqqan. Bunday haykallar mustaqil amaliy ahamiyat kasb etib, ular jamoat binolari va uy joylarning ichki qismi, shuningdek, istirohat bog'lari, muzey va ko'rgazma zallariga mo'ljallab yaratiladi 48-rasm.



48-rasm


Dastgohli haykallarning o'ziga xos xususiyatlarining yana biri ularda tasvirlanayotgan ob'ektlarning haqiqiy, ya'ni hayotdagi o'lchamda yoki undan kichik bo'lishligidadir.

Dastgohli haykaltaroshlik asarlari yaqindan ko'rishga mo'ljallangan bo'lib, unda portret asosiy o'rinni yegallaydi. Haykaltaroshlikda bosh va yelkasi tasvirlanadigan turi mavjud. Bunday asar portret deyiladi. Asarda odam bo'yi-basti bilan tasvirlansa, bu **haykal** deb yuritiladi. Shuningdek, yarim figurali ya'ni boshidan to beligacha ishlangan odam holati esa **byust** bo'ladi 49-rasm.



49-rasm

Haykaltaroshlik san'atining yana bir ko'rinishi **terrakota** hisoblanadi. (**terrakota**-italyancha so'z bo'lib **pishrilgan loy** ma'nosini bildiradi). Terrakota keng ma'noda loydan yasilib, xumdonda pishrilgan haykaltaroshlik asarlaridir 50-rasm.



50-rasm

Haykaltaroshlik asarlarida insonning faqat tashqi ko'rinishi, tinch turgan holati yoki harakatdagi paytini aks yettirish bilan kifoyalanmay, undagi ichki kechinmalar, his-hayajon va g'amginlik, kelajakka intilish kabi holatlar ham o'z ifodasini topadi. Haykaltarosh asarida insonning tevarak-atrofga bo'lgan munosabati, psixologiyasi, qalbidagi his-tuyg'ulari ishonarli talqin etiladi. Bunda, albatta, eng avvalo haykaltaroshning o'ta ziyrakligi, tasvirlash qoidalarini puxta egallaganligi, odam gavdasi va mimik o'zgarishlari borasida plastik anatomiya sohasidagi yuqori bilimlarga ega bo'lishini taqazo yetadi. To'g'ri topilgan harakat, yuzdagi mimik holat haykalni ta'sirli ifodalash uchun zamin yaratadi.

Monumental haykaltaroshlikka muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida o'rnatilgan yirik o'lchodagi, turli xildagi yodgorliklar, haykaltaroshlik ansambllari kiradi 51-rasm.


Odatda monumental haykaltaroshlik asarlari o'zida katta mazmuni anglatib, mustaqil xarakterga yega bo'ladi. Lekin shu bilan birga u bevosita muhit bilan bog'liq bo'lib, me'morchilik binolari hamda tabiat bilan uyg'unlikda bo'lishi mumkin.



51-rasm

Bu unga yanada ulug'vorlik va ta'sirchanlik baxsh etadi. Monumental haykaltaroshlik asarlariga hos bo'lgan xususiyatlardan biri bu asar qahramonlarini ko'tarinki ruhda tasvirlashdir. Monumental haykaltaroshlik asarlari doim ochiq havoda turish uchun mo'ljallangan bo'lganligi sababli ular uzoq turadigan qattiq materialdan, masalan, tosh, bronza, granit va betonlardan ishlanadi. Bulardan tashqari monumental haykaltaroshlik asarlari uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi sababli, ularda katta-katta yaxlit shakllardan keng foydalaniladi.

Dekorativ haykaltaroshlik Istirohat bog'lari, xiyobonlar, ko'chalar, shuningdek, me'morchilik binolarining devorlarini bezash uchun ishlatiladigan haykallarning hamma turlari **dekorativ haykaltaroshlik** san'atiga kiradi. Haykaltaroshlik san'atining bu turi monumental haykaltaroshlikdan shunisi bilan farq qiladiki, agar monumental haykaltaroshlik asarlari o'zida mustaqil mazmunni anglatib me'morchilik va tevarak-atrofga bog'liq bo'lmagan holda kishiga mustaqil fikrni bera olsa, dekorativ haykaltaroshlik asarlari esa bevosita me'morchilik kompozitsiyasi bilan bog'liq bo'ladi. Haykaltaroshlikning bu turida turli hayvon va qushlar shakli keng ishlatiladi. Binolarning devorlariga ishlanadigan turli bo'rtma tasvirlar, amaliy san'at buyumlarining yuzasiga ishlangan tasvirlar ham dekorativ haykaltaroshlikka kiradi. Turli favvoralar, panjaralar, darvozalarga ishlangan badiiy bezaklarga ham dekorativ haykaltaroshlik namunalari sifatida qaraladi. Chinnidan yasalgan haykalchalar, loydan ishlangan o'yinchoqlar ham shu haykaltaroshlikning ko'rinishi hisoblanadi 52-rasm.



52-rasm

Harcha kulolchilik ishlari loy yoki plastilinning yaxlit hajmli bo'lagini yapaloqlashtirish, egish, cho'zish, silliqashtirish orqali barmoqlar hamda kaftlar yordamida bajariladi. Badiiy ishlov beriladigan buyumni batartib ishlash uchun maxsus asbob va uskunalardan foydalaniladi. Ular yog'ochdan yasalgan pichoq (stek)lardir. Yog'och pichoq (stek)lar, odatda, qo'l bilan ishlov berib bo'lmaydigan mayda qismlarni tashlashda, qirqish, kesib olishda ishlatiladi.

Bu yog'och pichoqchalarning shakli turli-tuman bo'lib, ortiqcha loy yoki plastilinni sidirish, qirqib olish, o'yib ishlov berishda qo'l keladi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Haykaltaroshlik deb nimaga aytiladi va uning turlari haqida nimalarni bilasiz?
2. San'atning bu turi qaysi davlatlarda ko'proq rivojlangan.
3. Haykaltaroshlik san'atining rivojiga hissa qo'shgan xorij va o'zbek haykaltaroshlari haqida aytib bering.
4. Qaysi chet davlatlarda san'atning bu turi ko'proq rivojlangan?
5. Haykaltaroshlik san'atida ishlatiladigan mahsulot turlari haqida ayting.

IV- ARXITEKTURA


Arxitektura keyingi o'rinlarda Me'morchilik deb yuritidi, keng ma'noda inson mehnatining muayyan sohasi sifatida juda qadim zamonlarda paydo bo'lib, kishilarning eng zarur turmush ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan edi. U insonning turli-tuman amaliy – foydali, ijtimoiy-siyosiy, moddiy, diniy va boshqa ehtiyojlarni qondira oladi.

Arxitektura (Me'morchilik) (lat. architectura so'zidan olingan) - me'morlik san'ati inson ijodiy faoliyatining qurilish bilan bog'liq alohida turidir. Me'morchilik- me'morlik san'ati tarixi, qonuniyatlari, nazariyasi binolarining turi va uslubi, kompozitsiyasi kabi qator masalalarni o'rganuvchi san'at sohasidir. Me'morchilik jamiyatning ijtimoiy-maishiy va g'oyaviy – badii ehtiyojlarga xizmat qiladi. Inson dahosi va mehnati bilan yaratilgan muhit turli-tuman binolar, inshootlar, shahar va qishloqlar me'morchilik nōmi bilan yuritiladi. Me'morchilik davr o'tishi bilan o'zgara borib, jamiyat taraqqiyotidagi tuzumlarning tub mohiyatini o'zida ifoda etadi. Me'morchilik asari amaliy xizmati bilan bir qatorda ma'lum g'oyaviy-badiiy mazmunni ham ifoda etadi.

Me'morchilik jamiyatning amaliy-foydali ehtiyojlarini qondirishni o'zining zarur vazifasi va maqsadi qilib olgan. Bundan 2000 yil avval qadimgi Rim me'mori Vitruviy ifodalab bergan «triada» yoki uchlik qoidasi shu kungacha o'z ahamiyatini saqlab qoldi. U me'morchilikda uchta asosiy element bo'lishi, ya'ni *foydali, mustahkam* va *go'zal* bo'lishi shart, degan edi. Bu uch yo'nalish musulmon Sharqi me'morchiligida ham ma'lum edi. Bu haqda Abu Ali ibn Sino shunday deydi: "O'ziga yashash joyi tanlaydigan kishi, tuproqning qanday ekanligini va yerning qanchalik baland past ekanligini, suvning tashqariga chiqishini va uning yuqori yoki past joylashganligini, shuningdek, qanday dengizlar, botqoqliklar, tog'lai va ruda konlari qabriston vahokazo borligini bilish lozim". Ibn Sinoning me'morchilikdagi bu "inson va muhit" nazariyasiga Mikelanjelo hamda Leonardo da Vinchilar ham keng to'xtalib o'tadi.

Me'morchilik mahsuloti jamiyat moddiy madaniyatining tarkibiy qismini tashkil etadi va ayni vaqtda san'at asari sifatida ham namoyon bo'ladi. Me'morchilik quldorlik jamiyati davrida tez taraqqiy topdi. Jamiyatning sinfiy talabiga munosib uy-joy va jamoat binolari yaratildi. Me'morchilikning modiy-texnik va badiiy imkoniyatlari ham kengaydi.

Qadimgi Sharqda (Misr, Mesopotamiya) piromida, zikkurat kabi ulkan diniy binolar majmuasi, shohona saroy va boshqa me'moriy inshootlar barpo qilindi. Me'morchilikning ba'zi amaliy va nazariy masalalari olib chiqildi. Qadimgi Yunonistonda binolarning maktab, stadion, teatr, ibodatxona, amfiteatr kabi turlari paydo bo'ldi 53-rasm. Ellinizm davriga kelib order tuzumi arxitektura tarixida keng va chuqur iz qoldirdi. **Forum, Zafar darvozasi** (Triumfal ark) kabi harbiy qudrat g'oyalari namoyish etuvchi yangi inshootlar paydo bo'ladi.



53-rasm


Binolar bezagiga e'tibor ortdi. O'rta asr arxitekturasida (asosan Harbiy ovro'pa mamlakatlarida) (X-XII asrlar) roman-me'morchilik uslubi, keyinroq (XII-XIV asrlar) gotika-me'morchilik uslubi alohida e'tibor tutadi. Gotika uslubiga xos bo'lgan cho'ziq ravoblardan iborat konstruksiyali binolar ichida ulug'vor ibodatxonalar diqqatga sazovor. Me'morchilik va san'at taraqqiyoti tarixida yorqin sahifa ochgan Uyg'onish davri – Renessans (XV asr oxiri, XVI asr boshlari) uslubi negizini qadimgi davr klassik me'morchilik tamoyillarini yangi davr talablari asosida tiklash va rivojlantirish tashkil etadi. Klassik qonunlarni uzviy rivojlantirish tamoyillari binolar kompozitsiyasida yaqqol ko'rinadi. XVI asr o'rtalarida binolar haddan tashqari bezakdor qilib quriladigan bo'ldi.

Abu Ali ibn Sino o'zining "Tibbiy risolalar" asarida: "Qaysi shahar tog' ustida joylashgan bo'lsa, u yer sovuq bo'ladi, agar tog'lar tagida joylashgan bo'lsa, uning issiqligi bor" deb hukm qil. Agar shahar tog'ning janubiga joylashgan bo'lsa, unda issiq shamol esib turishi hukm qilinadi. Agar tog'lar shu shaharning janubida bo'lsa, shimoliy shamolning sovuq unga ta'sir qiladi. Agar tog'lar g'arb tomonda bo'lsa, u shaharning havosi og'ir bo'ladi. Sharq tomonda bo'lsa, toza

bo'ladir" deb yozadi.

Me'morchilik kishilik jamiyati taraqqiyotining ilk bosqichlaridayoq paydo bo'lgan. Ibtidoiy odam tabiat kuchlaridan o'zini muhofaza qilish uchun zarurat tufayli oddiy boshpana va chaylalar qurgan. Asta-sekin qurilayotgan binoning ko'rkam bo'lishiga ham e'tibor berib, go'zallik qonunlari asosida ijod eta boshlagan.


Movarounnahrda, XV-XVI asrda Samarqandda va Hirotida me'morchilikning nodir namunalari yaratildi. Hashamatli jamoat binolari qad ko'tardi. Shohizinda majmuasidagi maqbaralar, Shahrisabzdagi Ko'kgumbaz, Yassidagi Ahmad Yassaviy maqbaralari shular jumlasidandir 54-rasm.



54-rasm

O'rta Osiyo me'morchiligi va amaliy san'atida asriy an'analar takomillashtirildi. Bu me'moriy obidalarni muhandis-u me'morlari go'zallikning obyektiv qonunlarini chuqur bilganlar va o'z ijodlarida davirning g'oyasi va ruhini bera olganlar. Ularning me'moriy uslubi, naqshi va o'ziga xos bo'yoqlar jilosi beqiyos va takrorlanmasdir.

Bugungi kunga kelib arxitektura sohasi jadal rivojlanib binolarimiz misli ko'rilmagan darajada serjilo ko'rinishga egabo'lib kelmoqda, yaratilayotgan imoratlarning tashqi va ichki dizaynlari takrorlanmas, bugungi kun talabiga javob beradigan, shahar infra tuzulmalariga mos, shart-sharoitlar bilan ta'minlangan 55-rasm.



55-rasm

Mustahkamlash uchun savollar

1. Arxitektura san'atining ilk ko'rinishlari qaysi asrga tegishli?
2. San'atning bu turi qaysi davlatlarda ko'proq rivojlangan.
3. O'rta Osiyoda arxitektura san'ati qaysi asrlarda yuqori cho'qqiga ko'tarilgan.
4. Zamonaviy Arxitektura san'ati qadimgilaridan nimasi bilan farq qiladi?
5. Arxitektura san'atining boshqa sohalar bilan bog'liqligi

V-XALQ AMALIY SAN'ATI

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'ati boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O'zbek diyorida vujudga kelib gullab-yashnagan san'at turlari bemsil va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday kamolot va taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, o'zbek amaliy bezak san'ati turlarining shox ildizlari insoniyatning bolaligi, ya'ni ibtidoiy jamiyatga borib taqalishining guvohi bo'ladi. O'lkamiz zaminidagi tarix qatlamlarini qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berish usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan bo'lib, asrlar osha hozirgacha uzluksiz davom etib kelmoqda. Inson ongli faoliyatining ajralmas qismi bo'lmish badiiy tafakkur va shunga muvofiq badiiyijodiy faoliyat insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bunday faoliyat natijasida kelib chiqadigan estetik-badiiy idrok qobiliyati kishilarda olamni, undagi mavjudotlar, narsalar va voqea-hodisalarni, atrof-muhitdagi shakllar va ranglarni turfa shakl-shamoilda qaytadan aks ettirishga havas uyg'otadi. Shakl va ranglar-ning real hamda stillashtirilgan tasvirlarini yaratish shu tariqa kelib chiqdi va u o'z navbatida, odamlarning kundalik turmushlaridan o'rin ola boshladi. Natijada badiiy bezaklarning xilmaxil shakllari va turlari paydo bo'ldi. Boshqa san'atlarga nisbatan bunday naqshli bezaklar ko'pligining va takomil topganligining muayyan tarixiy sabablari bor. Ma'lumki, Islom mamlakatlarida mavjudotlar tasvirini ishlash keng odat tusiga kirmagan, zero, mavjudotni yarata olish faqatgina qodir Tangriga hosdir, insonlar esa bunday ishni bajarishga ojizdirlar, inchunin, bordiyu biror ishni yuqori takomil darajasida ijro etish imkoni yo'qligi avvaldan ma'lum ekan, bunday ishga kirishmoqlikning o'zi aqldan emasdur. Boshqacha aytganda, hech bir tasvir unda ifodalangan mavjudot darajasiga ko'tarila olmaydi, shu bois tasvir soxta bo'ladi.

Tasviriy san'atga bu qadar chuqur, falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, stillashtirish, ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o'zbek milliy bezak san'atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo'lganki, xozirda jahonga mashhur me'morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik,

qimmatlilik, hattotlik, toshtaroshlik, mato, mehnat qurollari, kiyim-kechaklar, inqinchoqlar, o'yinchoqlar va boshqa turdagi san'atlarning o'ziga xos darajada uyg'unlashgan mujassamligidan iboratdir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Toshkent, Qo'qon va boshqa shaharlardagi me'morchilik va xalq amaliy bezak san'ati yodgorliklari o'ziga xos avlodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan bebaho san'at asarlarining namunalari bo'lib, xalqimizning va shu bilan birga o'zbek madaniyati durdonalaridan bo'lgan badiiy va madaniy merosni ifodalaydigan etadi.

Xalq amaliy san'ati har bir xalqda mavjud bo'lib, ular bir-birlaridan farqlanib, yuqorida qayd qilinganidek, amaliy san'atning janrlari, buyumlar tayyorlashda qo'llanadigan materiali, shakli, tuzilishi, rangi, bezagi, jihozlari jihatidan bir-biridan farq qiladi. Xalq amaliy san'atining barcha bir muhim xarakterli belgilaridan biri bu ming yillar davomida xalq ustalari ijodida qo'llanib kelingan badiiy an'analar hisoblanadi. Bu xususiyat ko'proq har bir xalqning u yashayotgan muhit, tabiati, iqlim sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Chunki, amaliy san'at ustasi o'z asarini yaratayotganda u go'zallikni tevarak-atrofdan, tabiatdan oladi. Masalan, o'zbek xalq ustalari o'z ishlarida toychoq, qo'zichoq, tovuq tasvirlarini, shimoliy o'lkalarning ustalari bog'u, kiyik tasvirlarini ishlaydilar. Asar materialiga esa o'zbek ustalari ganch, loy, mis kabilarni, shimoliy xalqlar yog'och va hayvon suyaklarini ko'proq ishlatadilar. Yuqorida qayd qilganimizdek, asar koloritiga 4 iqlim ham ta'sir ko'rsatadi. Shimoliy o'lkalar iqlimi sovuq bo'lgani uchun u yerdagi ustalar ko'proq sovuq ranglarni, issiq iqlimli O'zbekiston ustalari ko'proq iliq ranglarni qo'llaydilar. Shunday qilib, har bir xalqning amaliy-bezak san'atida o'z an'analari shakllanadi. O'zbekistonda san'atning keng tarqalgan turlaridan biri xalq amaliy-bezak san'atidir. Bu san'at asarlari hayotda ishlatiladigan buyumlaridish-tovoq, kiyim-kechak, uy jihozlari, o'yinchoqlar va boshqa shu kabilarni o'z ichiga oladi. Xalq amaliy san'ati asarlari odamlarning kundalik turmush ehtiyojlarini qondirish, tevarak-atrofga, bog'-rog'lar, uylarni tashqi va ichki ko'rinishiga go'zallik kiritishga xizmat qiladi. Bu san'at dastgoh san'atidan o'zining bevosita xalq ehtiyojlariga moslanganligi bilan farq qiladi va inson hayotida ishlatiladigan buyumlarning mazmuni bilan bog'lanadi. Amaliy-bezak san'atida hayotdagi mavjud narsalar (masalan, gullar, hayotiy lavhalar va hokazolar) aks etadi. Lekin, ular mustaqil xususiyatga ega

bo'lmagan, ma'lum bir buyum mazmuni va shakli bilan bog'lanib, uni bezashga xizmat qiladi. Amaliy san'at buyumlari birmuncha erkin ijodkor tafakkuri mahsuli sifatida yaratiladi va u tevarak-atrofga fayz kiritishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, jimjimador ustun, eshik, darvozalar, devorlarning tashqi va ichki tomonlariga ishlanadigan rangli naqsh va bo'rtma tasvirlarni bunga misol qilib ko'rsatish mumkin. Xalq amaliy san'ati juda qadim zamonda paydo bo'lib, xalq hunarmandchiligi tarzida rivojlanib san'atning eng qadimgi rivoj topgan va barhayot turi bo'lib kelgan. O'zbek xalqining amaliy san'ati asarlarida ko'proq chamandek ochilgan gulzorlar, bog'lar aks etadi. Chunki, jazirama issiq sharoitda qaqrab yotgan cho'llarni gulzorga aylantirish qadimdan o'zbek xalqiga xos odat bo'lib qolgan. O'zbek xalq amaliy san'atida yog'och uymakorligi, kulolchilik bilan bir qatorda, o'zbek kashtasi, atlas, beqasami va naqshlar berilgan har xil jihozlarni dunyo xalqlari orasida katta shuhrat qozongan. Amaliy san'atning eng ko'p tarqalgan ommaviy turi kashtachilik bo'lib, u qadimiy an'analarga ega. O'zbek kashtachiligi, yuqorida aytib o'tganimizdek, gulzor bog'larni eslatadi. Shuning uchun ham biz o'zbek kashtachiligida guldasta, majnuntol, quyosh, ba'zan daraxt shoxchasiga qo'ngan qushchalar, hatto hayvon va odam tasvirlarini ham uchratamiz. O'zbekiston eng qadimiy madaniyat o'choqlari hisoblangan Buxoro va Samarqand so'zanalari o'zining rangdorligi, shakllarining turli-tumanligi va nihoyatda nozik tikilishi bilan farqlanadi. Shahrisabzlik ayollar tikkan kashtachilik buyumlari esa ko'proq gilamni eslatadi.

Xalq amaliy san'ati quydagi turlanishlar asosida mehnat sohalarini o'z ichiga oladi.

Xalq amaliy san'ati qo'yidagi turlarga bo'linadi:


- *naqqoshlik;*
- *ganchkorlik;*
- *yog'och o'ymakorlik;*
- *kulolchilik;*
- *misgarlik (kandakorlik);*
- *zargarlik;*
- *zardo'zlik;*
- *kashtachilik;*
- *gilamdo'zlik;*
- *savat to'qish;*

toch va suyak o'ymakorligi;

ph hoqchilik; va boshqa turlarga bo'linadi.

Naqqoshlik. O'rta Osiyo naqqoshlik san'ati qadimdan dunyoga mashhur. O'tmishda ota- bobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar bizni hayratga solib kelmoqda.

Milliy naqshlarimiz g'oyatda boy mazmunga ega. Oddiy qoshiq, lagan, quticha, sandiq, belanchak, cholg'u asboblari, uy-ro'zg'or buyumlaridan tortib turar joy va jamoat binolarining devor hamda shiftlariga solingan naqshlar insonni hayratga soladi, uni o'ylantiradi. Bu go'zal naqshlar ajoyib naqqoshlar tomonidan yaratilgan bo'lib, asrlar davomida dunyod topdi, rivojlandi me'morchilik hamda tasviriy san'at rivoji bilan bog'langan holda takomillashib bordi 56-rasm.



56-rasm

Naqsh- arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. Qush hayvon o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilinadigan bezakdir.

Naqqoshlik san'ati tarixi insoniyat madaniyati bilan bir qatorda qadimiydir. Madaniyatning rivojlanishi natijasida rassomlik va naqqoshlik ajralib chiqdi hamda rivojlandi. Har xil arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki, naqqoshlik jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud ekanligi bizga ma'lum bo'ldi. Chunonchi, Xitoyda, Qadimiy Eronda, Hindistonda va boshqa joylarda naqshning har xil turlarini ko'rish mumkin. Naqqoshlik har bir davlatning o'ziga xos muhitiga: geografik o'rniga, o'lkaning o'simlik dunyosiga ko'ra rivoj topdi. Masalan, arman va gruzinlarda uzum va uzum bargi, shimol xalqlarida archa va har xil hayvonlar, qirg'iz va qozoqlarda mol shoxi, tojiklar va o'zbek xalqlarining naqshlariga qarasak anor, bodom, gullar,

qalampir va boshqalarni ramziy naqsh tariqasida ishlatilganligini ko'rasiz. Yevropada barokko, gotika, roman, klassitsizm uslublari ham xil davrlarda hukmron bo'ldi. Bu esa o'z-o'zidan naqqoshlik san'atining rivojlanishiga ta'sir etdi.

O'zbekiston naqqoshlik san'atining rivojlanishi.

O'zbek xalqining qarovsiz yotgan madaniyat durdonalari, tarixiy yodgorliklarini saqlash va madaniy merosini to'plashni davlatimiz o'z zimmasiga oldi. Naqqosh ustalar ham boshqa ustalar qatori machit, madrasa, turar joylarni, saroylarni ta'mirlashni boshlab yubordilar. 30-yillardan so'ng ko'pgina jamoat uylari, choyxonalar, madaniyat badiiy merosidan ilhomlanib ajoyib devoriy rasmlar yaratdi. O'zbek xalqi ikki ming yil davomida xalq amaliy san'atining shunday ajoyib namunalari yaratdi va yaratib kelmoqda. Naqqoshlar o'zlarining yuksak badiiy mahorati va nazokati bilan bugungi kunda ham kishilarni hayratga solmoqdalar.

Morpech — (tojikcha mor-ilon, pech-o'ralgan) ilon izi shaklidan iborat bo'lgan islmiy hoshiya naqsh. Morpech misgarlikda mis idishlarning chetiga va ichiga, ganchkorlikda esa tokcha, namoyon, izora chetlariga hamda yog'och o'ymakorligida esa eshik, namoyon, stol, stul va boshqa narsalarning chetiga ishlanadi. Morpechni ba'zi ustalar «ilon izi» deb ham yuritadilar.

Ruta — (ruscha—bordyr) ikki tomonga ulanuvchi naqsh taqsimi, hoshiya naqsh. Chizilayotgan naqsh nusxasining xarakteriga qarab ketma-ket, to'nkarma usullarda ulanishi mumkin. Naqqosh to'nkarma usulda takrorlanuvchi ruta chizayotganda taqsim asosini qog'ozga (ikkiga buklab) chizadi, axta aylantirib, undan foydalanadi. To'nkarma ruta kompozitsiyada bir yoki ikki, ba'zan uch chiqish nuqtasi (odatda o'rtada bo'ladi) bo'sh joylarni to'latishga xizmat qiladi. Ketma-ket ulanuvchi rutalar bir, ikki, uch yo'nalishli bo'lishi mumkin, xar yo'nalishda bittadan chiqish nuqtasi bo'ladi. Ikki chiqish nuqtali rutalar (aylantirma nusxa) deb ataladigan kompozitsiya ham uchraydi. Taqsim chegaralaridagi ikki chiqish nuqtasidan chiquvchi novdalar soat yo'nalishiga o'xshatib, ikki nuqtani bosib o'tadi (ya'ni ikki nuqtadan chiqqan novdalar halqa hosil qiladi). To'ldiruvchi elementlar ham novdalarning o'rtasiga moslab chiziladi.

Islimi duraftor — ikki yo'nalishli ruta islimi (nabotiy) hoshiya

naqsh Islimi duraftor barg, kurtak, gul va boshqa elementlardan tashkil topgan bo'ladi, bir-biriga uzluksiz ulanib, o'ralib ketadigan islimi naqshlarni takrorlanishidan hosil bo'ladi. Islimi duraftor yog'och, tosh, temir, oltin, devorga, matoga va boshqa narsalarga o'yib, tikib, chizib, bo'yab ishlanadi. Islimi duraftor xalq amaliy san'atining barcha turlarida keng tarqalgan. Uning tuzilishiga o'xshash lekin ularning yo'nalishlar soniga qarab yakraftor islimi (bir yo'nalishli), seraftor (uch yo'nalishli) islimi va chorraftor (to'rt yo'nalishli) islimi deb yuritiladi. Islimi duraftorni bir tomonga va har ikkala tomonga ulanadigan xillari bor. Islimi duraftorning mehrobli duraftor islimi (mehrob shaklidan tuzilgan ikki yo'nalishli ruta islimi naqsh), gul islimi madoxili duraftor (madoxili shaklidan tashkil topgan ikki yo'nalishli islimi naqsh turi) va boshqa turlari bor.

Namoyon — *forscha so'z bo'lib, ko'rinish, manzara demakdir.* Kuchli panno. Namoyon eng mukammallashgan yetuk naqsh kompozitsiyasi. Namoyon voqe'likning umumlashgan tasviriy obrazini o'zida aks etadi. Masalan, chamanzor, bog'u-bo'stonlar, daryolar, gullar, barglar va boshqalarni shartli aks ettiradi. Hoshiya naqsh namoyonning badiiy qilib ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Namoyon hech yoqqa ulanmaydigan mustaqil kompozitsiyadir. Namoyon murakkab naqsh turiga kirib uning o'simliksimon, geometrik, gulli girih, ramziy va boshqa turlari mavjud. Namoyon naqsh kompozitsiyalar o'ziga xos tomonlarga ega. Usta namoyonni ishlashda uning uzoqdan va yaqindan ko'rinishini alohida hisobga oladi. Namoyon o'simliksimon naqshdan iborat bo'lsa, unda naqshning band va tanoblarini darajalarga bo'lib chiqadi. Gulli girihli namoyonda esa girih asosiy, o'simliksimon naqsh esa to'ldiruvchi rolini o'ynaydi. Namoyon faqat girihdan tashkil topgan bo'lsa undan ham asosiy va to'ldiruvchi girihlarga bo'lish mumkin, ya'ni yirik girihlarni ichiga mayda girihlar chiziladi. Namoyonlar simmetrik va assimetrik tuzilgan bo'ladi. XIX asrning o'rtalarida har bir vohaning namoyonlarini kuzatsak o'ziga xos bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi. Ya'ni naqshning xarakteri ornament uslubiga ega. Masalan, Xiva naqqoshligidagi namoyonlardan bandler bir-biri bilan spiralsimon holda ulanib ketadi. Barg gullar kam ishlatiladi. Ularning kompozitsiyasi dinamik xarakterga ega. Toshkent ustalarining namoyon kompozitsiyalari o'ziga xos xususiyatga o'simlik gullarining ko'pligidir. Farg'ona naqsh kompozitsiyasida tabiatdagi gullar,


barglar, mevalar (lola gul, atirgul, bodomgul, majnuntol, anor va boshqalar) to'g'ridan-to'g'ri tasvirlanadi. Namoyonning majnuntol namoyon, chorsi namoyon, shabaki seraftor, mehrobli namoyon va boshqa atamallari bor.

Turunj — arabcha «limon» degan ma'noni bildiradi. Ruscha medalon, naqshlarda kompozitsiyaning markaziga chiziladigan naqsh turi. O'rta Osiyoda o'ziga xos ko'rinishga va mazmunga ega bo'lib qadimdan ishlatilib kelinadi. Turunj naqshning ko'rinishi, limon shaklida bo'lgani uchun uni shunday deb yuritiladi. Turunj hech qanday naqshga ulanmay muallaq turadigan kompozitsiya bo'lib, uning shakli asrlar davomida rivojlanib boyigan. Uning hozirda doira, 5—10 raxli yulduz, oval, romb, ellips shakllari bor. Turunj nusxasi 4,8,16 ga bo'linadi. Naqqoshlar ko'pincha to'rtburchakli kompozitsiya chetiga oddiy naqsh, ya'ni ruta ishlab o'rtasiga turunj ishlaydilar. Turunj ko'pincha devor o'rtasiga, shift markaziga, kashta, gilam markazlariga bajariladi. Usta turunj ulgisini tayyorlashda qog'ozni 4, 8 yoki 16 ga buklab bir bo'lakiga nusxa chizadi. Shu naqsh chiziqlarini ignada teshib so'ngra qog'oz yoyilsa qolgan bo'laklariga ham nusxaning o'zi takrori hosil bo'ladi. Tayyorlangan turunj nusxasini kerakli yuzaga tushuriladi.

Anorgul — naqqoshchilikda, kulolchilikda, misgarlik, kashtachilik va shu singari turlarida ishlatiladigan o'simliksimon naqshdir. Anorgul naqshi qadimdan ishlatilib kelinayotgan naqsh turi bo'lib, ko'pincha Farg'ona naqshlarida ayniqsa ko'p ishlatiladi. Bu naqsh turi hayotdagi to'qchilik va to'kinsochinlik ramzi ifodalangan. Anorgul naqsh kompozitsiyasida anorni ikki xil, ya'ni naturalistik, ya'ni tabiatda qanday bo'lsa shunday tasvirlaydilar, gohida stillashtirilgan naqsh uslubida tasvirlanadi. Anor tasvirlangan bu naqshda anorning ko'pincha ichki qismini ham ko'rsatib tasvirlaydilar.

Geometrik naqsh. O'rta Osiyo san'ati qadimdan mashxurdir. O'tmishda ota-bobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar har bir tomoshabinni hayratga solib kelmoqda. Hattoki chet ellardan tashrif buyurgan sayohatchilar ham mamlakatimizdagi qadimiy yodgorliklarni, badiiy did bilan ishlangan naqshlarni o'rib lol qolmoqdalar. Buxorodagi Ulug'bek madrasasi, YUNYESKO muhofasidagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Kalon minorasi, Samarqanddagi Shohi-zinda maqbarasi, Go'ri Amir maqbarasi, Ulug'bek, Sherdor, Tillakori madrasalari va

bejalar sharqning nodir go'zalligi, soddaligi hamda naqsh motivlarining ulug'vorligi bilan kishilarni sehrlab kelmoqda. Yuzlab, minglab xalq madonlarining qavariq qo'llari bilan yaratilgan yodgorliklardagi ushbu naqshlar xuddi tabiatning go'zallik olamini kuylayotganday tuyuladi va kishilar ruhiyatiga ko'tarinki ruh bag'ishlaydi. Chunonchi Samarqanddagi asrlar davomida musulmon sharqida dong taratgan ulug' bilim maskani Ulug'bek madrasasini tomosha qilar ekanmiz, uning ta'lim-tarbiya maqsadida ko'zlab bunyod qilganligini naqqoshlar bezagi orqali sezish oson. Madrasaning bezagidagi bir-birini kesib o'tgan behisob chiziqlardan ko'p burchakli va ko'p qirrali yulduzlardan tashkil topgan naqshlar xuddi koinotdagi charaqlab turgan naqshlarni eslatib osha hikoya qilib turganday tuyuladi. Ana shu bir-birini kesib o'tgan behisob chiziqlar, har xil burchakli va qirrali yulduzlardan tashkil topgan geometrik naqshlarni girih deb yuritiladi 57 rasm.



57-rasm

Girih — *forscha, chigal, tugun degan ma'noni anglatadi.* Handasiy naqsh. Murakkab naqsh turi. Geometrik naqsh muayyan taqsimlarga ega bo'ladi. Har bir taqsim o'z tuzilishiga ega bo'ladi. Girih O'rta Osiyoda va Yaqin Sharqda keng tarqalgan naqsh bo'lib, XII—XVI asrlarda ayniqsa O'rta Osiyoda juda keng taraqqiy qilgan. Pokiston, Turkiya, Ispaniya, Xitoy, Yaponiya kabi mamlakatlarda keng tarqalgan. Dunyoda girihni eng ko'p tarqalgan joyi O'rta Osiyodir. O'rta Osiyoda girihlarning juda ko'p turi mavjud. Bu girihlarni arxitektura minoralaridan tortib kitob varag'igacha bezatilganining guvohi bo'lamiz. Albatta biz tarixga nazar tashlar ekanmiz o'sha zamon uchun girihni chizmachilik asboblari

matematik formulalar asosida ishlanishi bu katta ilmiy kashfiyot edi. Bu girihni ishlagan ustalar matematika fanini egallagan kishilar bo'lgan. Mana qarshimizda arxitektura yodgorliklari turibdi. Ulardagi geometrik naqshlar shunday aniqlikda ishlanganki, kishini lol qoldiradi. Olimlar qiziqib ana shu girih ishlash sirlarini topish maqsadida ko'p izlanishlar qildilar, lekin bu jumboqlardan to'la ma'lumotlar ololmadilar. Chunki o'sha vaqtdagi ustalar bu geometrik naqshni qurishni sir deb bilib qog'ozda yoki tushuntirib qoldirmaganlar. Shuning uchun ham otadan-bolaga o'tib unutib yuborilgan. Ana shu sabablarga ko'ra hozirgi zamonamizda ham ko'pgina ustalarimiz girihni yechimini topishga qiynaladilar. Sharqning mashhur olimlaridan Abdulvafo al Buzjoniy (940—998) o'zining kitoblarida 20 ga yaqin geometrik naqshlar yechimi to'g'risida yozib qoldirgan. Bular da girihni ba'zi oson yo'llarini tushuntirib o'tgan. Masalan uning kitoblaridan birida qurilish va geometrik naqsh yechimi to'g'risida yozilgan. Bu kitob hozir Parijdagi muzeylardan birida saqlanmoqda. Abdulvafo al Buzjoniy o'zining asarlarida girihni tayyorlash usullarini ko'rsatib o'tsada, bizga girih haqida to'liq ma'lumot yetib kelmagan 58 rasm.



58-rasm

Ganchkorlik qadimiy san'at turlaridan biri bo'lib, o'z aksini, husn-jamolini dunyo me'morchiligida shu jumladan O'rta Osiyo, Eron, Turkiya, Arabiston, Avg'oniston va boshqa Sharq mamlakatlari me'morchiligida namoyon etib kelmoqda. Ayniqsa, o'rta osiyoda yaratilgan asarlar o'ziga hos badiyiligi kompozitsiyasi va ishlanish uslubi bilan farq qiladi.

Hozirgi kunda ganch serquyosh O'zbekistonimizda ardoqlanib, avayb qadrlanib qilinayotgan ko'pgina yodgorlik obidalarig ko'rkamlik, yodgorlik baxsh etib turibdi. U Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qo'qon, Yangi-Yul, Xiva, Shahrisabz va boshqa shahardagi tarixiy obidalarni ganch va bezatishda ishlatilgan.

Ganch qorishmasi yangiligida oson kesiladi, undan hohlagancha shakllarni o'yish, yasash mumkin, lekin u qotgandan so'ng qattiq toshga aylanib qoladi. Ustalarimiz uning bu ajoyib xususiyatidan qadimdan foydalanib kelganlar. Shu tariqa hozirgacha bu hunar avlodidan-avlodga o'tib borib, an'anaviy sifatida rivojlanib boryapti.

Ganchkorlik san'atimiz faxri beqiyos bebaho xazina. Hech shubhali, uni chuqur o'rganish miliy va amaliy ahamiyatga egadir.

Ganch o'ymakorlik san'ati asrlar davomida o'ziga xos uslub bilan rivojlanib keldi.

Bizning birinchi asrlaridayoq kishilar ganchni ajoyib xususiyatga ega ekanligini bilib, qal'alar, karvonsaroy va boshqa joylarni bezay boshlaganlar. Bo'lib o'tgan janglar oqibatida ular vayronaga aylanib, barcha qoldiqlari saqlanib qolgan.

XI asrda Tuproqqal'aning serhasham saroy mehmonxonalari o'yma ganch bilan bezatilgan. Varaxsha shaharchasida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan va eramizdan avvalgi III—IV asrlarda ishlangan ganch o'ymakorligi namunasi topilgan. Unda o'simliksimon naqshlar, palmetta, geometrik shaklli naqshlar ganchdan ishlangan. Ayniqsa gorelefi ishlangan baliq tasvirida o'yilgan ganch namunasini ko'rsatish mumkin.

Varaxshadagi topilmalardan VII—VIII asrlardagi Buxoro saroyi qoldiqlaridan namunalar topilgan. Bu topilmalarda qushlar, hayvonlar, baliqlarni, o'simliksimon va geometrik shakllarning o'yma namunalarini ko'rish mumkin. O'rta Osiyoni arablar bosib olgandan keyin islom dini hukmron bo'lib qoldi, u tirik mavjudotni tasvirlashni ta'qiqladi. Buni O'rta Osiyodagi arxitektura yodgorliklaridan ko'rish mumkin. Xususan VII—VIII asrlardagi hukmdorlarning Varaxshadagi saroylarida bu san'atning xilma-xil namunalari saqlangan.

Buxorodagi Ismoil Somoniylar maqbarasida ganch o'ymakorligi namunalarida to'liqsimon ishlangan naqshlar topilgan. Unda o'simliksimon naqshning islami turi ko'p ishlatilgan.

X—XI asrlarda naqqoshlik, yog'och, tosh va ganch o'ymakorligi yanada rivojlandi. Murakkab abstrakt tasvirni aks ettiradigan naqshlar

paydo bo'ldi. Ganch o'ymakorligi ishlari uyning ichki va namgarchilik tegmaydigan tashqi qismiga ham qo'llanilgan.


Ustalar tabiatdan o'simlik va hayvonlarning tasvirini stillashtirib ganch o'ymakorligida ishlatganlar. Shu devorlarda o'ymaning chuqurligi 7 mm dan oshmagan. Uylarning tashqi qismiga namoyon ustun va peshtoqlariga ganch o'yma ishlatilgan. Farg'ona vodiysida XII asrda bezak sifatida har xil plitkasimon o'yma ganch namunalari ishlatilgan. Bu binolarni ganch plitalari bilan bezatish keng avj olganligini ko'rsatadi. O'zgan (O'sh viloyatida) yodgorliklari shartli ravishda shimoliy, o'rta, janubiy deb nomlangan maqbaralarning intereri, devor peshtoqlari, ravoqlari juda xam nafis o'yma naqshlar bilan ishlangan. Mavorounnahrda ganchkorlik san'ati, ayniqsa ravnaq gopgan, me'morchilikning asosiy bezagi darajasiga ko'tarilgan. Unda fantastik hayvonlarning tasvirini ko'rish mumkin.

Termiz maqbaralaridagi ganch o'ymakorlik san'atini o'sha davrning yuqori cho'qqisi desa bo'ladi. XII asrda muqarnaslar (stalaktitlar) hosil bo'ladi va ko'pgina binolarda qo'llanila boshlanadi. Muqarnaslar oddiy ganch o'ymakorligidan farq qilib, ancha murakkabdir. U taxmon va boshqa joylarda bezak sifatida qo'llanila boshlandi. Binolarning ichki qismlariga ishlangan muqarnaslar ayniqsa ajralib turadi.

XIII asrda ganchkorlik san'ati yanada yuksaldi. Bunga Afrosiyobda topilgan ajoyib ganch o'ymakorligi ishlari misol bo'la oladi. XIV—XVIII asrlarda ham binolarning ichki tomonlarini bezatishda ganchkorlik san'atidan foydalanilgan. Bu davrlarda yangi-yangi naqshlar yaratildi. Binolarda ganch o'ymakorligi, uzviy bog'langan koshinlar va toshdan yasalgan bezaklar keng ishlatila boshlandi. Koshin va toshdan o'yilgan bezaklardan foydalanish natijasida ganchkorlik asta-sekin minoralarning ichki qismiga qo'llaniladigan bo'ldi. O'ning tashqari qismida esa juda kam qo'llanildi. Ganch o'ymakorligida mashhur bo'lgan XVIII asr ustasi O'sta Mulla Obid, uning farzandi Muhammad Muso otasining kasbini qunt bilan egallab, o'sha vaqtda xalqqa tanilganlardan. Muqammad Muso o'g'illari Madusmon, Isoxon va Yusufalilar ganchkorlikda bir qancha vaqt ishlashgan, g'isht terishda ham obro' qozonishgan.

Ganchkorlikning gullab yashnagan davri XVIII asrning oxiri—XIX asrning boshlari bo'lib uning uslublari, texnikasi ancha murakkablashdi. Ganch o'ymakorligining barcha turlari rivojlandi. Qurilgan binolarda xalq ustalari yorqin jilvali bo'yoqlar bilan ganchga jilo berdilar.

Bezaklarning hamma turlariga xos aniq kompozitsion qonunlar ishlab chiqildi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi va Xivada o'ziga xos mustaqil maktablar vujudga keldi. Ganch o'ymakorligi mazmuni kishini qoyil qoldiradigan darajada o'sdi. Buxoro bezaklari ganch pullari juda ham nafis, Marg'ilonning guldor bezaklari yaxlit ko'rinishga ega, Toshkentniki esa qat'iy va aniq ritm asosida tuzilgan, Xivaning dinamik o'yma naqshlari o'ziga xos spiralsimonligi bilan ajraladi 59-rasm.



59-rasm

Yog'och o'ymakorligi. Yog'och o'ymakorligi o'zbek xalq amaliy bezak san'atining keng tarqalgan bir turi. Bunda biror naqsh yoki tavsir tasma yoki yog'och buyumlariga chizib, kesib, o'yib, ishlanadi. Badiiy san'atning bu turi deyarli barcha xalqlarda bo'lib, qadimgi Sharqda antik dunyo mamlakatlari arxitekturasida keng ishlatilgan. Asrlar davomida Yevropa va Osiyo mamlakatlarida yog'och o'ymakorligining rivojlanib o'ziga xos badiiy uslublari kelib chiqqan. Shu singari O'rta osiyoda ham yog'och o'ymakorligi qadimdan rivojlanib kishilarning uy-ro'zg'or buyumlarida va arxitekturasida juda keng qo'llanilgan. O'ymakorlik qadimiy arxitekturaning eshik, darvoza, ustunlar har xil to'sin, stol, xontaxta, quticha, ramka, qalamdan va boshqa buyumlarni bezashda ishlatilib kelingan.

Arxeolog olimlarimizning izlanishlaridan O'rta Osiyoda goreleffi, ya'ni juda bo'rtiq (1 mm dan 20 mm gacha) releflar bilan har xil narsalarni yog'ochdan o'yib ishlanganligi ma'lum bo'ldi. Xalq yaratgan asarlar o'zining nafosati, murakkabligi, tabiiyligi bilan kishi aqlini lol qoldiradi. Afsuski, yog'ochdan ishlangan ajoyib yeg'och o'ymakorligiga

har qancha sifatli ishlov berilishiga qaramay asrlar o'tishi bilan ushbu namga dosh beraolmay deyarli ko'pchiligi chirib, yo'q bo'lib ketgan. Bularni arxeologik qazilmalarda topilgan va topilayotgan namunalar isbotlab bermoqda.

V—VI asrlarda yog'och o'ymakorligi namunalari Surxondaryo vohasidagi Yumaloq tepa tubidan topilgan. Olimlarimizning taqqashlashicha bundan 1—1,5 ming yil muqaddam mazkur joyda naqsh o'ymakorligi san'ati bo'lib, u juda yaxshi rivojlanganligi isbotlangan. Bunday noyob topilmalar Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va boshqa shaharlardagi arxeologik qazilmalardan topilmoqda.

VII asrning oxirigacha mahalliy o'zbek xalqi ichida yog'och o'ymakorlik juda tez sur'atlar bilan rivojlangan edi.

VII-asr oxiri va VIII-asr boshlarida Arablar O'rta Osiyoni zabt etgunlariga qadar mahalliy xalq ma'budalari topilgan. Har bir xonadonning jamoada tutgan o'rnini va boyligiga qarab o'z ma'budasi (xudosi) bo'lgan. Odatda bu ma'buda eshik tepasiga qo'yilgan. Xonadon solib mavridi bilan yog'ochdan o'yilgan yangi ma'budani xarid qilib almashtirib turgan. Bunday jarayon yog'och o'ymakorligi san'ati qadimiy bo'lganligidan dalolat beradi. Arablar istilosi oqibatida tasviriy san'atning ko'p turlari qatori yeg'och haykallar ishlash ham butkul barham topdi. Biroq islom dini bu san'atni tag-tugi bilan yo'qota olmadi. Yog'och taroshlovchi usta naqqoshlar o'z san'atini yog'ochda doim daraxtlarning aksini ifodalash, oddiy chiziqlardan murakkab geometrik shakllar yasashda namoyish etdilar. Ustalarning san'ati otadan-bolaga, avloddan-avlodga meros bo'lib o'taverdi».

IX—X asrlarda O'rta Osiyoda, shuningdek mamlakatimiz hududida madaniyat o'sa boshlaydi. IX asrda Samarqand mustaqil davlat bo'lib qoldi. Xalq madaniyatida yangi burilish bo'ladi. Shu asrlarda buyuk olimlar, faylasuflar, yozuvchilar yetishib chiqdilar. Ular Abu Ali ibn Sino, Ro'daki, Firdovsiy, Beruniy va boshqalardir. Ajoyib arxitektura yodgorliklari yaratildi. Masalan, jahonga mashhur Ismoil Somoniy maqbarasidir. Madaniyatning rivojlanishi yog'och o'ymakorligining yanada rivojlanishiga olib keldi. Yog'och o'ymakorligi bilan eshiklar, binolar, ustun, ravoq har xil xontaxtalar bezatildi. O'ymakor ustalar o'zi yaratgan san'at asarlarida timsol va duo-afsunlar, tasbih va tanosiblarning naqadar ko'pligini ko'rish mumkin. Har bir o'yma naqsh zaminida qandaydir ramziy ma'no yashiringan bo'ladi. Ular bu

naqshlar orqali voqe'likdagi eng go'zal tilaklarni aks ettirib

III asrlarda xalq amaliy san'ati yanada gurkirab rivojlandi. Mu-
him naqsh turi bo'lgan geometrik naqsh, ya'ni girih naqshi bezakda
o'rinni egalladi. Arxitektura uy ro'zg'or buyumlari yanada
naqsh qilib bezatildi. Girih naqshi yanada rivojlandi. Masalan,
yog'och o'ymakorligi namunasi Samarqanddagi Shohi-
shirvan baxorining orasidan topilgan bo'lib, u o'zining badiiy nafis va
ishlatilganligi bilan kishini lol qoldiradi 60 rasm.



60-rasm

Yog'och uymakorligida ishlatiladigan yog'och turlari va ularn- ing o'ziga xos xususiyatlari.

Yog'och o'ymakorligida ota-bobolarimiz qadimdan har xil yog'och-
lardan turli maqsadda foydalanib kelganlar. Ustalar yog'ochni o'yishdan
oldin uning o'ziga xos xususiyatlarini sinchiklab o'rganganlar. Keyingi-
ni yog'ochga o'yib naqsh ishlangan. Hamma yog'ochlar ular olinadigan
daraxt turiga qarab ikki guruhga: bargli va nina barglilarga bo'linadi.
Nina bargli daraxtlardan olingan yog'ochlar qurilishda, duradgorlik-
da va yog'och o'ymakorligida asosiy material hisoblanadi, chunki un-
ing o'ziga xos afzalliklari bor. Chunonchi tarkibida smolali moddalari
bo'lganligi uchun u tez chirib ketmaydi, bargli daraxtlarga qaraganda
ko'pligi va engilligi, unga ishlov berish osonligi, tanasi to'g'ri, silliq
bo'lgani uchun undan silliq xoda tayyorlash mumkin. Lekin o'yma-
korlikda shumtol, eman, arg'uvon, terak, chinor, zirk va boshqa daraxt
yog'ochlari ham ishlatiladi.

Hozirgi ustalar esa boshqa joylardan keltirilgan shamshod, eman,
qarag'ay daraxtlari yog'ochlarini ishlatadilar.

Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan materiallar bilan birma-bir tanishib chiqamiz.

Tog' teragi (ruscha — osina)— bargli daraxt, po'stlog'ining rangi sarg'imtir, yupqaroq, tanasining pastki qismlarida chatnog'i bo'ladi. Yumshoq yog'och turiga kiradi, engil, oqish rangli namga chidamli, yillik halqalari aniq. Yog'och ishlash oson, undan o'yinchoqlar, idishlar, eshik, faner, gugurt, har xil buyumlar yasaladi. O'ymakorlikda juda tez chiriganligi uchun kam ishlatiladi.

Oq qarag'ay (ruscha — pixta) — po'stlog'i yupqa, silliq kulrang tusda bo'ladi. U yumshoq, engil, oson ishlanadi, biroq qoramtir dop'it, yog'ochi oqish bo'ladi. Mayda ko'zli, kam smolali, hidi yo'q, namga chidamsiz. Cholg'u asboblari yasashda, yog'och o'ymakorligida va qurilishda ishlatiladi.

Qarag'ay (ruscha — sosna) — igna bargli daraxt turiga kiradi. Puxta engil smolali, oq-qizg'ish yog'och, namga chidamli, po'stlog'i qalin va to'q jigarrang tusda bo'ladi. Qarag'ay tik va to'g'ri o'sadi, uning balandligi 30—40 m, yoshi 120—150 yil bo'ladi. U yumshoq yog'och bo'lib, uni yorish, arralash, yelimlash, bo'yash, loklash oson. Qarag'ayning yillik halqalari aniq ko'rinib o'ziga xos ko'rinishga ega. U qurilishda, kemasozlikda, mebel ishlab chiqarishda, duradgorlikda va yog'och o'ymakorligida ishlatiladi.

Tilog'och — (ruscha — listvennitsa) igna bargli daraxt turiga kiradi, og'ir, yog'ochi qattiq, qoramtir-sarg'ish rangli bo'lib, chiroyli ko'rinishga ega. Namga chidamli, qarag'ayga qaraganda 30% mustahkamdir. U ortiqcha smolali, po'stlog'i qalin, yillik halqalari aniq ko'rinib, yog'ochi mayin qatlamli. U ortiqcha smolali bo'lgani uchun tez chirimaydi, uni ishlash qiyin. Shuning uchun yog'och o'ymakorligida kam, asosan qurilishda ishlatiladi.

Arg'uvon (ruscha — lipa) bargli daraxt turiga kirib, u qalin po'stloqli, engil, kam yoriluvchan, yog'ochi yumshoq, oqish tusli bo'ladi. Arg'uvonning yillik halqalarini aniqlash qiyin. Kam chatnaydi, toblanmaydi, kesish oson, hidsiz bo'lgani uchun yog'och idishlar, bochkalar, sabzi taxtalar, chizmachilik taxtalari ishlatiladi. Yog'och o'ymakorligida arg'uvonning 80—90 yilligi ishlatiladi.

Pardozlash — yog'och sirtini yaxshilab tozalab silliqlab, o'yma relefga uch xil: pax (yoyma), choka (yorma), lo'la pardoz berish hamda bo'yab, kumush va tilla suvi yugurtirish, loklash, jilolashdir.

Qizg'ish — bargli daraxt turiga kirib, uning po'stlog'i silliq, rangli qizg'ish bo'ladi. Tanasi to'g'ri bo'lmay sershox bo'ladi. Yog'och qizg'ish bo'lib, namga chidamsiz. U qurilishishlarda, o'ymakorlik, mebelchilik buyumlarini tayyorlashda ishlatiladi.

Mirzaterak — (ruscha — topol) — bargli daraxt turiga kirib, bargli to'g'ri sarg'ish, kam chatnaydi, u silliq bo'ladi. Kam shoxli, tanasi to'g'ri bo'lib, yog'ochi oq tusli, namga chidamsiz bo'ladi. Mirzaterak mebelchilik va yog'och o'ymakorligida keng ishlatiladi.

Oq qayin — (ruscha — beryoza) bargli daraxtlar turiga kiradi, tanasi qalin bo'lmagan oqish po'stloqdan iborat. Po'stlog'i palaxsag'ich yoritilgan bo'lib, yog'ochi qattiq, oqish tusli, yog'ochi qiyin ishlanadi, yillik halqalari bilinar-bilinmas, namga chidamsiz, lekin qizg'ish pardoatlanadi.

Oq qayindan asosan faner, mebellar, egri chiziqli yog'och detal va mebelqalar tayyorlanadi, yog'och o'ymakorligida qo'l kelmaydi.

Qora qayin (ruscha — buk) — bargli daraxt turiga kiradi, sarg'ish-qizg'ish tintir tovlanadigan oqish tusli, og'ir yog'och, namga chidamsiz qattiq qirqimi bo'yicha chiroyli, tabiiy gulli, qattiq qovushqoq yog'och. Halqalari yirikroq va aniq ko'rinadi. Egiluvchanlik xususiyatiga ega bo'lgani uchun fanerlar, mebellar, chizmachilik asboblari tayyorlashda qo'l keladi, qattiq bo'lgani uchun yog'och, mix, parket, yog'och o'ymakorligida keng ishlatiladi. Islimiy naqshlar qora qayin yog'ochidan juda nafis va chiroyli chiqadi. O'ymakorlikda 100—105 yoshga kirgan qora qayinlar ishlatiladi. Bu yog'ochdan yasalgan buyumlar o'yilib to'langanda juda chiroyli chiqadi.

Shuntol (ruscha — yasen) — bargli daraxt turiga kiradi, kam egiluvchan, och qizg'ish, rangli, puxta, pishiq, tabiiy gulli, chiroyli, egiluvchan. Uni ishlash qiyin, silliq randalanadi hamda pardoatlanadi. Yillik tolalari aniq ko'rinadi, bug'langanda yaxshi egiluvchan. Bu material faner tayyorlashda, vagonsozlikda, samolyotsozlikda, kemasozlikda qo'llaniladi. Undan har xil asbob bandlari, har xil sport buyumlari ishlanadi, yog'och o'ymakorligida keng qo'llaniladi.

Zarang (ruscha — klyon) — qattiq yog'och turiga kiradi. U oqish yoki qoramtir qizg'ish rangli, zich, puxta bo'lib mexanik xossalari jihatidan emandan ustun turadi. Tabiiy gullari chiroyli bo'lib, yaxshi pardoatlanadi. Yillik halqalari biroz bilinadi. Yog'och turi o'zining chiroyli tabiiy gullari bilan boshqa yog'ochlardan ajralib turadi. Uning

tabiiy gullari xuddi qush ko'ziga o'xshaydi. Shuning uchun ustalar qush ko'z deb yuritadilar. Yog'och o'ymakorligida qimmatbaho mebel tayyorlashda hamda mashinasozlik korxonalarida ishlatiladi.

Chinor (ruscha — platan) — po'stlog'i qizg'ish, sariq tusli yupqa, silliq bo'ladi. Chinor qattiq, (pishiq-puxta) ishlash qiyin, tabiiy gullari chiroyli, uning rangi qizg'ish-qoramtir. Chinordan qimmatbaho mebel va randalangan fanerlar tayyorlanadi.

Nok (ruscha — grusha) — qalin po'stloqli, chatnagan bo'lib, yog'ochi to'q jigarrang, mo'rt, qattiq, yillik halqalari bilinar-bilinmas. Nok daraxtidan gul bosadigan qoliplar, randalangan fa-ner va qimmatbaho mebellar tayyorlanadi.

O'rik (ruscha — uryuk) — bargli daraxt, yog'ochi qoramtir qizg'ish bo'lib, undan mayda buyumlar va inkurstatsiya ishlanadi. Har xil asboblari yasalanadi.

Archa (mojjevelnik) — po'stlog'i qalin, rangi kulrang, serbutoq bo'ladi. Kam smolali, namga chidamsiz igna bargli daraxt. U puxta, chidamli, ming yoshgacha yashaydi. Undan qog'oz sanoatida, mebellar va boshqa narsalar yasashda foydalaniladi. Yog'och o'ymakorligida qadimdan qo'llanilib kelinadi.


Yeng'oq (ruscha — grecheskiy orex) — po'stlog'i ko'kimtir, qalin va silliq bo'lib, tanasining pastki qismida po'stlog'ining chatnog'i bor. Yeng'oq yog'ochi qoramtir rangli, qattiq, tabiiy guli chiroyli, ishlash qiyin. U yaxshi pardoqlanadi, undan qimmatbaho mebellar tayyorlashda va yog'och o'ymakorligida keng foydalaniladi. U ajoyib ko'rinishga ega.

Zirk (ruscha — olxa) — uning ikki turi, ya'ni qora va oq zirk bo'ladi. Oq zirkning po'stlog'i tiniq hamda silliq bo'ladi. Qora zirkning po'stlog'i qoramtir tusda, qalin chatnagan bo'ladi. Namga chidamli, bo'yoqni yaxshi oladi. Yeg'ochi oqish ochiq havoda tez qizarib ketadi, yumshoq bo'lib, yillik halqalari ko'zga yaqqol tashlanadi. Undan arzon mebellar va fanerlar tayyorlanadi, chunki unga tez qurt tushadi.

Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan asboblari

Yog'och o'ymakorligida turli asboblari ishlatilib ular o'ziga xos ishlarni bajaradi. Yog'och o'ymakorligidagi asboblari ikki turga bo'lina-di, ya'ni naqshni o'yish uchun "o'yma qalamlar" va ikkinchisi "naqsh qalamlar".

Asboblarni shakli va bajaradigan ishiga qarab iskanalarning bir qancha xillari bo'ladi. Masalan, iskana, morpech iskana, baliq sirti iskana, zamin iskanalar, kovza iskana, chekma iskana va boshqalar. Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan asboblarni maxsus asbob tayyorlaydigan chilangar ustalar tayyorlaganlar yoki o'zlari yasaganlar. Hozirda yog'och o'ymakorlik asboblari metallsozlik korxonalarida tayyorlanadi. Ayrim ustalar asboblarni o'zlari tayyorlaydilar. Iskanalar bir tomonga qarab charxlanib o'ziga xos o'tkirlik burchakda charxlanadi. Iskanalarning dastalari pishiq yog'ochlar, ya'ni qora qayin, qayrag'och, zarang, yong'oq va boshqa daraxt yog'och-laridan tayyorlanadi. Iskanalar yog'och to'qmoq bilan uriladi. Shuning uchun dastasi yog'och yoki plastmassadan yasaladi. Plastmassali dastalar yorilishga chidamli bo'ladi. Bolg'a urishda yorilib ketmaydi 61 rasm.



61-rasm

Iskana (ruscha — stameska) — duradgorlik asbobi bo'lib undan yo'nish, teshish ishlarini bajarishda foydalaniladi. Iskanalarning o'yuvchi hamda yo'nuvchi xillari bor. Yo'nuvchi iskanada taxta chetlariga fuska chiqariladi, teshik, tirnoqlar rostlanadi, ular yo'nib kengaytiriladi. Qalin hamda qattiq yog'ochlarni o'yish va teshish ishlari o'yuvchi iskanalar bilan bajariladi. Iskanalarning tig'i po'lat, dastasi esa asosan yog'ochdan bo'ladi. Dastalari zarang, qayrag'och, yong'oq, qayin kabi pishiq yog'ochlardan tayyorlanadi, uchiga esa metall halqacha kiygazib qo'yiladi. Iskanalar bajariladigan ishning xarakteriga qarab nov iskana, chuv iskana (o'yishda), qing'ir iskana (teshishda) ishlatiladi. Avval duradgor va yog'och o'ymakor ustalar maxsus temirchi (chilangar) ustalarga buyurtma berib yasatar edilar yoki o'zlari tayyorlar edilar. Hozir iskanalar metallsozlik korxonalarida tayyorlanadi.

Kovza iskana — u to'g'ri va egri tig'li bo'ladi. To'g'ri tig'li kovza iskana o'yilgan naqsh chiziqlarining ustiga uch qirrali qavariq yo'llar

chiqarish hamda parallel chiziqlar chizishda qo'llaniladi.

To'g'ri iskana — to'g'ri sterjen keskichli bo'lib, tig'ining eniga qarab kichkina, o'rtacha va katta iskanalar bo'ladi. Tig'ining eni 1,5 mm dan 10 mm gacha bo'ladi. Ko'pincha bag'dodi uslubidagi naqshlarni va zaminini o'yishda ishlatiladi.

Nova iskana — uning tuzilishi bo'yicha tig' uchi nov shaklida bo'ladi. Eni 2 mm dan 8 mm gacha bo'lib dastasi qattiq yog'ochdan qilingan bo'ladi. Asosan kichik, o'rtacha va katta nova iskanalar bo'ladi. Nova iskanalar o'yishda va pardoqlashda ishlatilib asosan naqshning eng mayda bo'g'im, doiracha, marg'ula, mayda ko'zcha, gajak va gul qismlarini kesishda qo'l keladi.

Zamin iskana — naqshning zaminini o'yib olishda ishlatiladi. Zamin iskananing eni 2 mm dan 8 mm gacha bo'ladi.

Baliq sirti iskana — tig'i botiq, kamalaksimon ko'tarilgan, baliq qovurg'asi shaklida bo'lgan asbobdir. Keskichini eni 4 mm dan 19 mm gacha, uning katta-kichikligiga qarab kichik, o'rta va katta baliq sirti iskanalari bo'ladi.

Morpech iskana — o'yilgan naqshlarning chetlaridagi hoshiya, zanjira, yarim doiralar, nuqtalar chiqarishda qo'llaniladi.

Chekma iskana — o'yilgan naqshning zaminini chakichlab chiqish uchun ishlatiladigan asbob. U o'yilgan naqshlarni aniq ko'rinishi, zaminini bir tekisda chiqishi va o'ziga xos badiiy ko'rinishi uchun qo'llaniladi. Ishlatish joyiga qarab bir tishli, uch tishli, besh tishli, o'n olti tishli chekma iskanalar bo'ladi.

Kurakcha iskana — kesadigan tig'ining uchi bir tomonga qiya holatda bo'lib, u kurakcha ko'rinishida bo'ladi. Uning kattakichikligiga qarab, kichik va katta kurakcha iskanalar bo'ladi.

Iskanalar ensiz zanjira va hoshiya naqshlarni o'yishda ishlatiladi. O'yuvchi bu asbob bilan iskanani o'ng qo'lida dastasidan ushlab, tasvir yoki naqsh chizig'ini ustidan kerakli chuqurlikda sanchgan holda o'zi tomon kesib boradi.

Chekma qalam — yog'och zaminini patir yuzasiga o'xshatib chekmalab o'yib chiqishda ishlatiladigan asbob. Bu asbob gurzi, yog'och banddan va uzun temir sterjendan iborat. Chakichlar bir qatorli va uch qatorli bo'ladi. Asbob 1, 2, 3, 4 va hokazo bo'rtna tishli bo'lishi mumkin. Chakichlangan naqsh aniq, mayin yanada boy, nafis ko'rinishga ega bo'ladi. Yog'och o'ymakorligida chakichlash juda qa-

dan rivojlanib kelgan. Ganch o'ymakorligida chakichlash uslubi o'ziga xosdir.

Xatkash (ruscha — reysmus) chiziqlarni chizishda ishlatiladigan maxsus asbob. Tanasiga bitta yoki ikkita prizmatik chizg'ich o'rnatilgan bo'ladi. Undan detallarni cheti va qirralarini yoki qatlamlarini ishlashda, parallel chiziqlar tortishda ishlatiladi, uning turli xillari mavjud. Masalan, xatkash chizg'ich mustahkamlanadigan qisqichli ustundan iborat bo'ladi. Rejalashni aniqligini oshirish va tezlashtirish uchun shtangenreysmusdan foydalaniladi. Duradgorlikda ikkita parallel buntokli kolodka tarzidagi xatkash qo'llanilib aniq o'lchamli buyum tayyorlashda yog'och materialning turli tomonlariga parallel qilib reja chiziqlari chizishda ishlatiladi.

Misgarlik (kandakorlik). O'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng keng tarqalgan turlaridan biri kandakorlik bo'lib bu san'at turi metallardan yasalgan badiiy buyumlarga o'yib yoki burtik qilib naqsh ishlash tushuniladi.

O'zbekiston hududida joylashgan O'rta osiyo shaharlarda metallardan yasalgan badiiy buyumlar ishlab chiqarish qadimdan rivojlanib kelayotgan san'at bo'lib bu san'at o'zining qadimiyligi bilan kulolchilikdan keyin, ikkinchi o'rinda turadi.

Savdo-sotiqda qadimdan kandakorlik buyumlariga talab katta bo'lgan. Bu asrlar ramziy ifodalarning yangi uslublari hamda g'oyalarini tarqatish manbai bo'lib xizmat qilgan. Mahalliy san'at asarlari qo'shni mamlakatlar san'atining eng yaxshi yutuqlari bilan boyib borgan. Qadimdan buyum yasash urf bo'lib qolgan. Mahalliy ustalar oltin, kumush, jez, mis va boshqa metallardan har xil buyumlar yasaganlar.

O'zbek xalq amaliy bezak san'atining keng tarqalgan turlaridan biri kandakorlikdir. Kandakorlik deganda metallardan yasalgan badiiy buyumlarga o'yib yoki bo'rtik qilib naqsh ishlash tushuniladi. O'zbekiston hududida joylashgan O'rta Osiyo shaharlarida metallardan yasalgan badiiy buyumlar ishlab chiqarish qadimdan rivojlanib kelayotgan san'at bo'lib, bu san'at o'zining qadimiyligi bilan kulolchilikdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Savdo-sotiqda qadimdan kandakorlik buyumlariga talab katta bo'lgan. Bu asarlar ramziy ifodalarning yangi uslublari hamda g'oyalarini tarqatish manbai bo'lib xizmat qilgan. Mahalliy san'at asarlari qo'shni mamlakatlar san'atining eng yaxshi yutuqlari bilan boyib borgan. Qadimda buyum yasash urf bo'lib qolgan.

Mahalliy ustalar oltin, kumush, jez, mis va boshqa metallardan har xil buyumlar yasaganlar. Qadimgi va ilk o'rta asr kandakorligi asosan hallangan kumush buyumlarda o'z ifodasini topdi.

XI asrdan boshlab kandakorlik mahsulotlarini mis hamda mis qotishmalaridan tayyorlay boshladilar. Arxeologik topilmalardan eramizdan avvalgi X asr oxiri hamda XI asr boshlarida birinchi (maxsus mis qotishmasi) to'g'nag'ichlar Misr, O'rta yer dengizi, Mesopotamiya, Hindiston, O'rta Osiyoda keng tarqalganligi aniqlangan. Bu badiiy metall buyumlari ishlashning ilk namunalari edi. To'g'nag'ichlarda kichik-kichik voqealar, hayvon va boshqa narsalar tasvirlangan. Farg'onada topilgan marosim qozoni bir ming yillikning o'rtalarida kandakorlik «hayvonot uslubi» rivoj topganligini isbotladi.

IV asrda O'rta Osiyo janubiy viloyatlarining Aleksandr Makedonskiy tomonidan bosib olinishi tasviriy va amaliy san'atning mahalliy an'analarining tarqalishiga imkon yaratdi.

III—VIII asrlarda, ya'ni so'nggi antik va ilk o'rta asr davrida O'rta Osiyoda kandakorlik juda yuqori darajada rivoj topdi. Qimmatbaho metallardan hokimlar hamda a'yonlar uchun har xil nihoyatda chiroyli bezak buyumlari ishlatildi. Bu oltin yoki kumush buyumlarda to'y-tomosha, taxtga o'tirish marosimlari, dunyoviy mavzular, shikor va kurash manzaralari, mifologik hamda epik qahramonlar, hayotiy mavjudot, paranda va boshqa tasvirlarni ko'rish mumkin edi 62 rasm.



62-rasm

VI—VII asrlarda badiiy metall buyumlar yuksak texnik sifatda bajarilganligiga Anikov lagani misol bo'la oladi. Bu laganda qal'a darvozasi oldidagi sahna tasvirlangan, "Yakkama-yakka olishuv" voqeasi tasvir-

langan kosa o'sha davr hayotidan bir parcha bo'lib, undagi o'ymaning mayinligi, aniq nafasoti, kompozitsiyasi, ta'sirchanligi, kuchliligi bilan mashhurdir.

O'zbekiston kashtachilik, misgarlik, ganchkorlik, yog'och o'ymanchiligi singari xalq amaliy san'ati bilan butun dunyoga mashhur.

Yog'ochga, misga, qog'ozga, matoga ganchga chizib, o'yib, tirnab, to'rt bilan ishlangan naqsh-nigoralar ularning go'zalligi, nafisligi va ta'sirchanligi kishini o'ziga maftun etadi.

Shu san'at turlaridan biri misgarlik bo'lib, u qadim zamonlardan buyon davom etib kelayotgan san'atdir. Misgarlik deganda misdan qurollar, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqa jihozlar yasash kasbini tushunamiz.

Misgarlik hunarmandchilikning qadimiy va keng tarqalgan turidir.

Misgarlikda ishlatiladigan asosiy material — mis. Mis nima? Mis nima uchun ishlatiladi, degan savol tug'uladi.

Mis — qadimdan insonga ma'lum bo'lgan metall. Mis va uning qotishmalari insonning moddiy madaniyatini o'stirishda katta ahamiyatga ega. Qadimda yunonlar mis rudasini birinchi bo'lib Kipr orollaridan qazib olganliklari uchun uning nomi lotincha (sirgit deb ataladi). U tabiatda tarkibida temir, kumush hattoki oltin bo'lgan ruda holida uchraydi.

Mis hayotiy fiziologik jarayonda qatnashadi-gan muhim element. U yumshoq, cho'ziluvchan, bolg'alanuvchan qizil yoki qizg'ish metall. Mis issiqlik va elektr tokini juda yaxshi o'tkazib kumushdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. U havoda tez oksidlanib qorayadi. Nam havoda mis gidroksikarbonat hosil qilgani uchun ko'karadi. Mis misrudalarini qayta ishlashdan olinadi. Undan lagan, oftoba, jom, samovar va boshqalar, shuningdek sun'iy ipak olinadi. Qadimda misgarlar sof misni sovuqlayin ishlatganlar, shuning uchun ham mis buyumlar yumshoq hamda mo'rt bo'lgan. Keyinchalik mis va qalay qotishmasidan hosil qilingan bronzani ishlatganlar.

Bronzadan ishlangan buyumlar birmuncha pishiq bo'ladi. Qurama tog'larining janubi-g'arbiy qismidan Qizilqum hamda Nurota tog'laridan topilgan topilmalar misning O'rta Osiyo hududlarida qadimdan rivojlanganligini isbotladi. Buxoro qadimdan naqshinkor mis idishlar ishlash markazi bo'lib kelgan. Strabon hamda Geradot asarlarida O'rta Osiyoda misgarlik mashg'uloti haqidagi ma'lumotlar yozilgan. X asr

arab geografi hamda sayyohi Maqdisiyning yozib qoldirgan manbalari asosida shular ma'lum bo'ldiki, Arab mamlakatlariga Samarqanddan o'sha davrda katta mis qozonlar, juda chiroyli mis qadahlari, Buxorodan esa mis chiroqlari keltirilgan. XI—XII asrda Termiz misgarlari butun dunyoga mashhur bo'lgan. XII—XIII asrlarda O'rta Osiyoda mis buyumlari yasashga juda katta e'tibor berilgan. XVIII—XIX asrlarda Buxoro, Samarqand hamda Qo'qon, Xiva kabi shaharlarda a'lo darajali bronza va misdan idishlar yasash keng tarqalgan edi. Misgarlik san'atining o'ziga xos maktablari bo'lib, ular Qo'qon, Toshkent, Samarqand, Xiva va boshqa shaharlarda bo'lgan. Mis idishlar ikki yo'l bilan birinchisi misni eritib quyib, ikkinchisi bolg'alab yasalgan. Bolg'alab yasashda sandondan foydalanilgan. Buyumni yasashda metall tez-tez qizdirib turiladi. Agar murakkab idishlar yasalanadigan bo'lsa, mis bir qancha bo'laklari quyilib keyin qalaylangan. Qolipdan chiqarilgan mis idish yaxshilab tozalanadi. Idish bitgandan so'ng naqsh o'yuvchi kandakorga beriladi.

Zargarlik. O'zbek xalq amaliy san'ati turlari ichida zeb-ziynat san'ati bo'lmish zargarlik alohida o'rin yegallaydi.

Musulmonlarda feruza, marvarid, zumrad va boshqa toshli zargarlik buyumlari nihoyatda qadrlangan. Chunki ular inson uchun faqat bezak buyumlari bo'lib qolmay, balki sog'lik uchun, inson ruhiyati uchun ijobiy ta'sir etgan. Masalan: marvarid inson organizmini mustahkamlaydi, yurakdagi tushkunlik va iztirobni haydaydi, ko'z qobiliyatini oshiradi, jinlardan saqlaydi, og'izdagi ko'lansa hidlarni yo'qotadi, oshqozondagi va jigardagi toshlarni maydalaydi, shamollash bavo-sil va boshqalarni tuzatadi. Feruza yesa uni qudratli tumor sifatida taqilgan oshqozon hamda ko'z kasalligiga shifobaxsh, ta'sir yetgan, ilon chaqqanida eng yaxshi davo hisoblangan. Shuning uchun qadimda kelinlar kiyimiga feruza taqishgan 63-rasm.



63-rasm

mansudondan o'tmishda marjonlar, uzuk, to'g'-nag'ichlar, bilakuzuk va boshqalar yasaliib, u go'yo odamlarni qahru-g'azab, g'amu-anduhdan qutqagan.

Uzbek zargarligi juda qadimiy tarixga ega. Unga ibtidoiy jamoa davrida asos solingan. Arxeologik topilmalardan ma'lumki, zargarlik san'ati juda qadimiy san'at bo'lgan. Eramizgacha bo'lgan davrdan boshlab eramizning VIII asrigacha Ayritom, Afrosiyob, Dabardzin-tepa, Xolgayon, Bolaliktepada chiroyli haykal-lar, devor rasmlari orqali zargarlik san'ati rivojlanganligini ko'rish mumkin.

Tosh asrining so'nggi davri neolitdayoq (era-mizgacha IV—III ming yillikning oxirida) shildiroq o'ynchoqlar, har xil toshlar, shug'anoq, hamda suyaklardan yasalgan bezaklar topilgan. Bu esa taqqanlikni rivojlanganligidan dalolat beradi. Ikki daryo oralig'iga joylashgan Yunonistonda ajoyib va qimmatbaho zargarlik buyumlari ishlangan. Mis davriga to'g'-nag'ich, zirak, baldoq, bilakuzuk, shildiroq va boshqalar metallardan, hattoki oltindan ishlanadigan bo'ldi. Xorazmdagi Tuproqqal'a devorlardagi tasvirlardan o'sha davrlardagi ayollar quloqlariga nafis zirak taqqanliklari ma'lum bo'lgan (bu tasvir III asrga talluqli). Bulardan tashqari bronzadan quyib ishlangan bir qancha osma taqinchoqlar ham topilgan. Bu osma taqinchoqlar I—IV asrga mansub bo'lib Xorazmning Ayoqqal'a, Yetti asar, burgutqal'a va boshqa joylaridan topilgan.


IV—V asrlarda zargarlik buyumlari kam ishlangan. Ular tosh, shisha, pastalardan qilingan. Masalan. Xorazmda shishadan qilingan sher va qurbaqa shaklidagi munchoqlar topilgan. Bolaliktepadagi topilmada V asr oxiri VI asr boshlarida ishlangan devoriy rasmda ayol kishining qulog'i va barmog'ida zargarlik taqinchoqlari tasvirlangan. Afrosiyobdagi VI—VII asrga mansub devoriy rasmda erkak kishining qo'lida sovg'a taqinchoqlarni olib kelayotgani tasvirlangan. Bulardan tashqari ayol sochlarida osma taqinchoqlar osilganligi tasvirlangan.

X—XI asrlar o'rtasida bitta katta teshigi bo'lgan suyakli tugmachalar ko'p ishlangan.

XIV—XV asrlarda zargarlik juda yaxshi rivojlangan bo'lsada nimagadir bizgacha juda kam miqdorda saqlanib qolgan. Ba'zi bir yozma manbalarda ko'rsatilishicha XIV asr oxiri XV asr boshlarida Tojiddin zargar Buxoro yaqinidagi Tavans shahrida yashagani, bulardan tashqari Xusaynning o'g'li Muhammad zargar, XV asrning ikkinchi

yarmida yashagan usta Ali zargar, xo'ja Sulton Xusayn zargar, xo'ja Bobo Do'stning o'g'li xo'ja Xasan zargar nomlari bizga ma'lum.

XVI asrda ishlangan ko'krak bezak zargarlik buyumlari faqat devoriy rasmlar orqali yetib kelgan. XIV—XVII asrlarda zargarlik buyumlarining naqsh bezaklari judayam murakkablashib boradi 64 rasm.



64-rasm

XIII—XIV asrlargacha zargarlik buyumlarida ko'pincha hayvonlar tasvirlangan bo'lsa, keyinchalik esa arab yezuvlari kompozitsiyaga kirib o'ziga xos ko'rinish berdi. Bu yezuvlar bir tomondan naqsh bezagi va ikkinchi tomondan ma'no jihatdan farqlanar edi. XVIII asrda O'rta Osiyodagi o'zaro ichki urushlar zargarlik san'ati-ning rivojlanishiga salbiy ta'sir etdi. Keyinchalik xonliklar paydo bo'lishi bilan zargarlik yanada rivojlana boshladi. XVIII asrda mo'g'ul bosqinchilaridan so'ng birinchi marta oltin tangalar ishlab chiqarila boshlandi. Zargarlik buyumlari oltindan, kumushdan va boshqalardan ishlandi. Qurol-aslahalar ajoyib qimmatbaho toshlar, shisha, billur, oltin va boshqalar bilan bezatildi. Zargarlar juda yumshok; va yerqin bo'lmagan nefrit va kumushdan, juda yerqin oltin va nefrit kabilarni ishlatdilar.

Tosh va suyak o'ymakorligi. Tosh o'ymakorligi xalq amaliy bezak san'atining noyob turlaridan biri. Bu san'at kishidan iste'dod va intilishlardan tashqari mehnatsevarlik va hoyatda zo'r sabrtoqad talab qiladi.


Bu san'atni toshtaroshlik va sangtaroshlik deb ham yuritiladi. Tosh o'ymakorligi toshni o'yib, yunib, tirnab naqsh yoki biror tasvir ishlash kasbidir.

Toshni o'yib ishlashning chiziqli o'yma, zanjiri o'yma, yassi o'yma, chuqur o'yma, panjarasimon o'yma va hajmli o'yma turlari bor. Tosh o'ymakorligida ishlatiladigan materiallar o'rni, maqsadi

hamda vazifasiga qarab yumshoq, o'rtacha qattiqlikdagi va qattiq toshlar ishlatiladi. Yumshoq toshlarga gipstosh, kolorit, ohaktosh o'rtacha qattiqlikdagi toshlarga oniks, porfit, ohakli marmar, marmar va qattiq toshlarga lazurit, amozon, agat, malaxit, xadent, nefrit va boshqalar kiradi. Bu toshlardan qozon, ko'za, lagan, piyola, haykalcha va haykallar tayyorlanadi. Ko'za, lagan, namoyon va boshqalarga toshni o'yib o'simliksimon, geometrik ramziy naqshlar hamda syujetli rasmlar o'yib ishlanadi.

Suyak o'ymakorligi O'zbekiston xalq amaliy bezak san'atining boshqa turlari kabi tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Suyak o'ymakorligi O'zbekistonda san'atning eng yosh turidir. Suyak o'ymakorlik Hindiston, Yoqutiston, Afrika-Xitoy umuman Sharq mamlakatlarida yuksak darajada rivojlangan.

Suyak o'ymakorligi juda qadimiy san'at buni har xil arxeologik topilmalar orqali bilib olishimiz mumkin 65 rasm.



65-rasm

Tosh o'ymakorligi xalq amaliy bezak san'atining noyob turlaridan biri. Bu san'atni tosh-taroshlik va sangtaroshlik deb ham yuritiladi. Tosh o'ymakorligi toshni o'yib, yo'nib, tirnab naqsh yoki biror tasvir ishlash kasbidir. Toshni o'yib ishlashning chiziqli o'yma, zanjira o'yma, yassi o'yma, chuqur o'yma, panjarasimon o'yma va hajmli o'yma turlari bor. Tosh o'ymakorligida ishlatiladigan materiallar o'rni, maqsadi hamda vazifasiga qarab yumshoq, o'rtacha qattiqlikdagi va qattiq toshlar ishlatiladi.

Yumshoq toshlarga gipstosh, talkoxlorit, ohaktosh o'rtacha qattiqlikdagi toshlarga oniks, porfir, ohakli marmar, marmar va qattiq toshlarga lazurit, amozon, agat, malaxit, jadent, nefrit, yashma va boshqalar kiradi. Bu toshlardan qozon, ko'za, lagan, piyola, haykalcha

va haykallar tayyorlanadi. Ko'za, lagan, namoyon va boshqalar toshni o'yib o'simliksimon, geometrik ramziy naqshlar hamda qayiq rasmlar o'yib ishlanadi. Tosh o'ymakorligi juda qadimdan rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san'ati bo'lib, toshni o'yib naqsh yoki boshqa tasvir hosil qilishdir.

Jumhuriyatimizdagi vodiy va tog'lar uzoq insoniyat taraqqiyotida uzoq o'tmishda moddiy madaniyatning o'chog'i hisoblangan. Qoyalar ustiga tushirilgan rasmlar (petrogliflar) qadimiy yodgorliklar tarixidan dalolat berib turibdi. O'yib ishlangan tasvirlarni qoya toshlarda va so'qmoq hamda daryo yon bag'ridagi toshlarda ko'rish mumkin. Tosh ustida ovchilar faqat hayollariga kelgan shakllarni o'yib chizib tashlamasdan balki, ularni juda qiziqtiradigan voqe'likni aks ettirganlar. Ular avval ov qilinadigan hayvonni keyin esa ov qilish, ayrim qabilalar o'rtasida urushlarni tasvirlaganlar. Bu toshlarga o'yilgan shakllar har xil geografik kenglik turlicha tasvir etilgan 66-rasm.



66-rasm

Chunonchi Oq dengiz hamda Shimoliy ko'l rayonlarida o'yilgan toshlarga razm solsak, u yerda yozda suzayotgan qayiqchalar va oqqush-larning ovi tasvirlangan. Sibirda esa oqqush-lar o'rniga bug'ular va chang'i uchayotgan ovchilar tasvirlangan. O'rta Osiyo sharoitida esa yov-voyi echki, buqa va boshqa yovvoyi hayvonlarning ovi tasvirlangan. Qizilqumda ko'pincha tuyalar tasvirini ko'rish mumkin. Namangan viloyati Chadak posyolkasida juda ko'p qiziqarli shakllar tasvirlangan qoyalar bor. Ular-dan biri oltita echkining shaklini misol tariqasida olaylik. Bu tasvirda bitta echkining tasviri juda qunt bilan ishlangan, qolganlari shoshilib ishlangan bo'lib ularni shakli geometrik shakllarni eslatadi. Yana bir toshga 12 ta echkidan iborat echkilar podasiga kamalakdan o'q-yoy otayotgan ovchi tasvirlangan. Bu

...shuni uchki bolalarining ovchidan qochib ketishi, ovchi itining ... tabiiydir. Bu katta va murakkab kompozitsiyani ishlash ... o'yna-kor rassomining yuksak iste'dod egasi bo'lgan- ... berib turibdi. Albatta, bu surat o'rta tosh asriga mansub, ... asrda ixtiro qilingan. Qadimgi avlod-ajdodlarimiz-ning ... hamda toshlarga ishlangan ishlari o'tmish kishilarining ... o'rganishda noyob hujjat bo'lib hisoblanadi. Inson qadimdan ... toshlardan foydalanib kelgan.

I-II asrlar vulqonlarning otilishi hamda zilzilalar tufayli vujudga kelgan ... toshlardan meh-nat quroli vositasida foydalananganlar. O'tkir ... toshlardan go'sht maydalashda, yog'ochni tilish va boshqalarda ... ishlatilgan.

Qadimgi davrida toshdan keng miqyosda foydalananganlar. Ular ... asosiy material bo'lib xizmat qilgan. Odamlar toshni ... buy-laridan qurol va asboblari, uy-ro'zg'or buyumlari va bezak ... sifatida foydalananganlar. Qadimiy O'rta Osiyoda odamlar ... toshlardan bezak buyumlari tayyorlashgan. Bu yer-larda ... toshlardan tashqari yog'och, ganch juda ko'p bo'lgan. Geografik ... inqozosi bilan me'morchilikda bezak sifatida toshlardan juda ... foydalanilgan. Bundan tashqari islom dini jonli mavjudotni ... man etganligi haykaltaroshlikni rivojlanishiga katta to'siq ... bo'lgan. Ammo yirik monumental binolarni bezashda asosan marmar ... xarsangtoshdan foydalanib kelganlar.

I—III asrlarda O'zbekistonning janubida binolarni ustunlari hamda ... poydevorlarni bezashda xarsangtosh, marmartosh va ohaktoshdan foy- ... dalanganlar. Fayoztepa, Ayritom, Qoratepa kabi xarobalardan ko'rinish ... turibdiki, marmar va xarsangtoshdan bezash ishlarida keng foydalanil- ... gan 67 rasm.



67-rasm

Toshni kesish, unga badiiy ishlov berish sirlari to'g'risida Sharq mamlakatlarida risolalar yozib qoldirilgan.

O'yma turlari

O'ymakorlikda o'ymalar o'zining xarakteriga ko'ra olti turga bo'linadi: chiziqli, zanjira yassi, chuqur, panjarasimon va hajmli o'ymalar.


Chiziqli o'yma — eng qadimgi va eng oddiy o'yma turi hisoblanadi. Chiziqli o'yma buyumga o'tkir asbob bilan tirnash asosida chiziladi. Chuqurroq chiziqli qavatlarini eslatadi, shuning uchun ham ustalar uni gravyura deb ataydilar. Yog'och o'ymakorligida naqshlarni yoki biror tasvirni mebel, quticha, qalamdon va boshqa narsalarni bezashda qo'llaniladi. Tosh o'ymakorligida kichik narsalarni naqsh va biror tasvir bilan bezashda juda keng foydalaniladi. Ganchkorlikda chizma pardoz deb yuritiladi. Suyak o'ymakorligida va kandakorlikda chizikli o'yma juda ko'p qo'llaniladi.

Zanjirli o'yma — qadimdan ishlatilib kelinayotgan o'yma turi. Bu zaminsiz o'yma hisoblanadi. Tosh, yog'och, metall o'ymakorligida zanjira o'yma turi keng ishlatiladi. Tosh o'ymakorligida namoyon, lagan va boshqa narsalarni chetiga zanjira o'yma ishlatiladi. Ganch o'ymakorligida eshik, namoyon, deraza, izora va boshqalarning chetiga ko'pincha zanjira o'yma bajariladi. Zanjira sodda bo'lsada jozibali ko'rinishga ega. Geometrik shakllar o'yilganda soya, yorug' va yarim soyalar o'ziga xos nafis ko'rinishga ega bo'lib, kishida ajoyib taassurot qoldiradi. Zanjira o'yma uzoqdan umumiy ramka ko'rinishiga ega bo'lib, yaqindan esa naqsh bilan zanjira o'yma qo'shilib juda boy ko'rinish beradi.

Yassi o'yma — eng ko'p qo'llaniladigan o'yma turidir. Bu o'yma taxminan 1—1,5 sm chuqurlikda bo'lib, uning relefiga har xil pardoz beriladi. Tosh, yog'och, mis va boshqa o'ymakorlikda yassi o'yma juda kam qo'llaniladi.


Chuqur o'yma — naqsh yoki biror tasvir juda chuqur o'yiladi. O'yma xuddi hajmli ko'rinish berib, zamini qoramtir, relef esa oq bo'lib kontrast ko'rinishga ega bo'ladi. Tosh o'ymakorligida binolar o'yma pannolar bilan bezatiladi. Masalan, Toshkentdagi A. Navoiy nomli opera va balet katta teatri binosida ajoyib chuqur tosh o'ymakorligi namunalari bor.

Panjarasimon o'yma — juda qadimdan rivojlanib kelayotgan o'yma turlaridan biri. Bu boshqa o'yma turlaridan farq qilib o'yilayotgan ganch tashni ikkinchi tomonidan teshib o'yib o'ziga xos pardozi turi beriladi. Panjarasimon o'yma qadimdan qo'llanilib uni Varaxsha (VIII) binolari-da, Shohi Zinda kompleksidagi (XIX asr), Mir Arab, Abdulloxon (XVI asr) qabri Amir maqbarasidagi o'yma marmardan ishlangan geometrik panjara va boshqalar misol bo'la oladi. Hozir zamonaviy binolarda panjarasimon o'yma Xalq amaliy san'ati muzeyida, Oybek nomli O'zbekiston xalq muzeyida, moviy gumbaz kafesida, metrostantsiyalarda qo'llaniladi. Kandakorlikda mis oftoba, dastsho', choynak, isiriqdon, samovar va boshqalarda o'yma panjaralar qo'llanilgan. Yog'och o'ymakorligida, tosh o'ymakorligida ajoyib panjaralar o'yib ishlanmoqda 68 rasm.



68-rasm

Hajmli o'yma — haykalsimon, ya'ni hajmli o'yilgan biror narsa. Hajmli o'yma qadimdan ishlatilib kelinayotgan o'yma turlaridan biri bo'lib, tosh, suyak, yog'och va boshqa materillardan o'yib ishlangan hajmli "narsadir. Buxoro yaqinidagi Sitorai Mohi-Xosadagi ikki sher haykali marmardan o'yib ishlangan hajmli o'yma-dir. Toshidan ishlangan har xil esdalik sovg'a buyumlari, ko'za, lagan va boshqalar ham hajmli o'ymaga kiradi 69 rasm.



69-rasm

Tosh o'ymakorligida ishlatiladigan materiallar

Tosh — tosh o'ymakor ustalarning asosiy ish materialidir. U mustahkam, uzoqqa chidaydigan va chiroyli bo'lishi kerak. Toshdan qurilgan narsalar bir qancha asrlar davomida yashamoqda. Uni qayta ishlash va undan biror narsa yasash qiyin, kishidan sabr-toqat talab qiladi.

Arxeologik topilmalar va arxitektura yodgorliklarini bezashda qat'imdan ishlatilib kelinayotganligining dalilidir.


Tosh o'ymakorligida ishlatiladigan toshlar o'rni, maqsadi hamda vazifasiga qarab yumshoq, o'rtacha qattqlikdagi va qattiq bo'ladi.

Yumshoq toshlarga — gipstosh, talkoxlorit, ohaktosh va boshqalar, o'rtacha qattqlikdagi tosh-larga — oniks, porfir, ohakli marmar va qattiq toshlarga esa — lazurit, amazon toshi, agat (xaltsedon), malaxit, jadeit, nefrit, yashma va boshqalar-kiradi. Bu materiallardan qozon, ko'za, laganlar yasali b unga ajoyib o'yma naqsh-lar bilan jilo berilgan 70 rasm



70-rasm

Marmar — tog' jinsi bo'lib ohaktoshning alohida nafis turidir. Marmar yo'l-yo'l, pushti, sariq, zich, yarim shaffof, yaltiroq ham bo'ladi. Marmar qadimdan qimmatbaho hamda nafis tosh hisoblanib Zakavkazeda hamda Eronda marmar-dan zeb-ziynat buyumlari ishlangan. O'rta Osiyoda marmar qadimdan ishlatilib kelinayotgan qimmatbaho material bo'lib, qurilishlarda keng ishlatilgan. Samarqanddagi Amir Temir maqbarasi-ning ichki devorlari, qabr toshlari o'yma naqsh marmardan ishlangan. Marmardan turli zeb-ziynat buyumlari, taqinchoqlar yasaladi. Marmar-dan har xil panjara, lagan, sovg'a buyumlari, poyustunlar, namoyonlar ajoyib marmardan o'yib naqshlar bilan jilolangan 71 rasm.



71-rasm

G'ozg'on marmari — dunyoga mashhur marmarlardan biri hisoblanadi. Uning rangi nafis va xilma-xildir. G'azg'on marmari to'q qizilrang, qizg'ish, tutun rang, och qizg'ish, ko'kimtir, ba'zan oq ham bo'ladi. Uning rangi taram-taram bo'lib biridan ikkinchisiga asta-sekin o'tadi. Rasmlari turli-tuman 20 yil xizmat qiladi. G'ozg'on marmari chinnisimon, muzlashga bardoshli nafis qizg'ish rangda, ayniqsa uning ko'k yulduz manzaralarini eslatadigan tabiiy turlari o'ziga xos go'zaldir.

G'ozg'on marmari qadimdan ma'lum bo'lib, Buxoroda, Samarqanddagi machit hamda binolarni bezashda ishlatilib kelingan. Ayniqsa, naqshlilar o'yib ishlangan marmar o'ziga xos tabiiy go'zal ko'rinishi har kishini hayratga soladi. Frantsiyada o'tkazilgan butun dunyo ko'rgazmasida G'ozg'on rangdor marmari birinchi o'rinni olgan.

Undan Moskvadagi metro stantsiyalari, Yaroslavl hamda Qozon teatralari, Ostankino televizion minorasining ichki qismi, Sovetlar Davlati, Bokudagi 26 komissar xotirasiga o'rnatilgan monumentlar va juda ko'p joylarni bezashda keng foydalanilgan. 1939—40 yillarda Parij va Nyu Yorkda o'tkazilgan butun dunyo ko'rgazmasidagi Sovet Ittifoqi paviloni va boshqa ko'pgina binolar G'ozg'on marmari bilan bezatilgan. Bundan tashqari Moskva, Leningrad, Kiev, Boku, Olmaota, Novo-sibirsk va boshqa shaharlardagi chet davlatlardan Chexoslovakiya, Frantsiya, Yaponiya, Mongoliya, Italiya kabilarga eksport qilinmoqda.

Yashma — yarim yumshoq tosh turiga kirib, juda chiroyli har xil rangli, rasmlı, juda zich bo'ladi. Qip-qizil yoki ochiq yashil ranglisi ham bo'ladi. Uning rasmlari to'liqinsimon, to'g'ri, dog'lar holida va bir tekis bo'yalgan bo'lmaydi. Murakkab rasmlı va murakkab ranglı yashma qadim ziddi chalmani eslatadi. Fantastik rasm va naqshlar ko'rinishiga ega bo'lib, o'ziga xos har xil ishlangan rasmlarni eslatadi.

Malaxit — oynadan birmuncha yumshoq, tabiat-da kurtaksimon holda uchrab, uni kesganda qiziqarli oval shaklidagi, lentasimon, to'q yashil yuzalarni qora kontur chiziqli bo'lib, ajoyib tasvirni beradi. To'q yashil, ochiq yashil va havorang malaxitlar ham bo'ladi. Malaxitdan zargarlikda va tosh o'ymakorligida juda keng foydalaniladi. Uni qayta ishlash juda qiyin bo'lishiga qaramasdan arxitektura bezagida keng qo'llaniladi.

Nefrit — juda qattiq tosh. Qadimda bu toshni oltin bahosida hisoblaganlar. U asosan kulrang yashil ba'zan sutsimon, sariq, qizil va qora ranglilari ham uchraydi. Xitoyda nefritdan har xil cholg'u asboblari va har xil taqinchoqlar tayyorlashda keng foydalanishgan. Nefritdan arxitektura bezagida va tosh o'ymakorligida har xil o'yma lagalar, ko'zalar har xil namoyonlar va boshqa narsalar ishlanadi. Temurning Go'ri Amir maqbarasida ajoyib naqshlarni o'yib toshlar ishlangan. Temurning qabri ustidagi to'k yashil rangli nefrit diqqatni o'ziga jalb etadi. Ulug'bek 1425 yilda mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonganidan so'ng o'ljalar ichida katta ikki bo'lak nefrit toshi ham bo'ladi. Bu nefritni yaxshilab ishlab, bir-biriga ulab Temur qabri ustiga qo'yadilar.

Gipstosh — uni ba'zan angidrid deb ham yuri-tadilar, chunki angidrid qattiqroq bo'lib, manzarali ko'rinishga ega emas. Gipstosh yarim yalti-roqsimon har xil dog'li, xuddi ilon terisiga o'xshashroq bo'ladi. Uning yumshoqroq turi ish-latiladi. Undan tosh o'ymakorligida har xil yodgorliklar, haykallar, o'yma naqshli namoyon, lagalar, ko'za va boshqa narsalar yasaladi. Arxitektura keng foydalaniladi.

Agat — xaltsedon qattiq tosh turiga kirib, o'zining rang-barangligi va juda chiroyli ko'ri-nishi bilan ajralib turadi. Uning rangi sutsimon, och havorang, kulrang, tillarang, pushti va boshqa ranglarda bo'ladi. U yalti-roqsimon xususiyatga ega bo'lib, undan kichik zargarlik buyumlari, kichik sovg'a buyumlari, ajoyib san'ati noyob san'at turi bo'lib, yangi zamon nafasi bilan yangicha jilo hamda go'zallik kasb etishi shubhasizdir. Hozir o'lmas san'at sirlari ishonchli, talantli qo'llarda.

Kulolchilik. Kulolchilik loydan mo'jizakor go'zallik yaratgan. Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san'atidir. Bu loy, saxovat, halollik, ezgulik timsolidir.

Tuproq insonlarning barcha yehtiyojini o'z zimmasiga olgan farovonlik, to'kinlik, rizq-ro'z, go'zallikning eng oliy ko'rinishi san'atning zaminidir.

Kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug'ullanadi. Ular o'ziga xos tomonlari bilan birbiridan farq qiladi. O'zbek kulolchiligi o'ziga xos tarixga, ajoyib an'analar, shakl-mazmun ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega. Sopol buyumlari sodda bo'lsada uning badiiy qismlarining aniqligi, mutanosibligi saqlanishi, naqshlarning badiiy joylashishi, shakl va mazmunning birligi, uyg'unligi o'zbek kulollarini jahonga tanitib kelmoqda. Kulolchilik hunari loydan, gilola, kosa, tovoq, ko'za, lagan, xurmacha, tog'ora, xum, tandir, tayum o'yinchoqlar qurilish materiallari va boshqalar tayyorlaydigan mahsulot bo'lib, u uzoq tarixga ega maxsus to'proqni o'ta qizdirganda mahsulot bo'lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar qadimdan neolit davrining boshlaridayoq bilganlar.

Ular avval loydan idish-tovoqlar yasab, xumdonda qizdirib pishirganlar. To'proq jahonning hamma yerlarida bo'lgani uchun kulolchilik keng tarqalgan bo'lib, dastlab bu hunar bilan ayollar shug'ullanganlar. Kulolchilik charxi miloddan avvalgi uch ming yillarning boshlarida keng qilingandan keyin kulolchilik bilan yerkaklar shug'ullana boshlaganlar.

O'zbekiston kulolchilik san'atining eng boy merosini saqlab qolgan maskan hisoblanadi, chunki zamonaviy an'anaviy va noan'anaviy kulolchilik san'ati (XIX asrda tarixan shakllangan) vakillarida mahalliy madaniyatning tarixiy qatlamlariga qiziqishlari kuzatilmoqda.

O'zbekistonda qadimdan har vohaning hunarmandchilik markazlari mavjudga kelib shakllangan. Ishlab chiqarish uslubi bo'yicha kulolchilik ikkita asosiy turlarga bo'lingan – sirlangan va sirlanmagan. Sirlanmagan kulolchilik qadim tarixga ega. VIII asr oxiri – IX asr boshida Movarounnahr shaharlarida sirlangan kulollik keng tarqalgan. IX-XVIII asrlarda ushbu uslub badiiy kamollikka va yuqori texnologik darajaga ega bo'ldi.

XX asrdan hozirgi O'zbekiston hududlarida asosiy maktablar va markazlar quydagi hududlar bo'yicha tashkil topdi:

- Samarqand-Buxoro maktabi, Toshkent, Samarqand, Urgut, Buxoro, G'ijduvon, Shahrisabz, Kitob, Kattako'rg'on, Denov markazlari bilan.
- Farg'ona maktabi Rishton va G'urumsaroy markazlari bilan.
- Xorazm maktabi Xonqa, Modir qishlog'i, Kattabog', Chimboy markazlari.

Har bir markaz o'ziga xos mahalliy xususiyatlarini saqlagan, ularda

hozirgi vaqtda sopol idishlarning yassi (kosalar, laganlar), baland, ya'ni yuqoriga qarab yo'naltirilgan (ko'zalar, xumlar) turlari va uy-ro'zg'or buyumlar ishlab chiqarilmoqda.

Farg'ona va Xorazm kulolchiligida an'anaviy moviy rangdagi ishqorli sir tayyorlash yo'lga qo'yilgan, ammo ular o'ziga xos bezak naqshlari va buyumlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi, kulolchilik san'atining bu uslubi namoyandalaridan M.Turopov (G'urumsaroy), I.Komilov (Rishton), R.Matchonov (Xorazm) kabilar.

Buxoro-Samarqand sopol buyumlari jarangdor nafis bo'lib chiqishida qo'rg'oshinli sir va sarg'ish-yashil, jigarrang bo'yoqlar muhim o'rinni egallaydi (namoyondalari Alisher va Abdulla Narzullaevlar (G'ijduvon), Namoz va No'mon Obloqulovlar (Urgut), X.Haqberdiev (Samarqand)).

Qashqadaryo (Kasbi) kulolchiligida hozirgi kunda faqat sirlanmagan buyumlar ishlab chiqarilmoqda.

Badiiy kulolchilik san'ati har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda va targ'ib etilmoqda, uning yanada rivoj olishi uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda.

1. Kulolchilik san'ati tarixi
2. Kulolchilikda ishlatiladigan asboblari
3. Kulolchilik texnologiyasi
4. Kulolchilikda ishlatiladigan loy turlari

Kulolchilik qora loydan mo'jizakor go'zallik yaratgan Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san'atidir. Bu qora loy, saxovat, halollik, ezgulik timsolidir. Tuproq insonlarning barcha ehtiyojini o'z zimmasiga olgan farovonlik, to'kinlik, rizq-ro'z, go'zallikning eng oliy ko'rinishi san'atining zaminidir. Kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug'ullanadi. Ular o'ziga xos tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi. O'zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega. Sopol buyumlari sodda bo'lsada uning ko'rinishi qismlarining aniqligi, mutanosibligi saqlanishi, naqshlarining badiiy joylashishi, shakl va mazmunining birligi, uyg'unligi o'zbek kulollarini jahonga tanitib kelmoqda. Kulolchilik hunari loydan, piyola, kosa, tovoq, ko'za, lagan, xurmacha, tog'ora, xum, tan-dir, buyum, o'yinchoqlar, qurilish materiallari va boshqalar tayyorlaydigan soha bo'lib, u uzoq tarixga ega. Maxsus tuproqni o'ta qizdirganda toshsimon bo'lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan neolit davrining boshlari-

bilganlar. Ular avval loydan idish-tovoqlar yasab, gulxanda qidirib pishirganlar. Tuproq jaqonning hamma yerlarida bo'lgani tufon kulolchilik keng tarqalgan bo'lib, dastlab bu hunar bilan ayollar shug'ullanganlar. Kulolchilik charxi miloddan avvalgi 3-ming yillikning boshlarida ixtiro qilingandan keyin kulolchilik bilan erkaklar shug'ullana boshlaganlar. Keyinchalik choydan yasalgan idish-tovoqlarni maxsus o'choq hamda xumdonlarda pishirganlar Neolit davrida idishlarni tagi uchli qilib tayyorlanib yerga sanchib qo'yilgan. Neolit davrida esa Sharq mamlakatlarida hamda Qadimgi Gretsiyada nafis kulolchilik idishlari rivoj etgan va me'morchilikda sopoldan foydalana boshlagan. VIII—XII asrlarda kulolchilik O'rta Osiyoda yaxshi rivojlangan. Buni Afrosiyobda va O'rta Osiyoning boshqa yerlarida topilgan kulolchilik buyumlari isbotlab berdi. O'sha davrda O'rta Osiyo madaniyati tez sur'atlar bilan rivojlandi. Yangi ko'tarilish davri bo'ldi. Ko'pgina olim, yozuvchi va mutafakkirlar, ya'ni Abu Ali ibn Sino, Beruni, Firdousi, Ro'dakilar yetishib chiqdi. Butun dunyoga mashhur bo'lgan me'morchilik yodgorliklari bunyod etildi. Buxoroda Imoil Somoniy maqbarasi qurildi. XIII asrda mo'g'ullar bosqinchiligi oqibatida Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Balx yong'in ostida qoldi. Oqibatda kulolchilik san'ati rivojiga putur ketdi. XIV asrdan boshlab O'rta Osiyo territoriyasida kulolchilik tez sur'atlar bilan rivojlandi. Amir Temur xalq amaliy san'atini rivojlantirishda juda katta xizmat qildi. Bosib olingan joylardan ustalarni olib kelib ular uchun rastalar ochtirdi. Mashhur go'zal, nafis binolar, qasrlar, saroylar qurdirdi. Amir Temur vafotidan so'ng o'zaro gichki janglar oqibatida Temuriylar xonligida U markazlashgan xonlik kuchsizlanib ketdi. Natijada Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari paydo bo'ldi. O'rta Osiyoda bir necha feodal davlatning bunday ajralishi natijasida o'zaro aloqa susayib ketishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham kulolchilik turli yerlarda turlicha rivojlandi. XIX asrga kelib kulolchilik mamlakatlari tashkil bo'la boshladi. O'rta Osiyoda suvga bo'lgan ehtiyoj katta bo'lgani uchun sopol idishlarni tez sur'atlar bilan ishlab chiqarishga ehtiyoj sezildi. Asrlar osha ularning shakli va bezagi nafislashib bordi. Ustalar turli-tuman kulolchilik buyumlarini yasashdan tashqari ularni yuksak did bilan bezay boshladilar 72 rasm.



72-rasm

XIX asrda arzon baho chinini ishlab chiqarilishi va Rossiyadan chinini idishlarni ko'plab olib keltirilishi O'rta Osiyo territoriyasida sopol buyumlar ishlashni birmuncha pasaytirib yubordi. Lekin arzon sopol idishlarni me'morchilikda keng foydalanilishi kulolchilikning rivojlanishiga to'sqinlik qila olmadi.

XIX asrda O'rta Osiyoda tojik va o'zbek xalqlari o'rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib G'ijduvon, Panjikent, Samarqand, Shahrisbuz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo'ldi. Ular sopol idishlarini sirlab bezatishning o'ziga xos uslublarini vujudga keltirdilar. Ayniqsa, ishlab chiqarilayotgan kulolchilik mahsulotlarining sifatligi, chiroyliligi, naqshlarining nafis va ta'sirchanligi bilan shuhrat qozondilar. 1930 yilda Toshkentda eksperimental keramika va Samarqandda keramika ustaxonalari ochildi. 1932 yilda Toshkentda o'quv-ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etilib u yer xalq amaliy san'ati ustalari shu qatori kulollar tayyorlaydigan kurslar tashkil etildi (1943 yilda Shahrisabzda o'quv-ishlab chiqarish badiiy kombinati ishga tushdi). Kulolchilik sirasrorlarini mashhur kulollar yoshlar-ga sitqidildan o'rgatdilar. Bular rishtonlik Uzoq Shermatov, Xolmat Yunusov, g'ijduvonlik Muhammad Siddiq, Usmon Umarov, Toshkentlik Turob Miraliev, shahrisabzlik Rustam Egamberdiev, Karim Hazratqulov va boshqalar edi.

Ko'pgina kulolchilik ustaxonalari, artellari tashkil etildi. 40 yillarda G'ijduvondagi «Na-muna», Rishtonda «Yangi hayot» artellari faqat jumhuriyatimizda emas, balki butun dunyoga mashhur edi.

Ayniqsa kulolchilikni tatbiq etishda O'zbekiston xalq rassomi, san'atshunoslik nom-zodi Muhiddin Rahimov samarali mehnat qildi. U o'ziga xos kulolchilik maktabini yaratib, xalq san'atiga oid bir qancha asarlar va ajoyib shogirdlar qoldirdi.

Muhiddin Rahimov—Toshkent kulolchilik maktabining mashhur ustalaridan biri (1903). Kulol, san'atshunos, Rassomlar uyushmasining a'zosi, O'zbekiston xalq rassomi kulolchilik hunarini qarindoshlaridan o'rgangan. Turkiston xalq xo'jaligi kengashi qoshidagi Toshkent badiiy hunarmandchilik maktabi (1918—20), Moskva Silikatlar instituti (1924—26) da va Leningrad Keramika instituti (1927—29) da o'qigan. U Samarqand va Toshkentdagi qadimiy me'morchilik yodgorliklarini ta'mirlashda qatnashdi. Rahimov ijodida an'anaviy o'zbek kulolchiligi bilan zamonaviy sovet sopolchiligi uyg'unlashgan. Ijodining dastlabki davrida yaratgan buyumlari (yirik shaklli erkin bandu quyuq bo'yalgan naqsh bezaklari) da yorqin zamindagi ko'k, yashil, sariq gullar jilosi ajoyib kompozitsiya hosil qiladi. O'rta asrlar kulolchiligini yaxshi o'rgangan Rahimov an'anaviy lagan, guldona va yangi shaklli bezak idishlar, portretli sovg'a buyumlar yaratdi, ularning bezagida o'simliksimon naqshlar bilan bir qatorda mazmun, hayvon shakllari va yozuvli tasvirlardan mohirona foydalandi. Sopol materialini va bo'yoqlarini o'rganish yo'lidagi izlanishlar samarasi sifatida bir qator asarlar maydonga keldi, masalan, 1961 yilda rus tilida «Xudojestvennaya keramika Uzbekistana» asari va boshqalar. U Jamoat nomidagi san'atshunoslik institutida ilmiy xodim bulib ishlagan (1965—71), Toshkent teatr va rassomchilik san'ati instituti (1958—61) va P. Benkov nomidagi Jumhuriyat badiiy bilim yurtida dars bergan (1952—76).

Xorazm kulolchilik san'atiga katta hissa qo'shgan ustalardan biri Raimberdi Matjonovdir.

Raimberdi Matjonov — Xorazm badiiy kulolchilik maktabi O'zbekiston amaliy bezak san'atida alohida o'rin tutdi. Kulolchilik maktabi Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlar kulolchilik maktablaridan o'ziga xos yasash uslubi, texnologiyasi, naqsh kompozitsiyalari, koloriti, dinamikligi kishilarga estetik ta'sirchanligi bilan alohida o'rin tutadi. Xorazmda bu qadimiy san'at avlodidan-avlodga an'ana tariqasida o'tib hozirgi kunda ham rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Ana shunday badiiy kulolchilik an'anasini davom ettirib kelayotgan Xorazm kulolchilik maktabining yirik vakillaridan biri.


Raimberdi Matjonov Xorazmning qadimiy kulolchilik markazlaridan biri Madir qishlog'ida 1909 yili kulolchilar oilasida dunyoga keldi.

O'sha davrda Madir qishlog'ida o'n besh kulolchilik ustaxonasi bo'lib, ularda saksondan ortiq kulollar ishlar edi. Koshin pishirishda o'sha davrda nom qozongan ustalar Usta Bolta Matrizayev, Bolta Vaisov, Matjon Qulmatovlar bor edi. Matjon kulolning o'g'li Raimberdi o'z otasidan kulolchilik sir-asrorlarini o'rgana boshladi. U avval loydan har xil o'yinchoqlar, shakllar yasagan bo'lsa, keyinchalik ixcham bodiya, koshinni o'rgandi. Kulolchilik sirasrorlarini olti yil deganda o'rganib, Eshim kulolning oq fotihasini oldi. O'zi mustaqil idish va ko-shinlar ijod qila boshladi. 1930 yili R. Matjonov kooperativ arteliga kirib kulolchilik ishlarini davom ettirdi. O'sha davrda kulollar juda kamayib ketgan edi. Uning bu og'ir ishlariga turmush o'rtog'i yordam berardi.

Usta naqqoshlik sir-asrorlarini mukammal o'rgandi. U shu o'rgangan naqshlarini kulollik buyumlariga qo'llashga astoydil intilib, XIX— XX asr Xiva koshinkorlik an'analarini boyitadigan buyumlarni yaratdi. Kulol ishlab chiqarayotgan buyumlarda ham, koshinda ham uch xil oq, yashil, lojuvard ranglardan foydalandi. U ranglarni tayyorlash texnologiyasini ham juda yaxshi bilar edi. Idish tayyorlangandan so'ng qo'lda va shtamp yordamida naqsh chiziladi, unga sir berilib oftobda quritilib pechda qizdiriladi. Usta sirni o'zi tayyorlardi. Qoraqumga borib, chog'on yoki kirchop yig'ib darhol o'sha joyda yoqib kulini ustaxonaga olib kelib maydalangan shisha uniga qo'shadi. Ya'ni uch qism kulga bir qism shisha kukuni qo'shiladi. Uni biror idishda suv bilan aralashtirib tayyorlangan bodiyaga surtiladi. Keyin bodiyani o'tda pishirishda o'sha yumaloq suyuqlik o'tga tashlanadi. U o'tda bodiyaga urilib rangini o'zgartiradi. O'sha qum poroshogini suz bilan aralashtirib, sovitiladi hamda tozalanaadi. Unga un va ozgina mis oksidi qo'shib tayyorlaydi, so'ngra bodiya sirtiga surkaydi. Kulol Raimberdi Matjonov shu texnologiya asosida loydan xum, ko'za, tog'ora, chanoq, choynak, piyola, oftoba, bodiya va boshqa xilma-xil badiiy buyumlar tayyorladi. Xalqimiz «shogirdsiz usta mevasiz daraxt» deb bejiz aytmagan. Ustani Xorazmda sermeva daraxtga o'xshatishadi, chunki juda ko'p shogirdlar yetishtirib chiqardi. Uning shogirdlari Davron Sa'dullaev, Amin Mirzaev, Maryamjon Matjonova, Mukaramma Sa'dullaevalar hozir badiiy kulolchilik san'atini rivojlantirishda katta hissa qo'shmoqdalar. Tarixiy obidalarni ta'mirlashda usta kulolning xizmatlari katta. 1956 yili Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbarasini ta'mirlashda qatnashdi. U gumbazning pastki qismi uchun qadimgi uslubda zangori rangda koshinlar tayyorlab bergan, ular hozirgi

kunda avvalgidek rangini yo'qotmay turibdi. Kulol yana Ko'hna ark darvozasining ikki minorasini va boshqa me'morchilik yodgorliklarini ta'mirlashda qatnashdi.

1975 yili Xalq Xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasi Bosh komiteti xalq ustasini kumush medal bilan taqdirladi. 1970 yildan beri Rassomlar uyushmasining a'zosi Usta Raimberdi Matjonov sehrli qo'llarida say-qal topgan badiiy kulolchilik buyumlari Jumhuriya-timizning va Ittifoqimizning turli shaharlarida ham chet ellarda masalan, Vengriya, Frantsiya, Chexoslovakiya, Hindiston, Italiya, Mongoliya kabi xorijiy mamlakatlarda namoyish etilib faxrli o'rinlarni egalladi 73 rasm.



73-rasm

Kashtachilik. O'zbek milliy kashtachiligi (kashtado'zlik) amaliy san'ning eng qadimiy turlaridan bulib, u xalqning o'z turmushini go'zal kilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuxrat qozongan, misol tariqasida O'zbek xalk ustalari qo'llari bilan tikilgan kirpech, so'zana, zardevor, gulkurpa, choyshab kabilar. Germaniya Federativ Respublikasi, Belgiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Xindiston, Afg'oniston kabi xorijiy, shuningdek, mamlakatimizning Farg'ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki mo'zeglarda doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. Xozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni xayratga solib kelmoqda. Badiy kashtachilik o'zoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O'zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq xolda barcha kasb-xunarlar bilan birgalikda rivoj topgan. Kashtachilik san'tining eng qadimiysi bizgacha saqlanib qolmagan bo'lsada XIV-XV

asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin. Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavien Amir Temur saroyida O'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini kundaligiga yozib qoldirgan. 1467 yili Kamoliddin Bexzod «Zafarnoma» ga ishlagan «Temur taxtda» miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan. 19 asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Mashinada kashtalarning ko'p ishlab chiqarilishi ularning badiiyligiga putur yetkazadi. Gul kashtalari unutila boshlandi. Lekin ayrim xillargina saqlanib qoldi. O'zbek kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi. O'zbek kashtachilariga nazar solsak, unda Xind, Xitoy, Rus, Afg'on, Qozoq, Qirg'iz va Tojik kashtachilarining usul va uslublarini uchratamiz.

O'zbek kashtachilarida o'simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko'p bo'lsa, rus kashtachiligida geometrik, o'simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko'p tasvirlanadi. Qozoq va qirg'iz kashtachiligida esa ko'proq xayvonlar, shox va tuyoqlarini eslatuvchi elementlar tasvirlanadi.

Qadimiy an'analarga ko'ra, O'zbek qizlari – bo'lajak kelinchaklar seplari – xar xil kashtachilik buyumlarini o'zlari tayyorlashlari lozim edi. Kashtalar kanchalik nozik, chiroyli bo'lsa, qayliq shunchalik yuqori baxolanar edi. Qizlar 7-9 yoshdan boshlab kashta tikishga o'rgatilardi. Ular uch, to'rt yildan keyin mustaqil kashta tika boshlaydilar. Yetishib chiqqan kashtachilar o'zining san'ati va tabiatiga ko'ra go'zallik xaqida-gi orzularini ifodalashga xarakat qilganlar 74 rasm.



74-rasm

Kashtachilikning maxsus turlaridan biri – applikatsiyadir.

Applikatsiya - lotincha yopishtirish degan ma'noni bildirib, gazlama qog'oz va boshqa tikish yuli bilan bezash demakdir. Applikatsiya

kashtado'zlikni maxsus turi bo'lib, u o'ziga xos texnologiyaga ega. Asosiy matoga rangdor mato parchasini, charm va boshqalarni qotib, atrofi choklanadi. Applikatsiyada ko'pincha izma choklardan foydalaniladi. Kashtaning bu turi O'zbekistonda yaxshi rivojlanmagan. Hozirgi vaqtda ko'pincha bolalar paltolariga, kuylaklariga, bosh kiyimlariga xar xil qush, meva, gul va xayvonlar tasviri applikatsiya usulida choklanadi. Ayrim xollarda ayollarning kiyimlari va buyumlarni bezashda applikatsiya usulida keng foydalanib kelinmoqda.

Kashtachilikda bezak buyumlari turlari O'rta Osiyo kashtachilikda keng tarqalgan bo'lib, oilada xar bir ayol kashta tikishni bilishi kerak bo'lgan. Shuning uchun xar bir oila o'zi uchun kirpech, so'zana, dorpech, oynaxalta, choyxalta va boshqalarni o'zlari tayyorlagan. Bezak buyumlarining turi juda ko'p masalan, so'zana, kirpech, choyshab, oynaxalta, choyxalta. Zardevor, palak, gulko'rpa, dorpech, bug'joma, parda, belbog', takyapush (yostik ustiga yopiladigan), do'ppi, kuylak, dastro'mol, xamyon, joynamoz, sumka, nimcha, maxsi-kavush, xaltasa va boshqalar badiiy did bilan matolarga tikilgan. Keyinchalik satin, shoyi baxmalga tikiladigan bo'ldi. Kashtachilikda ishlatiladigan bezak buyum turlari bilan Joynamoz – yerga solib ustida namoz o'qiydigan to'shama. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar ishlatishadi. U ibodat vaqtida tikishini bu dunyodan ajratuvchi omil deb tasavvur qilinadi. Joynamoz xar xil matodan tayyorlanib, uning uch tomoni mexrob shaklida tikilgan bo'ladi. Undan machit, madrasa va uylarda foydalaniladi. U turli o'lchamda bo'ladi. Ibodatni kanda qilmaslik uchun boshqa narsalardan foydalanish mumkin. Masalan, chopon, qiyiqcha. Sholcha kabilardan, chunki ular diniy nuqtai -nazardan pok xisoblanadi. Joynamoz kashtachilikda juda chiroyli qilib bezatilgan bo'ladi.

Zardevor – uy jihozi. U sidirg'a shoyi baxmal, satinga kashta tikib bezatilgan badiiy buyuminiatyura Zardevor O'zbek xamda tojiklarda yangi tushgan kelinning uyiga, shiftiga yoki devoriga ilib qo'yiladi. U zar ip yoki ipak hajmli bo'lib, eni 40-70 sm, uzunligi mo'ljallangan uyning devoriga moslab tikiladi.

Palak - devorlarga ilinadigan eng yirik, eng qimmat bezak buyumlaridan biri. Palakda osmon va to'lin oy aks ettiriladi. Uni qadimda oq va malla bo'zga kashta tikib tayyorlangan. U so'zanadan gullarining yirikligi, zaminiga xam kashta qoplanishi bilan farq qiladi. Palakni o'rtasida yirik oy tasviri qizil qirmizi, pushti ipak bilan kashtalanadi

va atrofi juda chiroyli qilib qalampir elementlari qo'llaniladi. Palakdan qirqtacha oy xam tasvirlash mumkin, shuning uchun oyning soniga qarab olti oyli palak, o'n ikki oyli palak, xattoki katta uylar uchun qirq oyli palak, tikilgani bizga ma'luminiatyura Oylar turli ranglar bilan bir necha xil tasvirlangan. Mashxur kashtado'zlar ba'zida oyni ajoyib naqshlar bilan bezab, o'z maxoratlarini namoyon etganlar. Agar oyul ichi sidirg'a rangda ifodalangan bo'lsa, uni oypalak, agar naqshli bo'lsa gulpanak va xokazo nomlar bilan yuritiladi. Keyingi vaqtlarda palakni qo'lda tikishga katta axamiyat berilmoqda.

Kirpech – kirpush, tokchaga taxlab qo'yilgan kiyim-kechak ustidan yoki devorni vertikal bush joylariga ilib, uyni bezatib turishi uchun ishlatiladigan badiiy buyuminiatyura Kirpech kashtalari qo'lda yoki mashinada tikiladi. Kirpech qo'lda ilma kashta bilan bezaladi. U kiyim-kechakni changdan saqlaydi va uyni bezab turadi. Odatda, palakka o'xshatib tikilgan kirpechpalak deb yuritiladi. Bu turi xam keng ishlatiladi.

So'zana – forscha so'zana deb xam yuritiladi. Igna bilan tikilgan degan ma'noni beradi. So'zana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bo'lib, xonani bezatish uchun devorga ilib qo'yiladi. U satin, baxmal, shoyi va boshqa matolarga kashta tikib tayyorlanadi. U o'ziga xos badiiy ko'rinishga ega. Matoning rangidan ustalarimiz kashta zamin sifatida foydalanadilar. Shuning uchun palakdan farq qiladi. So'zana xar bir xonadonda bo'lgan, chunki bir qiz turmushga chiqishidan oldin o'zi uchun so'zana tayyorlagan. So'zana kelinlarning sepi xisoblangan. Kambagal oilada so'zanani malla, oq bo'zdan, badavlatlarida esa shoyidan, baxmaldang tikishgan. So'zana uchun kompozitsion joylashgan o'simliksimon naqshlardan foydalaniladi. So'zana o'rtasida ko'pincha doirasimon gul tikilib atrofi guldor islimiy naqshlar bilan bezatiladi. So'zana tikish juda qadimdan rivojlangan bo'lib, XIX asrgacha bo'lgan so'zanalar saqlanmagan. Faqat XIX asrga oid Samarqand, Buxoro, Nurota, Farg'ona, O'rtatepa, Shaxrisabz, Toshkent va boshqa joylardagi so'zana turlaridan namunalar bor. San'atning bu turi ayniqsa O'zbekiston va Tojikiston territoriyasida qadimdan keng tarqalgan. Keyingi paytlarda 40 yillardan boshlab so'zana mashinada tikilib kelmoqda 75 rasm.



75-rasm

Choyshab – forsha-tojikcha ruyjo – tun chodiri degan ma’noni bildiradi. Choyshab asosan taxmonga tutish, yotganda yopinish uchun to’shak ustida to’shaladi. To’shak ustidan yoziladigan choyshab kam kashtali oq surp, taxmonga tutiladigan satin, shoyi, baxmal va boshqalardan tikiladi. Xozifig vaqtda choyshabdan so’zana kabi badiiy buyum sifatida xam foydalanib kelinmoqda.

Rang xaqida kashta tikish rang bilan chambarchas bogliqdir. Iplar tanlashda ranglarning uyg’unlashuvini, ular bir-biriga qanday ta’sir o’tirishini bilish zarur. Buning uchun loaqal ranglarning asosiy xususiyatlari va o’zaro ta’siri – ranglarning uyg’unligi, ularning xil tushishi bilan qisqacha tanishib chiqish zarur.

O’zaro mos ranglarni tanlashda berk spektr qatori ranglaridan iborat ranglar doirasi asos qilib olinadi.

Ranglar doirasini diametri buyicha bir tomonida qizil, to’k sariq, va sarg’ish-yashil, ikkinchi tomonida zangori yashil, zangori, ko’k, ko’kishi-binafsha ranglar qoladigan qilib ikkiga bo’lish mumkin.

Doiraning qizg’ish-sariq bulagidagi ranglar va ularning hamma turlari iliq ranglar deyiladi. Bular ochiq ranglar bo’lib, qizdirilgan jismlarni, olovni, quyosh nurini eslatadi. Ular burtib chiqib, oldingi planda turganday ko’rinadi.

Doiraning zangoriko’k bo’lagidagi ranglarni va ularning hamma turlarini sovuq ranglar deyiladi. Ular ko’kintir ufk, suv, mo’z ranglarni eslatadi. Bular ikinchi planda turganday ko’rinadi.

Xar qanday rang o’zining tusi, och va to’kligi bilan xarakterlanadi. Rang tusi – qizil, ko’k, sariq va xakozo – rangdorlik. Rang tusiga ko’ra bir rangni ikkinchisidan (yashilni ko’kdan, kukni zangoridan) farq qilinadi. Ochiqliq – oq rangga yaqinlik darajasi. Sirti oq bo’lgan narsalar atrofimizdagi hamma narsalar ichida eng ko’p nur qaytaradigan bo’ladi. Shuning uchun oqqa yaqin (och pushti, och-sariq va boshqa)

ranglar eng ochiq (demak, eng yorqin) ranglar bo'ladi.

Rangning tukligini quyuqlik darajasiga, eng ko'p rangdorligiga qarab belgilanadi. Masalan, ko'k rangni bundan ham ortiq ko'kartirib bulmasa, u tuk xisoblanadi.

Hamma ranglar xromatik va axromatik («xromos» grekchada rang, a – inkor) ranglarga bo'linadi. Spektrdagi hamma ranglar, shu ranglarning bexisob hamma turlari qatori xromatik ranglarga kiradi. Ular tonal deyiladi. Axromatik ranglarga oq, kulrang, qora ranglar kiradi. Bular tusi, turi yuk ranglardir. Ular neytral ranglar deyiladi.

Axromatik ranglar to'k bo'lmaydi. Ularning rang tusi xam bo'lmay, bir-biridan yorqinligi bilangina farq qiladi. Eng yorqin rang – bu oq rang. Qoraning yorqinligi bo'lmaydi.

Agar qizil rangning o'rtasida diametr o'tkazilsa, u ranglar doirasidagi qizil rangning taxminan to'grisidagi zangori-yashil rangni kesib o'tadi va xakozo. Demak, qizilga zangor-yashil, to'k sariqqa zangori, sariqqa – ko'k, yashilroq sariqqa – binafsha va xakozolar qo'shimcha rang bo'ladi.

Rang tanlashda uning yana bir xususiyatini esda tutish kerak. Rang buyumning shaklini yoki katta-kichikligini o'zgartirib ko'rsatishi mumkin. Agar qizil va ko'k dog'lar bilan qoplangan yuzaga qaralsa, bunda qizil dog'lar ko'k dog'larga nisbatan yaqinroq bo'lib, aldab ko'rinishi mumkin. Och va iliq ranglar to'q va sovuq ranglarga qaraganda yaqinroq ko'rinadi. Shuning uchun iliq ranglar buyumlarni kattalashgandek, sovuq ranglar esa kichiklashgandek ko'rsatadi. Ranglarning bu xususiyatidan kiyimning ayrim bo'laklarini bo'rttiribroq, turtib turgan joylarini silliqroq qilib ko'rsatish uchun foydalansa bo'ladi. Uzoqdan ko'rinadigan buyumlar kashtasini to'q kontrast rangdagi iplar bilan tikish mumkin.

Kashta tikish uchun iplarni tanlash, ular rangini xillash buyumning nimaga mo'ljallanganligiga, gulning kattaligiga va qanday joylashishiga bog'liq bo'ladi. Odatda, kashta guliga asosiy o'rin berilib, fonga (gazlama rangiga) qo'shimcha o'rin beriladi. Shuning uchun fon naqsh rangidan ochiq bo'lib ajralib turmasligi kerak. Kashta gulining rangini tanlash bajarish texnikasiga (sanama chok, vladimiricha chok, tekis chok va x.) ham bog'liq bo'ladi. Kashta tikish asboblari va moslamalari. Qo'lda kashta tikish uchun juda oddiy asboblari kerak. Bular: igna, angishvona, qaychi, santimetr, o'tkir uchli dukcha, kergi; bundan tashqari, milli-

metrlangan qog'oz, kalka, kopirovka qog'oz. Kashta tikish uchun cho'zinchoqroq ko'zli kalta (1- va 2-nomerli kashta tikadigan hamda turlanadigan) ignalar tanlangani ma'qul. Ignaning ko'zi katta bo'lsa, bir necha qavat ipni o'tkazish shuningdek, vladimiricha chokli kashtalarni tikishda ishlatiladi. Bu ignalar ipni sanash va ajratib olish uchun juda qulay. Jun ipni ignaga o'tkazish qiyin. Bu ipni o'tkazish uchun sotuvdagi ignalar komplektidagi ip o'tkazgichdan foydalanish mumkin. Uni bir qatim ipak yoki ingichka g'altak ip bilan o'tkazsa ham bo'ladi. Ipakni ikki qavat qilib, xosil bo'lgan petlya ichiga jun ip bilan birga tortib olinadi. Zich va yupka (markizet, polotno, shoyi, batis) gazlamaga kashta tikishda, ko'zi kichkina ingichka igna kerak buladi. Yugon igna sanchilgan joylarda teshik koladi., katta ko'zda esa ingichka ipni yaxshi tutib bulmaydi. Buyumlarni biriktirib ko'klash uchun 1- va 3-nomerli ignalar ishlatish qulayroq. Kashtani kergisiz tikishda, bir necha qavat gazlamaga igna sanchishda, buyumlar chetini buklab tikish va xokazolarda ignani gazlamadan o'tkazish uchun angishvona kerak bo'ladi. U barmoqni igna qirishidan saqlaydi. Angishvona o'ng qo'lning o'rta barmog'iga taqiladi, uning barmoqning yug'onligiga qarab tanlanadi, lekin u barmoqni siqib yoki undan tushib qolmasligi kerak. Ishlash uchun uch xil: uchni ingichka kichkina qaychi – kashta tikayotganda ip uchini qirqish uchun; katta qaychi – gazlama va kalava iplarni kirkish uchun. Qaychilar yaxshi charxlangan, tig'larining uchi to'la yopiladigan bo'lishi kerak. Santimetrli lenta tikish ishlarida buyum o'lchamlarini aniqlash, gazlamaga bezakni rejalash, tikish ishlarini bajarishda foydalaniladi. Uchli dukcha (suyakdan, yog'ochdan yoki plastmassadan) oq tekis chokli kashta tikishda teshikchalar xosil qilish uchun ishlatiladi. Dukchani diametri taxminan 5 mm, uzunligi 6-8 sm bo'lishi loziminyatura Kergilar gazlamani tarang tortib turish va deformatsiyalanishdan saqlash uchun ishlatiladi. Kergilar to'g'ri burchakli yoki doira shaklida bo'ladi. Doira shaklidagi yog'och kergi juda qulay. Kergilar diametri 20 – 40 sm li ikkita gardishdan iborat bo'lib, bir-birining ichiga tushib turadi. Agar kichik gardish katta gardish ichiga qiyin tushadigan bo'lsa, katta gardishning ichki tomonini jilvir bilan tozalash kerak, u juda kichik bo'lib, katta gardishdan tushib ketadigan bo'lsa, atrofiga yupqa gazlama o'rab qo'yish mumkin.

Kashta tikiladigan gazlamani keragiga tortishda uni kichik gardish ustiga qo'yib, iplarini qiyshaytirmaydigan qilib to'g'irlanadi. Katta

gardishni uning ustiga qo'yib, bosib gazlama tarang tortib qo'yiladi. Kergiga tortilayotgan yupka gazlama yirtilmasligi, shuningdek, kashta tikiladigan gazlama ish paytida kir bo'lmasligi uchun, uning ustiga o'rtasi kergining diametridan kichikroq doira qilib uyilgan boshqa gazlama qo'yiladi. Kergilar stolga maxkamlab qo'yish uchun vintli bo'lishi ham mumkin. Millimetrli kog'oz naqshlar, ayniqsa geometrik, sanama naqshlar to'zishda kerak bo'ladi. Kashta gulni gazlamaga kuchirishga tayyorlashda kalka ishlatiladi. Naqsh avval originaldan kalkaga ko'chiriladi, keyin kalkadan gazlamaga ko'chiriladi. Kashta gulini gazlamaga ko'chirish uchun kopirka qog'ozi ishlatiladi. Gazlama va ip tanlash. Kashta tikish uchun gazlama bilan ip buyumning nimaga mo'ljallanganligiga, bezakning xarakteriga va tikish usuliga muvofiq tanlanadi. Masalan, vladimiricha choklar bilan sochikka kashta tikish uchun zich gazlama, masalan, lavsanli zig'ir tola gazlama bilan bir necha qavat xar xil rangli iplar kerak, blo'zkani oq tekis chok bilan tikish uchun esa, yupkaroq gazlama (markizet, chit va x. k.) bilan 1 – 2 qavat bir xil rangli mo'line ip kerak. Iplarni sanab tikiladigan kashta uchun polotno usulida tutilgan gazlamalar: zig'ir va yarim zig'ir tolali (okartirilmagan, oq va rangli), markizet, rogojok, shtapel va shoyi polotno, siyrak (pishitilgan zigir tola ipdan siyrak tutilgan) gazlama olinadi. Polotno usulida tutilgan gazlamalarining asos (polotnoning buyiga yunalgan) iplari bir ip oralab chalishadi, shuning uchun asos ipi bir gal arqoq ipining ustidan; bir gal uning tagidan o'tadi. Polotno usuli eng oddiy tikish usulidir. Iplari shunday usulda tutilgan gazlamalar pishik, kam cho'ziladigan va kam kirishadigan o'ngi va teskarisi bir xil bo'ladi. Baxyasimon chokli kashta tikish uchun asos va arqoq iplarning yug'onligi bir xil gazlama kerak. Iplarni yug'onligi bir xil bo'lmasa, ish qiyinlashadi, chunki asos va arqoq iplarini sug'urib olishda sanaladigan iplar soni xar xil bo'ladi. Bunday kashtani tikishda gazlamaning asosiy ip tola, arkogi zigir tola bo'lgan yarim zig'ir tolali polotno ishlatib bo'lmaydi. Chizilgan kontur bo'ylab tikiladigan kashtalar uchun zig'ir tolali gazlamalar xam, shoyi xam, movut, yul-yul yoki katak gazlamalar xam, shuningdek, bo'rtgan yuli yoki katagi kashtaning guli va strukturasi o'zviy mos kelsa, yirik strukturali gazlama xam to'g'ri kelaveradi. Kashta tikish uchun merserlangan (yaltillatish, mayin kilish uchun kuyuk ishkor eritmasida ishlov berilgan) zig'ir va oddiy ip va turli rangdagi leningrad mulinesi ishlatiladi. Leningrad muline

ipning buyog'i chidamli, jilvali va pishiqligi yetarli darajada bo'ladi. Shuningdek, jun, shtapel, ipak, sintetik (kashmilon, lavsan, kapron) iplar, ola-bula pishik ip, ip va jun garus xam yaraydi. Tayyorlov ishlari uchun (asosiy polotnoga gazlama parsachini kuklash), buyum chetlarini buklab tikish, rangli oddiy 40-, 50-, 60- nomerli galtak ipi, ok tekis chokning tortimlarini tikish uchun esa 80- nomerli ip ishlatiladi. Iplar pishik, bir tekis buyalgan, yoruglik va suvga chidamli bulishi kerak. Ipning pishiqligi kul bilan tortib tekshiriladi: yaxshi ip darrov o'zilmay cho'zilish loziminyura Ip buyogining chidamliligini tekshirish uchun ipni kuyoshga kuyib kuriladi: bunda ip okarmasligi kerak.

Muline ip kalavasini ochib, tuguncha bir joyidan kirkiladi. Kalavada 14 ta livit, xar livitda 6 tadan ingichka ip buladi. Kashtadagi iplarning rangini moslab tanlash uchun ip namunalari uralgan kartonchalar yasab olish tavsiya etiladi. Buning uchun o'zunligi 15-20 sm, 4 sm karton tasmachalari kirkib olinadi. Tasmachaning o'zun tomoni buylab xar 1 sm oralikda nuktalar kuyib chikiladi. Kaychi bilan karton xar ikki santimetrida oldin bir tomonida, keyin ikkinchi tomonida yarim aylana yoki uchburchak shakli kirkib chikiladi. Kirkilgan joylar bir-biriga rupara bulishi kerak. Kalavadan bitta livitni adratib olib, kartonning kirkilgan joyiga urab kuyiladi. Bitta karton tasmachaga bir necha tusdagi ipni och rangidan tuk rangiga uta boradigan kilib joylashtiriladi.

Xar xil rangli iplarni sochdek kilib urish yaramaydi. Bunda bir xil rangdagi ip ikkinchi ip rangi bilan korishib ketadi-da, boshka tusga kirib, tanlab olishni kiyinlashtiradi.

Zardo'zlik. hunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri bo'lib zar ip bilan naqsh tikishdir. U forscha zardo'zi so'zini anglatadi.

Zardo'zlik san'ati uzoq tarixga ega. Zardo'zlikning vatani Vavilon bo'lib, u Rim imperiyasiga qarashli bo'lgach, zar, ipak va jun ip qo'shib tikilgan rang-barang kashtachiligi butun dunyoga mashhur bo'lgan. Vizantiyada zardo'zi kiyim-kechaklarni faqat imperator ayollari aslzodalar kiyishgan. Vizantiya bilan muntazam madaniyat hamda siyosiy hamkorlik qilishi to'fayli zardo'zlik san'ati Eron podsholigi saroyida ham rivoj topgan. Eronda zardo'zlik san'atining rivojlanganligiga XV-XVII asrda ishlangan zardo'zlik namunalari misol bo'la oladi 76 rasm.



76-rasm

Zardo'zlikda ishlatiladigan materiallar (gazlamalar turlari, zar iplar). Zardo'zlik buyumlarining xususiy texnologiyasi, o'sha buyum uchun material tanlash va uni bichishdan boshlanadi. Zardo'zlik mahsulotlarining asosiy xususiyatlaridan biri ularning sirtida zardo'zi naqshlarning bo'rtib turishidir. Shuning uchun, naqshlar tagiga tukli material ishlatiladi. Zardo'zlikda asosiy gazlamalardan duxoba, velyur gazlamalari ishlatiladi.

Duxoba-tukli o'rishlarda to'qilgan gazlama bo'lib, uning asosi paxta ipidan, faqat tuklarigina tabiiy ipakdan bo'ladi. Duxoba, asosan, uy -ro'zg'or buyumlarida ishlatilgan.

Velyur-sidirg'a, zich to'kilgan, tukli gazlama. Tuklari tik, jun ipdan to'qilgan. Hozirgi kunda zardo'zlikda sintetik tola aralashtirib to'qilgan, zardo'zlar «taqir velyur» deb atashadigan turi ko'p ishlatiladi. Undan barcha turdagi zardo'zlik buyumlari tikiladi. Bu velyur turi chidamliligi, pishiqligi, qattiqligi, ko'rkamligi va boshqa xossalari bilan zardo'zlikka juda mos tushadi.

Zardo'zlikda ishlatiladigan yordamchi gazlamlarga quyidagilar kiradi:

Bo'z (xom surp) - pardozlanmagan ip - gazlama, ancha qalin va og'ir material. Bo'z karda ipdan polotno o'rishlarda to'qilgan, shuning uchun pishik va cho'zilmaydi.


Surp-oqartirilgan va pardozlangan bo'z. XX asrgacha bo'lgan zardo'zlikda surp chakmon, poyabzallarda naqshlar ostiga tagzamin sifatida ishlatilgan. Hozir ham kumush rangli ip bilan tikiladigan naqshlar ostiga qo'yiladi.

Turli navdagi simli iplar zardo'zlik uchun asosiy xom-ashyo bo'lib hisoblangan. Oq va tillarang tusdagi yassilangan kumush tolasi sim deb

atalib, u Buxoro zardo'zlari tomonidan keng qo'llanilgan.

Dumaloq metall ip (likkak) - pishiq yigirilgan ingichka dumaloq metall ipdan iborat bo'lib, u prujinaga o'xshab likillb turadi.

Zar iplardan tashqari zardo'zlikda jaydari rangdor ipak iplardan ham foydalanib, ular asosan gullarga qo'shimcha oro berishda hamda matoga zar yo'l tushirishda ishlatiladi 77 rasm.



77-rasm

Qadimda ham, hozir ham zardo'zlik bilan shug'ullanadigan hunarmandlarni «zardo'z» deb atashadi. O'zbekiston kashtachiligini noyob turi zardo'zlik san'atisiz to'la tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu san'at o'tgan asrning o'rtalarida Buxoroda gurkirab rivojlangan. U yerda mohir ustalar amir saroyining ustaxonalarida amir va uning saroy ahli kiyadigan dabdabali kiyimlarga pardo'z berishgan. Zardo'zlik odatda erkaklarga mansub bo'lgan va ular o'z hunarini bolalariga meros qilib qoldirishgan. Zardo'zlik san'ati o'zining uzoq tarixiga ega bo'lib, deyarli barcha Sharq mamlakatlari uning vatani hisoblanadi. Zardo'zlik san'atining an'analari o'z davrida ham mavjud va mashhur bo'lgandir. Hozirgi Eronda esa XV-XVII asrlardagi zardo'zlik namunalari anchagina saqlanib qolgandir.

Buxoro zardo'zi ashyolarining deyarli hammasi amir saroyining ehtiyoji uchun ishlatilgan, faqat juda oz miqdorigina sotish uchun bozorga chiqarilardi. U paytda zardan tikilgan erkaklar kiyimlarini faqatgina xonga va uning qon- qarindoshlariga tegishli insonlar kiyar edilar. Hech kim, hatto eng katta amaldorlardan birortasi ushbu qimmatbaho kiyimlarni o'ziga buyurtirishga haqqi yo'q edi. Ular bu kiyimlarni amir sovg'a qilgandagina kiyishlari mumkin edi. Ayollar va bolalarning zardo'z kiyimlarini esa faqatgina badavlat xonadon a'zolari kiyishga haqli edilar. Zar va kumush ip bilan erkaklar to'ni, sella, do'ppi, shalvar, poyabzallar, ayollarning ko'ylak, kamzul kaltacha,

peshanaband, ro‘mol, etik va tuflilari tikilgan.

Mustaqillikka erishgan kunimizdan boshlab davlatimizning butun siyosati o‘zligimizni qayta tiklash va mustahkamlashga qaratildi. Ayniqsa, mamlakatimiz ertasi bo‘lgan yoshlarimizda bunday muqaddas hissiy tuyg‘uni shakllantirishda ona tilimiz, ana‘analarimiz va urf-odatlarimiz bilan birga milliy xunarmandchiligimiz ham muhim o‘rin tutadi.

1997-yil 31 martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq badiiy xunarmandchiligi va amaliy san‘atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni e‘lon qilindi. Farmonga asosan Respublika «Hunarmand» uyushmasi tashkil etildi va uning viloyatlarda hududiy bo‘linmalari ochildi. Bu uyushma va uning hududiy bo‘linmalarini tashkil etishdan maqsad, uzoq yillar mobaynida unutilib ketgan xalq amaliy san‘ti va xunarmandchiligini tiklash, o‘zbek milliy amaliy san‘ati va xunarmandchiligini butun dunyoga tanitish edi.

Zardo‘zlik - qiziqarli va ijodiy ish bo‘lib, u insonga ko‘p quvonch keltirishi, bo‘sh vaqtda ermak bo‘lishi, insonni nafasat olamiga olib kirishi mumkin. Zar tikish usullarini o‘zlashtirayotganda hamma narsa birdaniga yaxshi chiqmasligi mumkin, chunki zardo‘zlik sabr-toqatli, e‘tiborli, tartibli bo‘lishni talab etadi. Chidamli bo‘lish lozimiyatiyura Kerakli malakalar egallagan sayin ish asta-sekin osonlasha boradi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Amaliy san‘at deb nimaga aytiladi va uning turlari haqida nimalarni bilasiz?
2. O‘rta osiyodagi Amaliy san‘at ning qaysi turlari ko‘proq rivojlangan va sababi nimada.
3. Amaliy san‘at orqali yoshlarda qanday tarbiyani amalga oshirish mumkin.
4. Amaliy san‘at turlaridan kelib chiqib qanday maxsulotlar ishlatiladi?
5. Amaliy san‘at ustalari va maktablari haqida aytib bering

XULOSA

O'zbekiston shahdamlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarida tub islohatlarni amalga oshirib yangicha qarashlar bilan dunyoga yuz tutmoqda.

Qadimgi dunyo san'ati tarixi yer yuzida quldorlik formatsiyasining paydo bo'lishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi davridagi san'atni o'rganadi va tahlil qiladi.

Quldorlik jamiyatining maydonga kelishi tarixiy zarurat bo'lib, avvalgi jamiyatga nisbatan progressiv ahamiyatga ega edi. U ishlab chiqarish kuch va madaniyatining keyingi taraqqiyotini belgiladi. Qullarni yekspluatatsiya qilish aqliy mehnatni jismoniy mehnatdan ajratib yubordi.

Bu esa, o'z navbatida inson ma'naviy dunyosining rivojlanishiga, jumladan, san'atning ravnaqiga zamin yaratdi. Agar sinfsiz jamiyat davrida san'at insonning kundalik hayoti, ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, yendilikda u ijtimoiy ongning ajralmas qismiga aylandi va sinfiy kurash ijtimoiy hayotda muhim o'rin tuta boshladi. Ijtimoiy hayotning murakkablashishi san'atni obrazli bilish asosida kengaytirdi. Bu davrda san'at taraqqiyoti bevosita din, mifologik tushunchalar zahirida rivojlanishini davom yettirgan bo'lsa ham, lekin birmuncha tantanali ruh ola boshladi.

San'atda voqelikni obrazli bilish tomonlari kuchaydi. Uning tur va janrlari kengaydi. Bu davrda san'atda sintez masalasining hal yetilishi yesa insoniyatning qo'lga kiritgan buyuk yutuqlaridan bo'ldi. Qadimgi dunyo san'atining yana bir muhim tomoni shu bo'ldiki, unda milliy o'ziga xos tomonlar yaqqol ko'zga tashlana bordi. Katta-katta madaniyat markazlari vujudga keldi. Ularning san'atlari bir-biridan ko'rinishi, xarakteri, voqeligini obrazli ifoda yetishi bilan ajralib turadi.

TASVIRIY SAN'AT FANLARIDAN MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TEST

1-savol.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qaysi qismida tasviriy san'atni o'qitish bilan bog'liq fikrlar bayon etilgan?

- (a) "Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari" qismida
- (b) "Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar" qismida
- (c) "Umumiy O'rta ta'lim" qismida

2-savol.

"Metodika" so'zining ta'rifi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- (a) Metodika - o'qitishning nazariy asoslarini ifoda etuvchi asosiy vositalardan biri
- (b) Metodika - o'qitishda didaktik prinsiplarni maqsadga muvofiq yo'nalishlariga xizmat qiladigan pedagogik texnologiya
- (c) Metodika - ta'lim va tarbiyani maqsadga muvofiq amalga oshirishning eng samarali yo'l va uslublar majmui

3-savol.

"Metodika" turlari qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- (a) Ko'rgazmalilik, ilmiylik metodikasi
- (b) Didaktika, uzluksiz ta'lim metodikasi
- (c) Umumiy metodika, xususiy metodika

4-savol.

Rasm chizishga o'rgatish dastlab qaysi mamlakatlarda boshlangan?

- (a) Misrda
- (b) Rimda
- (c) Yunonistonda

5-savol.

Jahon tarixida rasm chizishga o'rgatish metodikasi bo'yicha dastlabki samarali mehnat qilgan mutaxassislar qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- (a) Gete, Shmidt, Prang, Bryullov
- (b) Pamfil, Chennini, Alberti, Leonardo da Vinchi
- (c) Leonardo da Vinchi, Kulman, Savrasov, Renuar

6-savol.

Rasm chizishga o'rgatishda «Naturadan chizish metodi» qaysi olimlar tomonidan kiritilgan?

- (a) Komenskiy, Russo, Gete
- (b) Pestalossin, Shmidt, Gete
- (c) Kulman, Prang, Baumgart

7-savol.

Rossiyada birinchi bor yaratilgan «Курс рисовани» nomli darslik muallifi kim?

- (a) A. Voskresenskiy
- (b) P.Chistyakov
- (c) A. Sapojnikov

8-savol.

Venera bu-

- (a) yunon va rum afsonalarida muhabbat va go'zallik ma'budasi
- (b) yunon va rum afsonalarida gullar ma'budasi
- (c) yunon va rum afsonalarida tinchlik ma'budasi

9-savol.

O'zbekistonda birinchi bor tasviriy san'at darsligi qachon chop etilgan

- (a) 1969 yilda
- (b) 1964 yilda
- (c) 1972 yilda

10-savol.

Rasm chizishni o'rgatishga bo'lgan birinchi intilishlar qaysi tarixiy davrga to'g'ri keladi?

- (a) Mezolit
- (b) Paleolit
- (c) Neolit

11-savol.

Poytaxtimizning Milliy bog'ida o'rnatilgan ulug' shoir Alisher Navoiy obraziga atalgan yodgorlik qaysi haykaltaroshlar tomonidan yaratilgan?

- (a) A. Raxmatullaev, I.Jabborov, Ye.Aliev
- (b) I. Jabborov, R.Mirtojiev, T.Toshxjaev
- (c) Ye.Aliev, N.Bandeladze, V.Degtyarov

12-savol.

Mazkur asar muallifini toping

- (a) Sh.Xasanova
- (b) N.Oripova
- (c) S.Keltayeva



13-savol.

B'enale nima?

- (a) ikki yilda bir marta bo'ladigan ko'rgazma
- (b) Taqdimot usuli
- (c) Muzey namoyishi

14-savol.

Buyuk rus portret janri rassomi berilgan javobni toping?

- (a) Polenov
- (b) Kramskoy
- (c) Vasilev

15-savol.

Impressionizm oqimi qanday oqim?

- (a) Borliqni asl holidek tasvirlash
- (b) Borliqni buzib ko'rsatish
- (c) Borliqni inkor etish

16-savol

"Boysun madonnasi" asari muallifi kim?

- (a) V.Burmakin
- (b) G'.Abdurahmonov
- (c) R.Choriev

17-savol.

"Spitamen qo'zg'oloni" asarining muallifi kim?

- (a) R.Choriev
- (b) A.Aliqulov
- (c) M.Nabiev

18-savol.

Sikkion maktabning qaysi vakili yoshlarga saboq berishni ilmiy asoslangan, nazariy va ilmiy metodikasining ishlab chiqan?

- (a) Melantiy
- (b) Yevomp

(c) Pamfil

19-savol.

Qadimgi Yunonistondagi maktablarda rassomlar tayyorlash uchun qaysi metodlardan foydalanilgan?

- (a) o'qitishning ilmiy asoslangan metodi
- (b) nusxa ko'chirish metodi
- (c) natura asosida rasm chizish

20-savol.

Qadimgi Yunoniston rassomchilik maktablari qaysi qatorda tog'ri ko'rsatilgan?

- (a) Makedoniya, Sikion, Afina
- (b) Sikion, Efess, Fivan
- (c) Afina, Fivan, Sparta

21-savol.

XX asrning eng mashhur o'zbek rassomlari kimlar?

- (a) I. Jabborov, O. Qozoqov, Mo'minov, Kaydalov, A. Volkov
- (b) U. Tansiqboev, Z. Inog'omov, A. Abdullaev, S. Abdullaev, M. Nabiev
- (c) A. Mirzaev, Ch. Radjabova, I. Inog'omxjaev, O. Yunusov D. Boqiev

22-savol.

Leon Battista Albertining mashhur asari qanday nomlangan?

- (a) Rangtasvir to'g'risida uch kitob
- (b) Emil asari
- (c) Buyuk didaktika

23-savol.

Rassom Lutfulla Abdullayev tomonidan yaratilgan portretni belgilang

(rasm ustga belgi qoying)



24-savol.

Mazkur asar muallifini toping!

- (a) E.Bozorov
- (b) J.Jumanov
- (c) A.Aliqulov



25-savol.

Rassom Yusuf Elizarov tomonidan yaratilgan portretni toping!



26-savol.

Rasom Xurshid Ziyaxonov ijodiga mansub asarni toping!



27-savol.

Mazkur asar muallifini toping!

- (a) N.Qo'ziboyev
- (b) M.Saidov
- (c) Z.Inog'omov



28-savol.

Mazkur asar muallifini toping!

(a)



(b)



(c)



29-savol.

Mazkur asar muallifini toping!

(a)



(b)



(c)



30-savol.

Lojuard rangni toping!

(a)



ko'k rang

(b)



yashil rang

(c)



sariq rang

31-savol.

Moslikni birlashtiring!

(Asar mualliflarini toping va chiziqlar yordamida birlashtiring)

Alisher Mirzo



A.Abdullayev



O'Tansiqboyev



A.Aliqulov



32-savol.

Mazkur asar muallifini yozing (Ismi va familiyasi)!


(Bo'sh jadvalga yozing)



33-savol.

Mazkur asarning to'liq nomini yozing!

(Bo'sh jadvalga yozing)



34-savol.

Russom Akmal Nur ijodiga masub mazkur asar nomini yozing!



35-savol.

Mazkur asar muallifi kim!

- (a) Ortig'ali Qozoqov
- (b) Erkin Jo'rayev
- (c) Akmal Nur



36-savol. Portret ishlash jarayonining bosqichlarini tog'ri joylashtiring!		
№	Portret	Asar bosqichini to'g'ri joylashtiring
1		
2		
3		
4		

37-savol. Manzara ishlash jarayonining bosqichlarini tog'ri joylashtiring!		
№	Manzara	Правильный порядок
1		
2		

3		
4		

38-savol.

Quyosh va qorda qanday ranglar bor? To'g'ri javobni tanlang!

(mazkur javoblarning qaysi biri tog'ri bo'lsa tagiga chizing)

Quyosh - _____ (Axromatik rang/Xromatik rang).

Qor - _____ (Axromatik rang/Xromatik rang).

39-savol.

..... - (frans bas-relief -- pastkki relyef) haykaltaroshlikda relyef turi, tasvirning bo'rtib chiqqan qismi fon tekisligida o'z hajmining yarmiga teng miqdorda aks ettiriladi. (Tarifga mos javobni imlo hatosiz yozing.)

(to'g'ri javobni qo'lda yozing)

To'g'ri javobni kiriting: _____

40-savol.

David haykalining muallifi kim?

- (a) Danatello
- (b) Mikelanjelo
- (c) Rafael



41-savol.

Mazkur haykalning muallifini yozing?

(Jadvalga to'g'ri javobni yozing)



42-savol.

Eng dastlabki Misr ehromlarining nomi nima?

- (a) Kromlex
- (b) Doltan
- (c) Mastaba



44-savol.

Mazkur asarning muallfi kim

(Jadvalga to'g'ri javobni yozing)



44-savol.

Mazkur mashhur mahobatli asarning nomini to'liq yozing!

(imlo hatolarsiz)

(jadvalga to'g'ri javobni kiriting)



45-savol.

Mustaqillik maydonidagi "Baxtiyor ona" haykalinining muallifi kim?

- (a) I.Jabborov
- (b) J.Mirtojiev
- (c) R.Ermetov



46-savol.

Moslikni birlashtiring!

(Asar mualliflarini to'g'ri bir chiziq bilan birlashtiring)

A.Abdullayev	
J.Umarbekov	
A.Nuritdinov	
B.Jalolov	
O'.tansiqboyev	

47-savol.

Antik san'atga taqlid qilish ma'nosidan kelib chiqqan o'rta asrlarda xukm surgan badiiy uslub.

- (a) Barokko uslubi
- (b) Gotika uslubi
- (c) Roman uslubi

48-savol.

G'amli orzular kayfiyatini beruvchi rassom, «Venerani tug'ilishi», «Bahor» kabi asarlar muallifi kim?

- (a) Rafael
- (b) Mikelandjelo
- (c) Botichelli

49-savol.

Bofta nima?

- (a) To'qima, to'qima shakldagi islimiy naqsh bo'lagi
- (b) Targ'il turi
- (c) Bezakli gul

50-savol.

Marg'ula nima?

- (a) Qo'sh bandli gajaksimon islimiy naqsh bo'lagi bo'lib, novda va tanoblarining tugallanishi bildiradi
- (b) Murakkab naqshlar mujassamotining asosini tashkil etuvchi va naqshga shakl beruvchi chiziq
- (c) Sipiralsimon to'qilgan shakldagi islimiy naqsh bo'lagi

GLOSSARIY

A			
1	Abstraksionizm – XX asrda mavjud bo'lgan san'at yo'nalishi, haykaltaroshlik va grafikada haqiqiy jismlar tasviridan vos kechgan san'at turi.	Абстракционизм - течение в искусстве 20 века, принципиально отказавшееся от изображения реальных предметов в живописи, скульптуре и графике.	Abstractionism - art of the 20 th century, principle refused to image of real objects in painting, sculpture and drawing.
2	Avangardizm – XX asr san'ati yo'nalishining yangi, ga'yritabiiy, izlanishlar boshlanishi.	Авангардизм - Совокупность экспериментальных, модернистских, необычных, поисковых начинаний в искусстве 20 века.	Avant-garde - refers to people or works that are <u>experimental</u> or innovative, particularly with respect to <u>art and culture</u> in 20 th century
3	Avtogravyura - gravyuraning bu turida muallif san'at asarini linoleum, daraxt yoki metal materiallarida ishlaydi.	Автогравюра- гравюра, в которой печатную форму на дереве, линолеуме или металле выполняет автор.	Auto engraving- engraving etching, author performs the printing plate on wood, linoleum or metal
4	Avtolitografiya – litografiyaning bu turida muallif o'z asarini toshga o'yib ishlaydi. Oddiy litografiyada tasvir toshga usta tomonidan yoki mexanik tarzda ishlanadi.	Автолитография- вид литографии, при которой изображение на камень наносит автор. В отличие от репродукционной литографии, где оригинал воспроизводится на камне мастером или механически.	Auto-view - lithography, kind of lithography, the author causes the image on the stone. Unlike lithography of reproduction, where the original is played on a stone by craftsman or mechanically.
5	Avtoportret – (grek – o'zim) muallif o'z tasvirini ishlaydigan san'at asari. Bu jarayonda asar muallif va ishlanadigan model bir obyektga gavdalanadi.	Автопортрет - (греч. — сам) — портрет, в котором художник изображает самого себя. В этом случае создатель произведения и модель совмещаются в одном лице.	Self Portrait - (Greek - himself) - a portrait in which the artist depicts himself. In this case, the creator of the product and the model are combined in one person.
B			
1	Baget - (frans baguette - tayoqcha) rasm uchun maxsus romlarini yasash, devorlarga bezak berish uchun qo'llaniladigan yog'och plitalar.	Барет - (от фр. baguette, букв. палочка) - деревянная или пластиковая планка для изготовления рамок для картин и украшения стен.	Baguette - (from Fr. Baguette, letters. Coli) - wooden or plastic slats for making picture frames and wall decorations.

2	Bazilika – (grekbasilike – qirolikuyi) qadimiy rim me'morchiligidagi sadovgarlik va sud inshooti, keyinchalik esa roman va gotlar, uyg'onish davri va barokko uslubidagi bino hisoblangan. Bazilikaning rivojlangan shakli – tog'ri to'rtburchak, bino ko'rinishida, ichi qator ustunlarga yoki uzunasiga qismlarga bo'lingan.	Базилика-(от греч. basilike – царский дом), тип торгового и судебного здания в архитектуре Древнего Рима, позже – один из основных типов христианского храма в зодчестве Византии, Сирии, в архитектуре романского стиля и готики, Возрождения и барокко. базилика в своей развитой форме – прямоугольное в плане здание, внутри разделенное рядами столбов или колонн на продольные части (нефы);	Basilica (from the Greek. Basilike - royal house), the type of trade and court building in the architecture of ancient Rome, and later – one of the main types of the Christian church in the architecture of the Byzantine Empire, Syria, in the architecture of the Romanesque and Gothic, Renaissance and Baroque. basil in its developed form - rectangular building, inside divided rows of pillars or columns on the longitudinal part (aisles);
3	Barbizon maktabi– 1830 – 1860 yillar mobaynida Barbizon qishlog'i yonidagi Fontenblo c'rmoni oldida ijod qilgan T. Russo, J. Dyupre, N. V.Diaz va b. Fransuz manzara janri namoyondalari guruhi. Ular manzaraning milliy ko'rinishining estetik mohiyatini, tabiatning turli-tuman holatlarini, nur va havo tebranishlarini yetkazib berishga intilganlar.	Барбизонская школа - группа французских живописцев-пейзажистов (Т. Руссо, Ж. Дюпре, Н.В. Дياز, Ш.Ф. Добиньи, К. Труайон), работавших в 1830–1860-е годы в деревне Барбизон близ леса Фонтенбло. Стремилась утвердить эстетическую ценность национального ландшафта и обыденных пейзажных мотивов, передать многообразные состояния природы, вибрацию света и воздуха.	Barbizon School - a group of French painters of Landscape (T. Russo, J. Dupre, N. Diaz, Daubigny SF, C. Troyon) who worked in the 1830s, 1860s in the village of Barbizon near Fontainebleau Forest. Sought to assert the aesthetic value of the national landscape and everyday landscape motifs, transfer multiple states of nature, the vibration of light and air.
4	Barelyef – (frans bas-relief – pastkki relyef) relyef turi, tasvirming bo'rtib chiqqan qismi fon tekisligida o'z hajmining yarmiga teng miqdorda aks ettiriladi.	Барельеф - (франц. bas-relief, буквально– низкий рельеф), тип рельефа, в котором выпуклая часть изображения выступает над плоскостью фона не более чем на половину своего объема.	Bas-relief-(French bas-relief, low relief, literally), the type of relief in which the convex part of the image appears above the background no more than half of its volume.
5	Barokko – XVI-XVIII asro xirlaridagi Yevropa me'morchiligida masshtab va ritmlar, material va faktura, soya va yorug'liklarning uyg'unligi kabi hususiyatlarga ega bo'lgan san'at yo'nalishi.	Барокко - Направление в европейской архитектуре и искусстве конца 16-18 веков, для которого характерно: - сильные контрасты масштабов и ритмов, материалов и фактур, света и тени.	Baroque- an elaborate theatrical style gaudily ornate ornamentation in decorative art and architecture that flourished in Europe in the 16th to 18th century characterized by curved rather than straight lines.

V

1	Vatman - (angl. whatman) - qalin qattiq qog'oz. Juda sifatli, yuzasi ga'dir - budur, mustahkam va yaxshi moylangan qog'oz. Qog'oz nomi ingliz qog'oz korxonasi egasi J. Vatman sharafiga qo'yilgan.	Ватман - (От англ. whatman) - плотная белая бумага, высший сорт бумаги с шероховатой поверхностью, хорошо проклеенной и прочной. Названо по имени владельца английской бумажной фабрики Дж. Ватмана.	Whatman - (from the English. Whatman) - thick white paper, high grade paper with a rough surface, good sized and strong. Named after the owner of English J. Whatman paper mill.
2	Venetsiya maktabi - Italiya tasviriy san'atidagi asosiy va tarixli maktablardan biri. Asosan XV—XVI asrlarda (Uyg'onish davrida) jadal rivojlandi. Bu maktabga tasviriy san'atni boshlashda aniq rasmlarni anatomiya bilimlari bilan birgalikda bilish, rasmdagi ranglarga kuchli e'tibor berish, kutilmagan kompozitsion qarorlar qabul qilish kabi hususiyatlar hosdir. XIV asr Venetsiya maktabi. Bu davrning o'ziga hosligi shundaki, bu davrda vizantiya va gotlarning badii an'analari chambarchas bog'langan.	Венецианская школа - Одна из главных итальянских живописных школ. Наибольшее развитие получила во второй половине XV—XVI веках (эпоха Возрождения). Для этой школы характерны преобладание живописных начал в сочетании с точным рисунком и хорошим знанием анатомии, внимательное отношение к колориту картины, неожиданные композиционные решения. Венецианская школа XIV века. Для этого периода характерно переплетение византийской и готической художественных традиций.	Venetian School - One of the main Italian schools of painting. Most developed in the second half of the XV-XVI centuries (Renaissance). For this school is characterized by the predominance of paintings began in conjunction with the exact figure and a good knowledge of anatomy, careful attention to the color of a picture, unexpected compositions. XIV century Venetian school. This period is characterized by interweaving of Byzantine and Gothic art traditions.
3	Vitraj - (frans-shisha, oyna) Shisha yoki oynada bo'y oqlar bilan tasvirishlash, yoki rangli shisha bo'lakchalari bilan rasm ishlash, metal (asosan qo'ng'oshin) muqova bilan qoplangan. Vitraj mahobatli rang tasvirning turlaridan biri hisoblanadi. Odatda eshik derazalarni dekorativ bezashda ishlatiladi.	Витраж - (фр. — стекло). Живопись на стекле прозрачными красками или картина (композиция, орнамент), составленная из кусков разноцветного стекла, скрепленного металлическим (чаще свинцовым) переплетом. Витражи — один из видов монументально-декоративного искусства — прежде всего, служат для заполнения оконных и дверных проемов.	Stained Glass - (Fr. - glass). Painting on glass or transparent colors painting (composition, ornament), made from pieces of colored glass, bonded metal (usually lead) binding. Stained glass - a type of monumental and decorative art - primarily used to fill the window and door openings.

G			
1	Galereya – tasviriysan'at, madaniyatbuyumlarivaas-arlarinisaqlab, himoyaqladigan, o'rganadiganvanamoyishetadigandavlat, mahalliyokihususiymuassasa. Tutgano'nvivavazifalarigako'ragalereyatijoriy faoliyatolibborishimumkin	Галерея - Государственное, общественное или частное предприятие, постоянно занимающееся экспонированием, хранением, изучением и пропагандой искусства. В зависимости от статуса и поставленных задач галерея может вести коммерческую деятельность.	Gallery - State, public or private enterprise, constantly engaged in exhibiting, storing, studying and promoting the art. Depending on the status and tasks gallery can conduct business.
2	Gamma – ranglar jilosi, ko'proqamaliysan'atdaqo'llaniladiganbimechtaranlamingo'zaro'uyg'unligi. Issiq,sovuq, yorqin va boshqaxillargaajratiladi	Гамма - гамма цветовая, ряд гармонически взаимосвязанных оттенков цвета (обычно с одним доминирующим), используемый при создании произведений живописи, декоративно-прикладного искусства и др. Различают теплую холодную, светлую и другие гаммы.	Gamma - Gamma color, a number of harmonically related colors (usually with one dominant), used in the creation of paintings, arts and crafts, etc. There are a warm cold, light, and other schemes.
